

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK -TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**

“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI

Kasbiy faoliyat psixologiyasi

fanidan

**O'QUV – USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish va texnik soha

Ta'lim sohasi: 320000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari

**Ta'lim yo'nalishi: 5320400 – “Kimyoviy texnologiya”
5321000 – “Oziq-ovqat texnologiyasi”**

Namangan – 2020

Mazkur o'quv-uslubiy majmua, 2019 yil 19 aprelda № BD – 5111000 – 3.11 - raqami bilan ro'yxatga olingan va O'zR OVO'MTVning 2019 yil 2 maydagi №394–sonli buyrug'ining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan, Toshkent Kimyo-texnologiya institutida ishlab chiqilgan namunaviy fan dasturi asosida tuzildi, NamMTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2020 yil 26 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilindi hamda institut kengashida tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Tuzuvchi: N.Mullaboyeva – PhD, katta o'qituvchi

Taqrizchilar: O`.Asqarova – NamDU, p.f.d. dotsent.

J.Ergashev – NamMTI, t.f.d. dotsent.

O'quv-uslubiy majmua NamMTI kengashning 2020 yil “29” avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	4
I. Ma’ruza materiallari.....	6
II. Mustaqil ta’lim mavzulari.....	113
III. Glossariy	118
IV. Ilovalar	141

- fan dasturi

- fanning ishchi dasturi

-tarqatma materiallar

- testlar

- baholash mezoni

SO‘Z BOSHI

Oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy psixologiya fanining roli va o‘rni beqiyosdir. «Kasbiy psixologiya» psixologiya fanining muhim sohalaridan biri bo‘lib, uning yordamida inson psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, kasb bog‘liq bo‘lgan jihatlari haqidagi to‘liq ma‘lumotlar to‘plash imkoniga ega bo‘linadi. Sababi kasbiy faoliyat psixologiyasi va pedagogikasi zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo‘lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Kasbiy ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning o‘z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metodlaridan samarali foydalanishlari lozimligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki kasbiy-psixologik diagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta‘sir omillarini, kasbga nisbatan qobiliyatini o‘rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika hamda korreksion ishlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb ko‘rsatilgan.¹(2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son)

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”²-deydi prezidentimiz SH. Mirziyoyev.

Mazkur o‘quv uslubiy majmua “Kasbiy faoliyat psixologiyasi” fanidan “Kimyoviy texnologiya” va “Oziq ovqat texnologiyasi” ta‘lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Kimyo texnologiya fakultetining “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan. “Kasbiy faoliyat psixologiyasi” fani o‘quv uslubiy majmuasini yaratishda yetakchi xorijiy OTMlari o‘quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan - C. Cameron, (2004) *Social Pedagogy and Care: Danish and German practice in young people’s residential care*, *Journal of Social Work*. Vol 4, no 2, pp 133 – 151. Frost Davis, Rebecca, Matthew K. Gold, Katherine D. Harris, and Jentery Sayers, eds. [Digital Pedagogy in the Humanities: Concepts, Models, and Experiments](#). GitHub, Inc., 19 Dec. 2014. Web. 15 May 2015. adabiyotlardagi ma‘lumotlardan foydalanildi.

Kasbiy psixologiya haqida umumiy tushunchalar, fanning rivojlanish tarixi, kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari, shaxs uning rivojlanishi, psixik jarayonlar (diqqa, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur) shakllanishi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, kishi xayot tarzining yosh davrlari - o‘smirlik, o‘spirinlik davrlari, professiografiya va psixoprofessiogramma, o‘rta maxsus ta‘limi o‘quvchilari o‘quv faoliyatining psixologik xususiyatlari, pedagog shaxsining psixologik

¹“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.-Toshkent, 2016y.,406-son, 5-modda.

²2017-2021 yillarda O‘zb.Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. Toshkent:Manaviyat. 2017.

xususiyatlari, haqida ma'lumotlar berilgan.

“Kasbiy psixologiya” fanini o‘zlashtirish natijasida, barkamol avlodni aqlan va jismonan rivojlanishi muammolari yuzasidan chiqarilgan qonun-qoidalariga amal qilish va sog‘lom, har tomonlama yetuk avlod yaratishga intilish, mohir pedagog ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ushbu o‘quv – uslubiy majmua ma’ruza materiallari, namunaviy va ishchi o‘quv dasturi, modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari, (adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ta’lim mavzulari, glossariy, keyslar banki, nazorat savollari va test savollari) va amaliy mashg‘ulotlar materiallaridan tashkil topgan.

Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad –talabalarda kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi, qonuniyatlari haqida, fanning kelib chiqish tarixini, bilish jarayonlarini, ularni shaxs kamolotidagi ahamiyati, shaxslararo munosabatlar, individual xususiyatlar hamda ularni shakillanib namoyon bo‘lishini, har bir yosh xususida qisqacha tavsif, kasblarning insonga qo‘yadigan talablari haqida tushunchalar bilan tanishtirish va ulardan pedagogik jarayonda samarali foydalanish mahoratini shakllantirishdir, hamda zamonaviy ilmiy bilimning o‘zgartirilishini tashkil etishdir.

Fanning vazifasi

-Talabalar «**Kasbiy faoliyat psixologiyasi**» fanining mazmun mohiyatini anglashi, shaxsning o‘ziga xos psixik jarayonlarini, xolat va individual xususiyatlarini, kasb egallashga doir psixologik bilimlarni *bilishi kerak*;

- davlatimizning barkamol avlodni aqlan va jismonan rivojlanishi muammolari yuzasidan chiqargan qonun-qoidalariga amal qilish va sog‘lom, har tomonlama etO‘q avlod yaratishga intilish, mohir pedagog hamda tarbiyachi, *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*.

I. MA'RUZA MATERIALLARI

Mavzu: Kasbiy psixologiya fanining predmeti

Reja

1. Kasb psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati.
2. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini

Kasbiy psixologiyaning maqsad va vazifalari.

Hurriyat – boy ma'naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari ta'lim – tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilish lozim bo'ladi. Bu borada pedagogik psixologiya va kasbiy psixologiya hozirgi zamon psixologiya fanining ruhiy olamining tabiati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Kasbiy psixologiyaning ta'limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'ngi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki, keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta'lim tizimlarida ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan muammoli interfaol talim metodlari) keng joriy qilinmoqda:

Kasbiy psixologiya – psixologiya ilmining tarmog'i sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir. Bolalar va yoshlarning maktabdagi hamda ta'lim – tarbiya muassasalaridagi faoliyat va xatti – harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandir. Kasbiy psixologiyaning predmeti maktabda bilim, ko'nikma va malakalarning egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek kasbiy psixologiya talim – tarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari, asbob – uskunalar va maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham Kasbiy psixologiya o'rganadi.

Hozirgi vaqtda Kasbiy psixologiya muhim vazifalaridan biri – maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu hol yangi ta'lim dasturiga o'tish munosabati bilan bog'liqdir. Kasbiy psixologiya shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Shuningdek, "Kasbiy psixologiya" ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi bo'lgan o'qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlarini ham o'rganadi. Bunda o'qituvchining ta'lim – tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlariga urg'u berish bilan birga, uning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi.

Kasbiy psixologiya umumiy psixologik qonuniyatlarni yoritib beradigan, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganadigan umumiy psixologiyaga asoslanadi.

SHu bois pedagogik psixologiya fanini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada to'plangan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Falsafa. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mushtarak, bir – biriga uzviy bog'liqdir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni – ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq – atvorini tadqiq etadi. Biroq, shunday bo'lsada, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib. Ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir. Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hmada psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Ontogenez – (yunoncha ontoz – mavjud, jon, zot; jenezis – kelib chiqsh, paydo bo'lish) – individning paydo bo'lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlari, undagi etakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar – yoshdavrlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini , unig ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlari psixologiyasi fani bu borada ham o'z – o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki, o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun – mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir.

Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar yosh davrlari psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi, chunonchi: bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (gerontopsixologiya) psixologiyasi kabi soalaridir. Yosh davrlari psixologiyasi fanining nazariy vazifalari shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladigan psixik faoliyat, holat va shart – sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek, inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kirgan ilmiy dalillarini ta'lim – tarbiya

sohalariga tadbqiq etish tashkil etadi.

Sotsiologiya. Psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli o'ziga xosdir.

Tabiiy fanlar: *fiziologiya, ximiya, fizika* va b.q. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'yektiv o'rganish uchun material beradi. Tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro va hamkorligi hozirgi kunga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyot va psixologiyaning o'zaro va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi.

Kasb psixologiyasining ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni jaxon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizga bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yartuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon – e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishsin.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatiga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak.

O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb – hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptik va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'g'arak va qo'shimcha yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb – hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi, sayoxatlar, uchrashuvlar, kasb – hunar fotoko'rgazmalarini

tashkil qilishlari zarur.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Kasbiy psixologiya fanining tarixi.
2. Psixik hodisalar.
3. Buyuk mutafakkirlar ruhiy hodisalar haqida..
4. Fanlar tizimida psixologiyaning o'rni.

Keyslar banki

Keys. Matematika o'qituvchisi mavzuni tushuntirmoqda. Komil ta'sirchan bola. Bundan oldingi eng yoqtirgan tarix darsida «uch» baho olgan edi. U o'zining omadsizligidan siqilib, qog'oz bog'lab o'tirgan edi.

O'qituvchi: Komil nima qilayapsan? Nimaga darsni eshitmayapsan? Sen o'zingni yomon tutayapsan.

Komil: Nima qilibdi? To'ng'illadi Komil.

O'qituvchi: Sen o'qituvchi bilan qanday gaplashyapsan? O'rningdan tur!

Komil: Nega men o'rnimdan turar ekanman? Men xech narsa qilganim yo'q.

O'qituvchi: Xali shunaqami? Sinfdan chiqib ket!

Komil: Chiqmayman!

O'qituvchi: Yo'q, chiqasan, o'qituvchi bolani qo'ldan ushlab hamma bolalar oldida sinfdan chiqarib yubordi.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

1. Bolani xulqida nimaga o'zgarish ro'y berdi?
2. O'qituvchining Komilga nisbatan pedagogik xarakterlarini izohlang.
3. O'qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?

Nazorat savollari

1. Kasbiy psixologiya predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat?
2. Fanning istiqboli haqida nima deya olasiz?
3. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
4. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o'zaro bog'liq?

Test savollari

1. **Psixologiyada dualizm oqimining asoschisi kim?**
A). Arastu *V). Demokrit S). Gippokrat D). Fales
2. **Kim «Jon bilan tana bo'linmasdir» degan fikrni bildirgan?**
A). Aflotun V). Demokrit *S). Arastu D). Geroklit
3. **Determenizm tamoyilining mohiyati nimadan iborat?**
*A). Sababiy bog'lanishdir V). Psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi, sharoit o'zgaradi S). Psixika ichki omillarga bog'liq D). Psixika mexanik tarzda namoyon bo'ladi
4. **Psixologiyaning predmeti xulq - atvor bo'lishi kerak, degan fikr qaysi oqim namoyondalaridan chiqqan?**
A). Freydizm V). Geshtalt psixologiya S). Assotsiativ *D). Bixeviorizm
5. **Psixologiya fanining asosiy o'rganadigan ob'yekti bu...**
*Bilish jarayonlarni, shaxs individual xususiyatlarini va xolatlarini
Inson ruxiy xolatini va shaxs individual xususiyatlarini
Kishilarning psixik xususiyatlarini va xolatlarini.

Shaxsning xususiyatlarini, xolatlarini va rivojlanishini

Mavzu: Psixologiyaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Psixologiyada muammo, gipoteza, konsepsiya, nazariyalar.
2. Psixologiyada tadqiqot metodlari tizimi.
3. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi:
4. Tadqiqot bosqichlari.

Tayanch soʻz va iboralar:

Tadqiqot ietodi haqida tushuncha. Tashkiliy metodlar guruhi. Kuzatish. Eksperiment. Sotsiometriya. Soʻrovlar. Empirik metodlar. Suhbat. Anketa. Test metodi. Maʼlumotlarni qayta ishlash, izohlash

Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy prinsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bogʻliqdir.

Oʻrganilayotgan predmet va hodisalar oʻzaro aloqador, bir-birini taqozo etadi, doimo oʻzgarishda, rivojlanishda, qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish zarurligidan kelib chiqadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Baʼzan bir-birini toʻldiradigan, yoki birini ikkinchisi inkor etadigan konsepsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni toʻgʻri anglab etish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini- determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bogʻliq hal qilinadi.

Hozirgi vaqtda psixologiyada XIX asrda vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizlari qadimgi yunon madaniyati tarixiga borib qadaladigan qator nazariyalar bor. Ularning eng koʻp tarqalganlari quyidagilardir: biogenetik nazariya (V. SHtern), sotsiogenetik nazariya (K. Levin), bixevioristik nazariya (E. Torndayk), psixoanaliz nazariyasi (Z. Freyd) va boshqalardir.

Psixologiya muammolari turli sohalar bilan bogʻliq boʻlishi bilan birga hozirgi kun uchun oʻta dolzarb vazifalarni hal qilish bilan ham bogʻliq. Bular jumlasiga ekologiya muammolari, zoopsixologiya va odamshunoslik muammolari, demografik va millatlararo munosabatlar muammosi, insonparvarlik muammolari bilan bogʻliq psixologik muammolarni koʻrsatish mumkin. Bulardan tashqari moddiy ishlab chiqarishni koʻpaytirish, mehnat samaradorligini oshirish, inson-inson, inson-texnika, er-inson, inson-iqlim munosabatlari, oila munosabatlari, oʻz joniga qasd qilish, turli jinoyatchilik singarilar ham oʻta muhim boʻlganligidan psixologik tadqiqotlar orqali aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi.

Psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Harqanday psixologik tadqiqot oʻz-oʻzini tekshirish, boshqalardagi oʻzgarish va rivojlanishni tekshirishdan iborat boʻladi, shuning uchun ham ularni subʼektiv va obʼektiv tadqiqot metodlari deb aytish mumkin. Ammo, aylanib kelib, hammasi ham psixik jarayon, uning paydo boʻlishi va rivojlanishini tadqiq qilishga xizmat qiladi, buni genetik metod desak boʻladi.

Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'ektiv metodlaridan foydalanish asosiga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faktlarini genetik (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialektik rivojlanishining barcha holatlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo'sinda olmoshtira olishlarini ko'rish va tushunib etishga harakat qiladi, o'rganilayotgan psixik faktning uning konkret tarixi jihatidan tasavvur etishga urinadi.

Psixologiyada genetik prinsipdan foydalanish zarurligini P. P. Blonskiy (1884-1941), L. S. Vigotskiy (1896-1934), S.L.Rubinshteyn (1889-1960), A.N. Leontev (1903-1979) lar o'z asarlarida ta'kidlaganlar.

Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda, ayniqsa bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo'ylama kesimi (prodolno'y razrez) bo'yicha o'rganish metodi deb atalgan usuli keng qo'llanilmoqda. Bu longityud metodi deb ham aytiladi. Longityud (inglizcha Longitude-dolgota) bir holatni uzoq vaqt va muntazam o'rganish metodidir.

Psixologiyaning asosiy metodlari. B. G. Ananov psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharxlash yoki interpretatsiya metodlari guruhlarga ajratadi.

Birinchi. **Tashkiliy guruh** o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzloqsiz), kompleks (ko'p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiy psixologiyada, sotsial psixologiyada, meditsina, sport, yuridik psixologiyada keng qo'llaniladi. Longityud metodi bilan bir holatni uzoq vaqt kuzatish, birdaniga bir necha sinaluvchini tekshirish, qiyoslash maqsadida qo'llaniladi. Nemis olimi V. SHtern, fransuz olimi R. Zazzo, rus olimlari N. A. Menchinskaya, A. N. Gvozdev, N. S. Leytis, V. S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish "Ona kundaligi" singari nomda ham atalishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar ilmiyligini oshirishda bir necha fanlar hamkorligiga suyanib kompleks metod qo'llaniladi. (Psixologiya, fiziologiya, genetika, falsafa, sotsiologiya, kibernetika, logika va boshqa fanlar hamkorligi). Hozir muxandislik psixologiyasi, psixo-fiziologiya, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasidagi ko'pgina kashfiyotlar shu usul bilan ochilmokda.

Ikkinchi guruh - empirik metodlarga kuzatish (o'z-o'zini kuzatish), eksperiment (tabiiy va laboratoriya eksperimenti), test, anketa, so'rovlar, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tadqiq qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnomalarni, qujrat, turmush faoliyati voqealarini taqlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnostika va prognozlash vazifalarini bajaradi.

Uchinchi guruq metodlar - natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik (miqdoriy) va psixologik (sifat) tahlili turlariga bo'linadi. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin: o'rta arifmetik qiymatni topish uchun qo'llaniladi;

M - yig'indi, V-variatsion miqdor, h- sinaluvchilar soni.
$$M = \frac{\sum}{h}; \quad \sqrt{\frac{C}{h-1}}$$

2) 0^1 q; son qatoridagi o'rta kvadrat og'ishini hisoblashda yoki standart og'ishni hisoblashda ishlatiladi. 0^1 - kvadratlik og'ish, S - dispersiya, h - miqdor.

3) $S_q \sum (V-M)^2$ -sonlar qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. V ba'zan «S» dispersiya» deb ham ataladi.

Tadqiqot metodlarining to'rtinchi guruhi - genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligining ildizini aniqlanadi. Uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yig'ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharxlanadi.

Tadqiqotning birinchi tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun to'g'risidagi taxmin va farazlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o'tkazish prinsipi, sharoiti, ob'ektiv va sub'ektiv omillar bo'yicha mulohaza yuritiladi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida esa olingan natijalarni qayta ishlanadi va bu ham o'z navbatida to'rt bosqichga bo'linadi:

a) materialni birlamchi tahlil qilish (sharxlash);

b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharxlanadi;

v) ikkilamchi tahlil (barqaror, ustuvor dalillar ajratiladi);

g) ikkilamchi sintez - (psixik qonuniyat, topilgan dalil, omil va tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosalar chiqarish).

Tadqiqot natijalarini sharxlashning to'rtinchi bosqichi - sharxlashda har bir fakt, alomat, ko'rsatkich, xossa psixik jihatdan so'z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi.

Psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tadqiqot metodlari **empirik metodlar** guruhidir. **Empirik (amaliy)** metodlar guruhiga kuzatish, suhbat, test, eksperiment (tajriba), biografiya, sotsiometriya usullari kiradi. Kuzatish metodi tashqi ob'ektiv va sub'yektiv (o'z-o'zini) o'rganishga imkon beradi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak: 1) Kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) Kuzatish ob'ekti tanlanadi; 3) Sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi; 4) Tadqiqot vaqti rejalashtiriladi; 5) Kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi; 6) Qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi; 7) Kuzatish shakli (yakka, guruh, jamoaviy) belgilanadi; 8) Kuzatishni qayd etib borish vositalari (kundalik, kino-video, foto, magnit yozuvi va boshqalar).

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv tizimidagi tashqi ifodasi, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutk faoliyati va boshqalar ham o'rganiladi.

Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o'z diqqatini taqsimlashi, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida ma'lumot yig'ish mumkin. Sport faoliyatini kuzatish orqali odam irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usini, o'zini idora qila olishini o'rganish mumkin. Muloqot jarayonini kuzatish orqali xarakter, nutq, his-tuyg'u xususiyatlarini, introvert yoki ekstravert ekanligini, qiziquvchanligini va boshqa xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatini, fikrning ob'ektga yo'naltirilganligini, ta'sirga berilishi yoki berilmasligini, chehrasidagi tashvish va iztirobni, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni o'rganish mumkin. Bundan tashqari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi singarilar ham o'rganiladi.

Psixologiyada o‘zini-o‘zi kuzatish (introspeksiya) usuli ham keng qo‘llaniladi.

Suxbat. Inson psixikasini o‘rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob’ekti va sub’ekti tanlanadi, MA’RUZAsi, vaqti, joyi aniqlanadi, yakka, guruhiy va jamoa bilan bog‘liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir.

Test. Test-inglizcha so‘z bo‘lib, sinash, tekshirish demakdir. SHaxsning aqliy o‘rishini, qobiliyatini. Irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llanadigan qisqa standart masala-topshiriq, misol, masala, jumboqlar, boshqotirmalar ham test deb atalishi mumkin. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste’dodli yoki iste’dodli emasligini - aqli zaifligini aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo‘llaniladi. Hozirgi davrdagi mashhur psixologlardan biri E.I.Rogov o‘zining «Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa» kitobida (Moskva VLADOS nashriyoti, 1999 yil. 1-tomi) «SHaxs tipologik xususiyatlarini aniqlash», «O‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlari darajasini aniqlash», «Pedagogik tajovuzkorlikni (so‘zini o‘tkaza olishni) baholash» singari test namunalarini bergan.

1905 yilda, ya’ni fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o‘rishi va iste’dodi darajalarini o‘lchash imkoniyati borligi g‘oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodining bir necha xillari qo‘llana boshlangan edi. Lekin test metodini qo‘llanish bizning mamlakatimizda yaqin vaqtlargacha e’tibordan chetda qolib ketdi, hatto ta’qiqlab qo‘yilgan edi.

CHet el testologlari tadqiqot ob’yektlarini o‘zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko‘nikma va malakalarni aralash holda o‘rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog‘liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar.

Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Krutetskiy, E.I.Rogov va boshqalar qo‘llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsipda tuzilgan. Ular testlar tafakkur ko‘rsatkichi (indikator) bo‘lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga ham erishdilar. Hozirgi vaqtda bolalarni maktabga olishda, kasb-hunarga yaroqliligini aniqlashda, ishga qabul qilishda va boshqalarda test sinovlari keng qo‘llanilmoqda.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlar Rorshax, Rozensveyg, Kettel. Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Agastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin.

Eng ko‘p tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish harakatlari, intellekt testlari, shaxs testlari (psixodiagnostika), shaxs «loyihasi» (proektiv) testlari kiradi.

Misol: «Ortiqcha so‘zni chiqarib tashlang!»:

A) Enisey, Dnepr, Sirdaryo, Amur (javob - Dnepr)

B) Petrozavodsk, Ijevsk, Sktivkar, Abakan (javob - Abakan)

V) Futbol, voleybol, basketbol, xokkey, suv polosi (javob - basketbol)

Testlardan yetishmagan so‘z yoki raqamlarni topib, o‘rniga qo‘ying singari shakllaridan qobiliyatni, kuzatuvchanlikni, xotirani tekshirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Eng asosiysi testlardan o‘quvchi bilimini tekshirish va baholashda qo‘llanadiganlari bo‘lib, o‘quv materialining asosiy qismini aniq va to‘liq bilishlarini aniqlashga qaratilganligidir. Unda savol va 3-4 javob ham beriladi, shulardan javobning

eng tugrisini topish talab qilinadi. Javoblarga ballar berilishi yoki berilmasligi ham mumkin.

Testlar yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko'nikmalarning, malakalarning bor yoki yo'qligini aniqlashga yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini va hokazolarni bilishga harakat qilinadi. Testning diagnostik qimmati ilmiy eksperiment darajasiga, test uchun asos qilib olingan psixologik faktning xaqiqiyiligiga, ya'ni mazkur test qay tarzda tuzilganiga-uning oldindan o'tkazilgan juda katta eksperimental ishning natijasi hisoblanadimi yoki taxminiy, tasodifiy va yuzaki kuzatuvlar natijasi ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Eksperiment metodi. Yangi psixologik faktlarga ega bo'lishning ob'ektiv usullaridan biri - eksperiment metodidir. Kuzatishdan farqi, eksperiment o'tkazuvchi sinalayotgan faoiyatga faol aralashuvi, sun'iy vaziyat paydo qilinishi mumkin. Bu metod inson psixikasini chuqur, aniq tadqiq qilishda eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi.

Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti. Tabiiy eksperiment pedagogik-psixologik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. (Sinfda sun'iy, odatdagidan boshqacha vaziyat va muhit yaratib kuzatish). Bu metodning ilmiy asoslarini **1910 yilda Aleksey Fedorovich Lazurskiy (1874-1917)** ishlab chiqqan. Bu metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasa xodimlarining, o'qituvchilarning, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlarini, o'zaro munosabatlar, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliliklari muammolarini hal qilishda ko'proq foydalanish mumkin. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goxo guruxiy) shaklda sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asbob-uskunalar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, anomaloskop, taxistaskop, audometr, esteziometr, elektrotiogramma, elektroense-falogramma kabilardan ham foydalaniladi. Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitida maxsus psixologik asboblar yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining hatti-harakatlari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilishayotganligini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalari, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishining (uchuvchi, haydovchi, operator singlarining) kutilmagan, tasodifiy (ekstremal) vaziyatdagi modellari yaratiladi.

Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshirish qismlariga bo‘linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat, o‘yin, mehnat, o‘kish kabi faoliyat turlarida tadqiq qilinadi. Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish shuningdek ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani yo‘l-yo‘riq va usulni o‘rgatish rejalashtiriladi. Tekshirish qismida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo‘l-yo‘riq, malaka va shaxs fazilatlari darajasini, barqarorligini aniqlash, ta‘sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o‘lchanadi.

Yig‘ilgan ma‘lumotlar miqdoriy-statistik usulda qayta ishlanib, turmushga tatbiq qilinadi. Inson psixikasi xususiyatlarini tadqiq qilish orqali muxandis psixologlar eng zamonaviy elektron qurilmalar, robotlar yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

Biografiya (tarjimai hol) metodi Inson psixikasidagi ayrim o‘zgarishlarni to‘liqroq o‘rganish maqsadida qo‘llaniladi. Esdaliklar, kundaliklar, badiiy asardagi tavsiflar, baholar, magnitofon yozuvlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o‘rganilayotgan shaxsni to‘laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Biografik ma‘lumotlar odamlarning o‘zini o‘zi tarbiyalash, nazorat qilish, idora etish, o‘zining uslubini yaratish, kamolot cho‘qqisiga erishish jarayonida namuna vazifasini o‘taydi.

Anketa metodi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo‘ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xili anketada sinaluvchiga yozilgan to‘g‘ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. (Anketa namunalarini E. /ozievning Psixologiya, (Toshkent, 1994 yil) kitobining 28-29 betlarida ko‘rish mumkin).

Sotsiometriya metodi. Bu metod kichik guruh a‘zolari o‘rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini o‘lchashda qo‘llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a‘zoning o‘zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatlarda kim bilan birga qatnashishi so‘raladi. Olingan ma‘lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Odatda sinaluvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?», «Imtihonga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo‘shni bo‘lib yashashni yoqtirasan?», «Partada kim bilan yonma-yon o‘tirishni istar eding?» va hokazo. Har bir savol sotsiometrik mezon (o‘lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingan. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini «eng maqbul» deb tanlashi lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta «Maydon» ga ajratiladi, qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uchburchaqlar bilan belgilanadi.

Doiracha va uchburchaqlar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a‘zolarining o‘zaro munosabatlari doira va uchburchaqlar strelkalar bilan birlashtirilganda o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatlarga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruhning eng yoqimtoyi («YUlduzi») hisoblanadi.

Sotsiometrik usul bilan shaxslararo munosabatning darajasi va ko‘lami aniqlanadi ikkinchidan qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar, yosh ko‘rsatkichlari xususiyatlari bilan taqqoslanadi. Ko‘rsatkichlarga qarab guruhdagi munosabatlar ularning o‘ziga xosligi psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. SHu bilan

birga nazariy ahamiyatga molik g'oyalar o'lg'a suriladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi.

Kasb psixologiyasida tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhdagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarinig o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Aynan shu usul bilan mehnat jamoalari, kollej va oliy maktab talabalari, turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sabablari o'rganiladi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti psixologik tadqiqotlarning ilmiyligini yanada oshirish uchun (sub'ektiv omillarni ta'sirini kamaytirish maqsadida) kompleks dastur asosida boshqa fanlar tibbiyot, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo'sindagi ilmiy tadqiqot ana shu ko'p qirrali (kompleks) yondoshishni talab qiladi. Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, muxandislik psixologiyasi shuningdek aviatsiya psixologiyasida) tadqiqot ob'ektiga muntazam yondoshish amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan ob'ekt turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har-xil yondoshiladi. Masalan: bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa kompleks yondoshish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xussiyatlari yoritiladi, aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Hozir sotsiometriya usuli ijtimoiy hayotda, sodir bo'layotgan kundalik hayotdagi voqealarga odamlarning munosabatlarini, jamoatchilik fikrini o'rganishda keng qo'llanilmoqda. Odamlarning sodir bo'layotgan voqealarga munosabati, turli extiyojlari, motivlari, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar, muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi. SHu bilan birga guruhlardagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtai nazari, guruhbozlik, og'machilik, qarama-qarshilik, his tuyg'ularining zo'riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabat motivlari, qarashlar birligi jinlar o'rtasidagi muloqotlarning zamini hamda sehri mana shu usul bilan ochilishi mumkin.

Psixologik ilmiy tadqiqot metodlari har doim turlicha nomda, turli maqsadlarda qo'llanilishi mumkin. Jumladan, konkret vaziyatni psixologik muhitni tadqiq qilish, shaxs hatti-harakati, faoliyat motivlarni, masalan, o'z hayotini xavf ostida qoldirib bo'lsa ham qahramonlik, tashabbuskorlik ko'rsatishi yoki biror jinoyat sodir etishi motivlarini tadqiq qilish singari maqsadlarda ham foydalanilishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda yuqorida sanab o'tgan usullarimizdan kuzatish, anketa, eksperiment, faoliyat mahsulini tahlil qilish, test, sotsiometriya eng ko'p qo'llaniladigan metodlar hisoblanadi. Bu metodlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qarab turlicha,

turli vaziyatda, turli vositalarni qo'llab, jumladan turli savollarni o'z oldiga qo'yib o'tkazilishi mumkin.

“Psixologiya tadqiqot metodi” tushunchasi konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Ana shu konkret metodikalarda o'z-o'zidan ravshanki metodologik prinsiplar amalga oshiriladi va faqat mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa ko'plab muammolari uchun ham umumiy bo'lgan usullari yuzaga chiqadi.

Lekin konkret metodikalarning o'ziga xosligi eng avvalo ular vositasida hal etilayotgan ilmiy vazifaning qanday xarakterda bo'lishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan konkret psixologik metodikalar haddan tashqari ko'pdir. Ularning shakllari ham juda turli - tuman bo'lib, psixologiyaning va muammoning muayyan tadqiqot usulini, ya'ni konkret metodikasini talab qilgan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

SHu bilan birga konkret psixologik metodikalarning ko'pchiligi uchun xos bo'lgan baa'zi umumiy belgilarni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin buni normal rivojlangan va aqliy jihatdan zaif bolalarda, rivojlanishdan orqada qolganlarda yoshga taalluqli tafovutlarni o'rganish vazifasi qo'yilgan vaqtlarda ko'rish mumkin.

Metodlar qo'llanilishidan to'rt bosqichda olib boriladi:

Birinchi bosqich-tayyorgarlik bosqichi. Unda har xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi, (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chog'ida, turmushga, ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatish, maxsus savollar yozilgan anketalarga olingan javoblar, shaxs haqidagi tavsifnomalar va guvohlarning bergan ko'rsatmalari, shaxs faoliyatining mahsulot namunalari, masalan yozma ishlari, daftarlari, tayyorlagan buyumlari-o'yinchoqlar maket yoki modellar tikkan kiyimlari) qarab chiqiladi. Biografik ma'lumotlar aniqlanadi anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qilinayotgan faktning sodir bo'lishiga qadar mavjud shart-sharoitlar tariflanadi va hokazo. Birinchi bosqich yakunida tadqiqotchi o'z taxminining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida tasavvurga, nima qilish, nimadan boshlash haqidagi gipotezaga ega bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - eksperimental (tajriba) bosqichi bo'lib, bunda tadqiqotning konkret metodikasi amal qiladi va o'z navbatida bu bosqich birin-ketin qo'llaniladigan qator bo'g'inlarga - eksperiment seriyalariga bo'linadi. Masalan, diqqatni o'rganishda qo'llanadigan “Burdon jadvali” bilan qilinadigan tajribani ko'rishimiz mumkin. Xarflar qalastirib joylashtirilgan varaqdan aytilgan harflarni har minutda nechtadan o'chirish, turli guruhdagilarni o'chirishi va hokazalarni ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi - tadqiqot ma'lumotlarini sifat jihatidan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik apparini - dastlab ilgari surilgan gipotezaning tasdig'i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyiligi xaqida hO'qm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullarni va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini qo'llashning taqozo qiladi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi - olingan ma'lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, gipotezaning to'g'ri yoki noto'g'riligini uzil - kesil aniqlashdan, ularni sinab ko'rib, (interpretatsiya bosqichini, aprobatsiya singari nomlar bilan ham ataladi), aniq xulosaga kelish bosqichi.

Kuzatuv faoliyat mahsulini tahlil etish, suhbatlar o'tkazish, anamnestik ma'lumotlarni aniqlash eksperiment o'tkazish va uning natijalarini matematik yo'l bilan qayta ishlash, xulosalar chiqarish va ularni izohlab berish-bularning xammasi tadqiqot ishining tarkibiga singib ketadi va unda o'z ifodasini topadi.

Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy, psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Muammoli savol: Muxandis–pedagog psixologik tadqiqot metodlaridan qachon va qanday foydalanishi mumkin?

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Psixologik tadqiqot bosqichlari.
2. Eksperiment meiodining ahamiyati.
3. Test va kuzatish metodlari.
4. Anketa va avtobiografiya metodlari.

Keyslar banki

Keys. O'qituvchi darsga kirish vaqtida xonada bolalar to'paloni ustidan chiqdi. O'qituvchi urushayotgan bolalarni koridorga olib chiqib, nima sababdan urushayotganlarini so'radi. Bolalar bir-birlariga qarab sababini aytmadilar.

«Bu sirmi?» - deb so'radi o'qituvchi. Bolalar boshlarini qimirlatdilar. SHunda o'qituvchi bolalarga «sizlar 5 daqiqa vaqt ichida erkakchasiga gaplashib olinglar, faqat bir-biringlarni urmasdan, xaqorat qilmasdan kelishinglar. Sinfga siz oldingidan ham inoqroq do'st bo'lib kiring, shunday xayotiy muammolarni ham tinch-totuv echib kirganingizni boshqalar ko'rsin.»

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
 1. O'qituvchi xaqmi? U vaziyatni qanday boshqardi?
 2. Siz bolalarda ta'lim – tarbiya ishlarini olib borishda, «erkakcha», «qizlarga hos» degan fikrlarni ishlatilishiga qanday qaraysiz?
 3. Siz bu vaziyatda qanday yo'l tutar edingiz?

Nazorat savollari

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari va uning ahamiyati nimada?.
2. Tadqiqot bosqichlari nimalardan iborat?
3. O'z guruhingizda test, anketa va sotsiometrik usulda tadqiqot o'tkazib, natijasini yozib chiqing.
4. Kuzatish metodi qanday tashkil qilinadi?
5. Test metodining nechta turlari mavjud?

Test savollari

1. Psixologiyada qaysi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi

- A). Ob'yektiv va sub'yektiv kuzatish metodidan
V). Kuzatish va eksperiment metodidan
S). Laboratoriya metodidan
D). Kuzatish, eksperiment, suhbat, anketa, sotsiometriya va test metodlaridan

2. **Ko'rsatilgan usullardan kaysi biri laboratoriya eksprementi metodiga**

ta'luqli

A). Tadqiqot, maxsus jixozlangan xonada o'tkaziladi

V). Tadqiqot odatdagi sharoitlarda o'tkaziladi

S). Psixik o'zgarishlar sodir bo'lishi kutib turiladi

D). Maxsus sharoit yaratilib kuzatiladi

3. **Pixologiyaning tadqiqot metodlarini ko'rsating?**

A). Kuzatish metodi, tabiiy eksprement, laborotoriya, eksperimenti

V). Ob'ektiv kuzatish, sub'ektiv kuzatish metodi

S). Kuzatish, eksprement, test, suxbat, biografiya, anketa faoliyat tafsilotlarini tekshirish D). Laborotoriya, leksiya, suxbat metodi

4. **Sotsiometrik metodini kim ishlab chiqqan?**

A). D. Moreno V). Vundt S).J. Piaje D). Meys

5. **Tabiiy eksprement metodi kim tomonidan fanga kiritilgan?**

A). A.N. Leontev V). Vigotskiy L.S S). A.F. Lazurskiy D). S.L. Rubinshteyn

Mavzu: Kasbiy layoqat tashxisi (diagnostika)

Reja:

1. SHaxs psixodiagnostikasi.

2. Kasbiy psixodiagnostika.

3. Psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish jarayonida quyidagi metodlarga, usullarga, mezonlarga alohida ahamiyat berish izlanish ilmiylikini oshirishga xizmat qiladi:

1. Ma'lumotlar olish metodi;

2. SHaxs strukturasi o'rganishdan olingan eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish metodi.

Ma'lumotlar to'plash metodiga quyidagicha tavsif berish maqsadga muvofiq.

SHaxs tug'risida uch xil tarzda ma'lumot olinadi va ular uchta manbaga asoslanadi hamda "L" – "Q" – "T" – ma'lumotlar, deb ataladi.

"L" – ma'lumotlar. SHaxsning kundalik faoliyatidagi xulq – atvorini qayd qilib borish orqali olinadi va "L" – ma'lumotlar "life record data". Ammo amaliyotda inson faoliyatini to'liq va batafsil yozib borishning o'zi etarli emas. SHuning uchun sinaluvchi shaxsining alohida bir faoliyati yoki xayoti va faoliyati bosqichini kuzatib borish maqsadga muvofiq. Masalan, necha marta to'g'ri javob beradi, shuncha qoida buzdi. Bu voqelik ko'pincha "L" – ma'lumotlarda ekspert baholashni taqozo etadi.

"L" – ma'lumotlar boshlang'ich ma'lumot to'plash uchun o'ng'ay metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ba'zan "L" – ma'lumotlaridan boshqa metodlar yordamida olingan natijalarning validligini aniqlovchi tashqi mezon sifatida foydalaniladi.

"L" – ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish maqsadida ekspert baholash jarayonida maxsus talablar qo'yiladi. Jumladan:

1. Baholanayotgan fazilatlar kuzatilayotgan xulq – atvor atamaları orqali aniqlanishi lozim;

2. Ekspert xulq – atvor kuzatishni muayyan vaqt oralig'ida amalga oshirgani ma'qul;

3. Bir faoliyatni baholashda eng kamida o'n nafar ekspert ishtirok etishi maqsadga muvofiq;

4. Sinaluvchilarni ranjirovka (guruhlash) qilayotgan vaqtda ekspertlardan uning bitta fazilatini yoki bir nechta xislatlarini baholash tavsiya etiladi.

“Q” – ma’lumot. SHaxs to’g’risida so’rovnoma va boshqa o’zini o’zi baholash metodlari asosida olinadigan ma’lumotlarga “Q” – ma’lumot (“Questionnaire data”) deyiladi. Instrumental tuzilishi va qo’llanilishining afzalliligiga ko’ra “Q” – ma’lumot (so’rovnoma, o’ziga o’zi hisob berish, o’zini baholash shakllari) shaxsni tadqiq etishda markaziy o’rin egallaydi. “Q” – ma’lumot olishga mo’ljallangan metodikalar psixologiyada etarli darajada. Ulardan keng ko’lamda foydalanayotganlaridan biri ko’p omilli shaxs so’rovnomasi (MMRI), Kaliforniya psixologik testi (CPI), 16 – faktorli shaxs so’rovnomasi, temperamentni o’rganish Gilford - Gipperman testi va boshqalar.

Ularning kamchiliklari: a) sinaluvchilarning quyi intellektual va madaniy saviyaga egaligi; b) maxsus bilimlar va introspeksiya malakalari etishmasligi; v) ishonchsiz etalonlardan foydalanish.

“T” – ma’lumot. Eksperimental vaziyat nazoratini ob’ektiv test bilan olishga asoslangan ma’lumotlar qisqacha “T” – ma’lumot (“objective test data”) deb nomlanadi. “T” – ma’lumot shaxsni tadqiq etishdagi yangicha radikal yondashuv hisoblanadi. Ular xulq – atvorni o’zini o’zi baholash yoki ekspert baholarsiz ob’ektiv o’rganish orqali (verbal, noverbal, ijtimoiy va individual) olinadi.

1. Tadqiqotning asosiy maqsadini yashirin qoldirish. Bu eng ko’p qo’llaniladigan taktik usul hisoblanadi. Bunda qo’yilgan maqsad sinaluvchiga aytilmaydi. Test va testning ko’rsatmasi tadqiqotning haqiqiy maqsadini yashirgan holda tuziladi. Sinaluvchiga yolg’on maqsad ochiqdan – ochiq bildiriladi.
2. Vazifani kutilmagan holda berish. Bu usuldan tergovchilar so’roq vaqtida foydalanishadi, ularga o’xshash tarzda to’satdan beriladi. Bu vaqtda so’rov qilinayotgan kishi noto’g’ri ma’lumot berishga intiladi va unga mavzuga bog’liq bulmagana holda savol beriladi. Bu uning kutayotgan vaziyatlarining buzilishiga va emotsional siressga olib kelishi mumkin.
3. Testlashtirish maqsadi aniqlanmaganligi va noaniqligi. Bunda sinaluvchiga ko’rsatma beriladiki, natijada u eksperimentatorning maqsadini anglab etmasligi zarur bo’ladiki, uning ijtimoiy talablariga muvofiq keluvchi reaksiyalarida o’zgarish yuz beradi. Natijada sinaluvchiga ijro etish sifatini belgilovchi mezonlar berilmagan holda qanday bajarish emas, balki nimani bajarilishi aytiladi.
4. Diqqatni chalg’itish. Bu topshiriq berish usuli eksperimentator uchun ahamiyatli bo’lib, eksperimentatorni etarlicha ahamiyat kasb etmaydigan topshiriqlarni o’ylab topishga yordam beradi. CHalg’ituvchi topshiriqlar tashqi ko’rinishdan asosiy topshiriqlarga o’xshash tarzda bo’lishi ma’qul. Natijada tashkil etilgan testda sinaluvchi o’z hatti – xarakatlarini kam nazorat qiladi va o’z shaxsining ochilmagan qirralarini o’rganishlariga shubha uyg’otmaydi.
5. Testlashtirish vaqtida emotsional vaziyatni hosil qilish. Bu usul psixologik amaliyotda keng ko’lamda foydalaniladi. Emotsional zo’riqishlar har xil yo’llar bilan hosil qilinadi, masalan, berilgan topshiriq noto’g’ri bajarilganligini ogohlantirish orqali, sinaluvchining tashqi qiyofasi va uning layoqatini baholash.
6. Testlarning emotsional mazmun kab etishi. Bu usul oldingisiga o’xshab ketadi. Buning farqli tomoni emotsional vaziyatlar qo’shimcha tarzda tuzilmasdan aynan testning o’zida beriladi. Test mazmunan etikaviy bo’lmasligi, aralash, yoqimsiz bo’lishi mumkin.

7. Reaksiyalarning avtomatlashuvi. YOzuv, manera, ekspressiv harakatlarni nazorat qilish va xohishlarni o'zgartirish shaxslilik testlarida foydalaniladi.
8. Bunda shaxsning "ixtiyorsiz" indikatorlar sifatida kuzatilayotgan psixik jarayonlarga elektrofiziologik, bioximik va vegetativ o'zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi.
9. "Fonli" indikator. "Fonli" indikatorlar sifatida shaxsning xususiyatlari bilan bog'lanishda bo'lgan organizmning fiziologik va fizik statuslaridan foydalaniladi. "Fonli" indikatorlar sifatida antropometrik o'lchovlar qo'llaniladi: bo'y, og'irlik, suyak – muskul og'irligi, tanadagi boshqa ko'rsatkichlar va proporsionalliklar kiritisa bo'ladi.

Kasbiy psixodiagnostika

Psixologiya fanida bu sohada muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B. V. Kulaginning fikricha, kasbiy psixodiagnostika deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, nomzodlarni (da'vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikning takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini echish tushuniladi.

Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy yondashish kasbga saralash muammosini hal qilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma'lumki, kasbga layoqatlilikni tashxis (diagnoz) qilish insonning kasbiy hislatlarini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur jarayonda qiyosiy tahlil orqali shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatining mustaqil mezon darajalari aniqlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining ma'lumotlariga qaraganda, tashxis (diagnoz) qilish modeli muayyan matematik algoritmgaga asoslanadi. Guruh uchun o'rtamiyona shaxs imkoniyati tanlanganligi faqat statistik samaraga ega xolos. Bunday model tashxis qilishda cheklanganlikka ega bo'lib, tashxisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir.

Kasbiy faoliyatni tahlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, ya'ni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur. Faqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning harakatlari va operatsiyalari testlar yordamida baholanishi mumkin. Chunki, xarakteristik operatsiyalar mazkur faoliyatning tarkibini tashkil qiladi, ularning qiyosiy tavsifini egallash jarayonini osonlashtiradi, unga layoqatli odamlarni tanlashda negiz yaratadi. Faoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash uning muvaffaqiyati o'lchovi, mezonini aniqlashga imkon beradi. Professiografiya (professiogramma) natijalarini umumlashtirish natijasida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkoni vujudga keladi.

Kasbiy faoliyatning tahlili maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy jarayon hisoblanib, u uch bosqichdan tashkil topgan bo'ladi: a) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumot to'plash; b) olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish; v) amaliy va nazariy masalalarni echish uchun professiogrammadan foydalanish (kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash va boshqalar).

Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) turli manbalardan olinishi mumkin.

1. Muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish katta ahamiyat kasb etadi.
2. Kasbiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlardan biri bo'lib suhbat – intervyu hisoblanadi. Mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish samarali natija beradi.
3. Ba'zan kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabhalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar yoki varaqlardan ham foydalaniladi.
4. Kasb – hunar to'g'risidagi ma'lumotlar (axborotlar) umumlashtiriladi va har xil shakllarda mutaxassislar hO'qmiga havola qilinadi.

Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bo'lib, harakat va operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi. Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o'rganish uchun unga ko'pyoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va reguliyativ jabhalarini hisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo'lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog'liq tomonlari ham tadqiqot predmetiga kiritish lozim.

Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishini tavsiflovchi har qil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo'shgan hissasi qo'llaniladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- 1) Samaradorlikning to'g'ridan to'g'ri ko'rsatkichlari: sifat, ishlab chiqarish salmog'i;
- 2) Kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar;
- 3) Kasbiy layoqatni ifodalovchi ma'muriy tadbir va choralar: intizomga taalluqli choralar, mO'qofotlash, xizmat lavozimidan ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stentga joylashtirish;
- 4) Kadrlar ko'nimsizligi;
- 5) Noxush holatlar (kechinmalar) va shikastlar (halokatlar);
- 6) Faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar.

Yuqorida bayon qilingan mezonlar ma'lum talablarga javob berishi shart. Mezonlarning relevantligi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

Tanlab olingan mezonlar kasbiy faoliyatning barcha nufuzli tomonlarini aks ettirish lozimligi, ya'ni mezonlar to'laqonligi. Ular mutaxassislarning kasbiy layoqatining yO'qsakligi va quyidagi darajalarini farqlashga xizmat qilishi joiz (mezonlar diskriminativligi). Mezonlar hislatini ochishga yordam beruvchi uning omilkorligi, ya'ni amaliy jihatdan qulayligi muhim o'rin egallaydi va u o'zining soddaligi, kam mehnat talab qilishligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kasbiy layoqatni (yarog'lilikni) aniqlashda odatda nazorat, sinash natijalari qo'llaniladi (masalan, duradgorning ish sifati, tezkorligi, vaziyatni payqashligi va boshqalar). Ko'pincha mutaxassisning layoqati ma'muriy xujjatlarda o'z ifodasini topadi. (muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qayd qilinadi). Ba'zan kasbiy layoqatni o'rganishda baxtsiz hodisalar (haydovchi, uchuvchi, mashinist, operator va boshqa kasb

egalarida) hisobga olinadi va shaxsning individual xususiyatlari baholanadi.

Kasbiy layoqatni aniqlashda uquvchanlik kategoriyasidan (bilim olishga nisbatan zexnlilik) foydalaniladi va o'zlashtirish tezligi, kasbiy tayyorgarligi, erishgan natijasi mezon rolini o'ynaydi.

Psixologiya fanida kasbiy muvaffaqiyat mahoratning qirralari ekspert baholash metodi yordami bilan o'lchanadi. Buning uchun balli shkalak, juft (qo'sh) taqqoslash, tartibga keltirish (ranjirovka qilish) metodlari qo'llaniladi.

SHkalaning sodda ko'rinishi ball bilan baholashga mo'ljallangan. SHkalani baholash o'ziga 5 tadan 7 tagacha gradatsiyani qamrab oladi. Miqdorning kamligi uning differensiyasini yanada kuchaytiradi, farqlar aniqligini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda balli baholash grafik shkala tarzida ham uchraydi (kesma, shakl, parametrik ko'rinishi va xokazo). Lekin balli shkala kasbiy muvaffaqiyatni baholashda ayrim nuqsonlarga ham ega. Ayniqsa, chet el psixologiyasida qo'llanilib kelinayotgan "galo - effekt" metodikasi bunga yaqqol misoldir. Baholanuvchi bilan baholovchi munosabati bir nechta mustaqil shkalalar negizida umumiylikka bog'liq tarzda baholanadi. Natijada shaxsning xilma - xil xususiyatlarini differensiyalash imkoni yo'qoladi, yuzaki baholanish jarayoni yuzaga keladi. Buning oqibatida orttirilgan va pasaytirilgan baholash tiplari, ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Ammo, balli shkala baholash tizimini takomillashtirish uchun uning barcha bosqichlardan, tarkiblardan tuzish ma'qul. Faqat shundagina yaqqol misollar, namunalar negizida kasbiy faoliyatning turlicha samaradorligi namoyon bo'ladi.

Jahon psixologiyasida keng qo'llanilib kelinayotgan metodlardan biri - bu kritik insidentdir. Muayyan o'lchamlarga asoslangan holda ajratilgan insidentlar tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi), ya'ni tahlil qilish orqali insident xususiyati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda (u "pretranslyasiya" deb ataladi) birinchi bosqichdagi mezonlarga asoslanib yangitdan tasnif qilinadi.

Kasbiy layoqatni o'rganishning yana bir metodi tartibga keltirish (ranjirovka qilish) deyiladi. Har xil vaziyatlarda kuzatilgan shaxslar kasbiy layoqati darajasiga qarab muayyon tartibga solish, jihozlash mumkin. Birinchi rang darajasiga kiritish uchun kasb sub'ekti kasbiy mahoratning maksimal ko'rsatkichini namoyish qilishi lozim. Kamroq muvaffaqiyatga erishsa, u navbatdagi rangga o'tkaziladi.

Mazkur jarayonni osonlashtirish uchush quyidagilar tavsiya qilinadi:

- 1) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish;
- 2) maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni alohidalash;
- 3) minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruhlash va boshqalar.

Tartibga solish (ranjirovka qilish) juft (qo'sh) qiyoslash (taqqoslash) metodi yordami bilan amalga oshiriladi. Buning negizida ikki sub'ektning xislatlari, imkoniyatlari o'zaro solishtirilib, umumiy va farqli tomonlari aniqlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlat va jamiyat ta'lim olishga, kasbiy yo'lni tanlashga, kasbga o'qish va kasb egallashga bo'lgan yoshlarning huquqlarini amalga oshirishga kafolat beradi.

"Eng muhimi, degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov, yoshlarga biror - bir mutaxassislikni egallashga imkon beramiz, hayotga ishonchli yo'llanma bilan ta'minlaymiz. Agar, hayotga ishonch bilan qadam qo'yayotgan yosh inson hayotda o'z o'rnini topa olsa, o'z - o'zidan ma'lumki, u o'z

ishidan, taqdiridan qoniqadi (I. A. Karimov Mafkura – bu xalqni, jamiyatni va davlatni birlashtiruvchi bayroqdir. T., O‘zbekiston, 1998 y, 21 bet)”. Ilmiy – amaliy nuqtai nazardan kasb tanlash, kasbiy tayyorlanish, yosh mutaxassisning ishga joylanishi va ishdan qoniqishi o‘qish va mehnat motivatsiyasining shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. SHaxsning ijtimoiylashuvi.
2. SHaxsning o‘zini anglashi.
3. SHaxs va kasb.

Keyslar banki

Keys. Ikkinchi chorak boshida o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga: «Mening sizlar bilan ishlashim qulay bo‘lishi uchun, siz bilan kelishib olamiz. Kim «3» va undan past baho olgan bo‘lsa, mendan o‘ng tamonga, kim yuqori baholarga o‘qisa mendan chap tamonga o‘tiradi. Chunki, bu o‘yin sizlarni o‘zlashtirishingizdagi yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko‘rsatadi va o‘ng tamondagilar ko‘proq men va sinfdoshlarini e’tiborida bo‘ladilar.»

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

1. Bunday tabaqalashtirishda o‘qituvchi qanday qonuniyatlarni ko‘zda tutgan?
2. Bu tajribani o‘spirinlarda qo‘llash mumkinmi?
3. Bu pedagogik yo‘nalish ta’lim va tarbiya ishlarida qanday rol o‘ynaydi?

Nazorat savollari

1. SHaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar necha xil tarzda va qanday manbaga asoslanadi?
2. Kasbiy faoliyat yuzasidan ma’lumotlar qanday manbalardan olinishi mumkin?
3. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga nimalarni kiritish mumkin?

Test savollari

1. SHaxs xaqida tushuncha bering?

A). Ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi shaxsdir

V). Jamiyatning ongli a‘zosi va shu jamiyat a‘zolari bilan ijtimoiy munosabatga kirishuvchi konkret odam

S). SHaxs ta’lim - tarbiya ta’sirida va tashki muxit ta’sirida tarkib topadi

D). Inson tugilishidayok shaxs sifatida tarkib topadi

2. SHaxsda « Men» timsoli qachon paydo bo‘lgan?

A). Ilk bolalik davrida

V). O‘smirlik davrida

S). Kichik maktab yoshi davrida

D). O‘spirinlik davrida

3. Ko‘nikma va malakani farqi bormi?

A). Ko‘nikma va malaka bir - biridan farq qiladi

V). Ko‘nikma va malaka aynan bir narsa

S). Ko‘nikma va malaka qarama - qarshi xarakatdir

D). Ko‘nikma va malaka bir - birini to‘ldiradi

4. Malaka xosil bo‘lishida nechta bosqich bor?

A). 2 ta

V). 3 ta

S). 5 ta

D). 4 ta

5. SHaxsning individual psixik xususiyatlariga nimalar kiradi?

A). Faoliyat, muomila, jamoa

B). Diqqat, sezgi, idrok

S). Temperament, xarakter, qobiliyat, D). Iroda, tafakkur va xissiyot

Mavzu: Shaxs psixologiyasi

Reja:

1. SHaxs haqida tushuncha:

a) individ; b) shaxs; v) individuallik.

2. SHaxsning faolligi:

a) ehtiyoj; b) motiv;
v) qiziqish; g) tilak, istak, niyat.

3. SHaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

a) irsiyat; b) ijtimoiy muhit;
v) ta'lim - tarbiya; g) shaxsiy faoliyat.

4. SHaxsning malaka va odatlari

5. "Men" - obrazi va o'z-o'ziga baho.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Autizm (yunon. Auto - o'zim) – individning o'zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o'zining kechinmalariga berilishidan iborat psixologik begonalashuv.

Ideal (yunon. Ideya – g'oya, tushuncha tasavvur) – biror narsaning namunasi, ayrim odam, guruh va sinf xatti-harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Individ (lot.individium - bo'linmas) – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik - shaxs fazilatlarining qaytarilmas birikmasi (temperament, xarakter, qobiliyat).

Motiv - ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq, faoliyatga undovchi ichki kuch.

Motivatsiya - faollikka undovchi motivlar majmuasi.

Ehtiyoj – odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog'liq zaruriyatning ichki holati.

Shaxs – muayyan jamiyatda yashovchi, faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati, keng va tor, chuqur va yuzaki, barqaror va beqaror bo'lishi mumkin.

O'z - o'zini nazorat - shaxsning o'zini holatini boshqara olishi.

O'z - o'zini baholash - shaxsning o'z xislatlarini baholay olishi.

Frustratsiya (yunon.frustratsion – aldanish, behuda ko'rish) – kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, ob'yektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'yektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati.

E'tiqod - shaxsni o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir.

“**Shaxs**” tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “**Homo sapiens**” - “**aqlli zot**” tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda

olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham xar bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezonini ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar.(Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top - toza taxta"(tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632-1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalari bo'lishi mumkin emas, ular xohish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F.Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini " egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hokazo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi,

ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, xayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi. Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. **Ijtimoiy sanksiyalar** - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'yektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - "Men" - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z - o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya "Men" - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir.

O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya ob'yekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);

o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);

o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);

ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Shaxs autodialogining muhim belgilari.

Ichki shakllanganlik darajasi	dialogning Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommuniktsiya)
Oliy daraja	6 - bosqich	Shaxsiy mazmundagi dialog (o'zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
O'rta daraja	5 - bosqich	Hodisa va narsalarga bog'liq bo'lgan sifatlarning xususidagi ichki dialog
O'rta daraja	4 - bosqich	Shaxsiy sifatlarning muhokamasiga qaratilgan savollar – o'ziga talablar
O'rta daraja	3 - bosqich	Boshqalarning baholari ta'siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o'zgaralar fikri asosida ichki dialog
Quyi daraja	2 - bosqich	Shaxsiy sifatlarga aloqador bo'lmagan o'zgaralar fikri asosidagi dialog (hodisa va narsalarga aloqador fikrlar)
Quyi daraja	1 - bosqich	Kimdir nima haqidadir gapirish mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, lekin aniq fikr yoki munosabat yo'q. autokommunikatsiyaga hojat yo'q

Taraqqiyotni yosh davrlarga bo'lishda o'ziga xos klassifikatsiyalar ham bor. Masalan, E.Erikson shaxs «Men»ining rivojlanish bosqichlarini ajratgan va har birida ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni ajratgan.

1-bosqich (ishonch-ishonchsizlik) — bu hayotning 1-chi yili.

2-bosqich (mustaqillik va qat'iyatsizlik) — 2 — 3 yoshlar.

3-bosqich (tadbirkorlik va gunoh hissi) — 4 — 5 yoshlar.

4-bosqich (chaqqonlik va yetishmovchilik) — 6 — 11 yoshlar.

5-bosqich (shaxs identifikatsiyasi va rollarning chalkashligi) — 12 — 18 yoshlar.

6-bosqich (yaqinlik va yolg'izlik) — yetO'qlikning boshlanishi.

7-bosqich (umuminsoniylik va o'ziga berilish) — yetO'qlik davri.

8-bosqich (yaxlitlik va ishonchsizlik) — keksalik.

Yosh davrlari	Erkaklarda	Ayollarda
Chaqaloqlik	1 — 10 kun	1 — 10 kun
Emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
Ilk bolalik	1 — 2 yosh	1 — 2 yosh
Bolalikni 1-davri	3 — 7 yosh	3 — 7 yosh
Bolalikning 2-davri	8 — 12 yosh	8 — 11 yosh
O'smirlik davri	13 — 16 yosh	12 — 15 yosh
O'spirinlik davri	17 — 21 yosh	16 — 20 yosh
O'rta yetO'qli davri		
Birinchi bosqich	22 — 35 yosh	21 — 35 yosh
Ikkinchi bosqich	36 — 60 yosh	36 — 55 yosh
Keksalik davri	61 — 75 yosh	56 — 75 yosh
Qarilik davri	76 — 90 yosh	76 — 90 yosh
Uzoq umr ko'ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq

Erikson klassifikatsiyasining o'ziga xos qimmatini shundaki, unda shaxsning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarining jamiyat ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi. Shunga o'xshash bosqichlarga bo'lishlar oxirgi paytda yana ko'plab mualliflar tomonidan taklif etilmoqda (G. Grimm, D. Bromley va boshq.). Ularning barchasidagi umumiy mezon shO'qi, har bir taraqqiyot davri shaxs rivoji uchun nimani taklif etadiyu, shaxs unda qanday rivojlanish ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Ularni tabiiy o'zgarishlarda bilish va o'rganish kerak, chunki busiz shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarga qo'yilgan talablar katta odamlar jamoasiga to'g'ri kelmaydi, yoki bog'cha yoshidagi bola bilan til topishish bilan talaba bilan til topish

o'ziga xos pedagogik takti va o'sha yosh sohasida bilimdonlikni talab qiladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. SHaxs faolligining manbai nima?

a) instinktlar (tug'ma harakatlar);

b) ehtiyojlar;

v) anglanilmagan mayllar;

g) motivlar.

2. SHaxsning tarkib topishi ko'proq qaysi omillarga bog'liq?

a) ijtimoiy muhitga;

b) tarbiyaga;

v) ta'limga;

g) irsiyat va shaxsiy faoliyatga.

3. SHaxs o'z ehtiyojlarini qanday yo'llar bilan qondiradi?

a) shaxsiy tajribasiga asoslanib;

b) taqlid asosida;

v) jamiyatda qabul qilingan qoida, usullar asosida.

SHaxs xususiyatlarini aniqlash metodikasi:

1. a) yolg'on gapirishingiz mumkinmi?

b) o'z nuqsonlaringizga ko'nikasizmi?

s) fikringizni oson o'zgartirasizmi?

2. a) sizni maqtaganlarni yoqtirasizmi?

b) o'zingizdan ko'nglingiz to'qmi?

s) boshqalarning kamchiligi to'g'risida tez - tez gapirib turasizmi?

3. a) boshlagan ishingizni oxiriga etkazasizmi?

b) maqsadga erishishda qat'iyatlimisiz?

s) ishda jonbozlik ko'rsatasizmi?

4. a) o'zingiz haqingizda gapirishni yoqtirasizmi?

b) notanish davrada o'zingizni erkin his qilasizmi?

s) odamlarga ishonchingiz bormi?

Javoblar quyidagicha belgilanadi:

a b s

1.

2.

3.

4.

Savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob beriladi. Agar ijobiy javob ko'p bo'lsa 1 ball, salbiy javob ko'p bo'lsa 0 ball beriladi.

Natijasi:

1111 - serharakat, muloqotga kirishuvchan, o'zini yaxshi ko'radigan, o'zgaruvchan.

1000 - e'tiqodsiz, ko'ngli ochiq emas, sust.

1001 - dangasa, odamovi, engiltak, o'ziga bino qo'ygan.

1011 - kamgap, faol, e'tiqodi kuchli.

0111 - ishchan, tez kirishadigan, ammo dimog'dor.

0110 - rostgo'y, qat'iyatli, mehribon.

0100 - tarbiyali, ayyor emas, faol emas.

0000 - indamas, maqsadga erishmaydi.

1010 - faollikka moyil, kamsuqum, tortinchoq.

1110 - mehnatkash, ayyor emas, ko`rashda boshqalarga o`rnini oson berib ko`yadi.

1100 - to`g`ri so`z, kamsuqum, haqqoniy.

0001 - rostgo`y, ammo indamas.

0011 - ayyor, yolg`onchi, irodali, tolmas.

0101 - kirishuvchan, ochiq ko`ngil.

1101 - engil tabiat, sodda, dangasa, o`zini yaxshi ko`radigan.

0010 - qat`iyatli, mehnatkash, indamas.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. YOshlar ongiga milliy istiqlol g`oyasini singdirish orqali komil insonni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?

2. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining bir - biridan farqi nimada?

3. ehtiyojlar shaxs faolligida qanday ahamiyatga ega?

4. Motivlar deganda nimani tushunasiz?

5. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi ahamiyati nimada?

Mavzu: Bilish jarayonlari. Diqqat

Reja:

1. Diqqat to`g`risida tushuncha

2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari

3. Diqqat turlari

4. Diqqat va ong

5. Bilish jarayonlari

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Diqqat – ongimizning muayyan ob'yektga yo`naltirilishi va unda to`planishidan iborat psixik holat.

Diqqat turlari:

Diqqatning aktivligiga qarab:

a) **Ixtiyorsiz** – to`satdan ta`sir qilgan biror sabab tufayli bizning xohishimizdan tashqari hosil bo`ladigan diqqat turi.

b) **Ixtiyoriy** – oldindan belgilangan qat`iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma`lum bir narsa va hodisalarga qaratilishi.

c) **Ixtiyoriydan so`nggi diqqat** – agar maqsadga qaratilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to`planganidagi kabi faqat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o`zi qiziqarli va ahamiyatli bo`lishi.

Diqqatning ob'yektiga qarab: tashqi va ichki.

Diqqatning faoliyat turlariga qarab: individual, guruhiy va jamoaviy.

Diqqat xususiyatlari:

Diqqatning kuchi va barqarorligi – odam o`z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi.

Diqqatning ko`lami – bir vaqtning o`zida diqqatning bir qancha ob'yektga qaratilish imkoniyati

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha ob'yektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati




Diqqatning ko'chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'yektdan ikkinchi ob'yektga ko'chirish

Dominant (lot. dorainans-hukmron) – markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi

Idrokning aniqligi va samaradorligiga bevosita aloqador bo'lgan psixik jarayonlardan biri — diqqatdir. Shuning uchun ham uyqusirab o'tirib ma'ruza tinglagan talabanning o'sha ma'ruza matnini idrok qilishi qay darajada bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shuning uchun ham biz diqqatimizni kerakli ob'yektda ushlash uchun, yuqorida misolda talabanning ma'ruzani to'la idrok qilishi uchun konspekt qilish kerakligi tavsiya etiladi. Chunki, shu paytda ongimiz eshitayotgan so'zlarning mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Demak, **diqqat** — shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o'zimiz uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hodisalar, predmetlar mohiyatiga qaratiladi. Ya'ni, diqqat — ongning yo'nalganligini tushuntiruvchi psixik jarayondir. Gap shundaki, bizni o'rab turgan borliq va undagi hodisa va predmetlar dunyosi shunchalik murakkab va turfaki, biz ongimizni bir vaqtda ularning barchasiga birdan yo'naltira olmaymiz. Diqqat shuning uchun kerakki, u bizga ayni vaqtda kerak bo'lgan ob'yektni shu turfaning orasidan ajratib, uni o'rganish yoki tanishishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchining savoliga javob berayotgan o'quvchini tasavvur qiling: gapirayotib, barmoqlari bilan daftarining qirg'og'ini hadeb buklayotganligini o'zi sezmaydi. O'qituvchining «Daftarni tinch qo'y», degan tanbehigina uning diqqatini o'zi amalga oshirayotgan harakatga yo'naltiradi.

Bilish jarayonlari va professional faoliyat. Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

САВОЛЛАР



Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko'rgan - kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba'zilar ko'zi bilan ko'rgan har qanday ob'yektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o'z his - kechinmalarini ayta olsa, boshqalar - har bir hikoyaga albatta, fantaziya elementlarini qo'shishga moyil bo'ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taasurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo'larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasblar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o'z diqqatini har qanday mayda o'zrgarishlarga ham qaratishga o'rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob - kitoblarga usta bo'lib boradi. Iqtisodchi - moliyachi pulning har bir tiyidan foyda olishga o'rgansa, shoir tabiatan barcha hodisa va voqealarni badiiy bo'yoqlarda, o'ziga xos idrok qilishga moyilligi oshadi.

Bilish jarayonlari. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof - muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir - birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Xattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham emosiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu erda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvoffaqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Diqqatning qaysi turi o'quv materiallarini o'zlashtirishda ijobiy rol o'ynaydi?

a) ixtiyorsiz; b) ixtiyoriy; v) muvofiqlashtirilgan; g) ichki diqqat.

2. O'quvchi darsda o'z diqqatini avval o'qituvchiga, so'ngra doskaga, keyin daftarga va yana o'qituvchiga qaratadi. Aytingchi, bu erda diqqatning qaysi xossasi namoyon bo'ladi?

a) taqsimlanishi; b) ko'lami; v) ko'chishi; g) barqarorligi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Diqqatning umumiy xususiyati nimadan iborat?

2. Diqqatning fiziologik asosini tushuntiring.

3. Ixtiyoriydan so'nggi diqqatni tushuntirib bering.

4. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatning bir-biridan farqi nima?

“Kim tezroq” (diqqatni mashq qildirish)

1. O`quvchilarga biror matndagi eng ko`p uchraydigan, masalan, “a” va “o” harflarini chizib chiqish tavsiya etiladi. Topshiriqni bajarish muvaffaqiyati sarflangan vaqt va yo`l qo`yilgan xatolar miqdoriga qarab baholanadi. Xatolar qanchalik kam bo`lsa, muvaffaqiyat shunchalik yuqori bo`ladi.

2. Diqqatning ko`chishi va taqsimlanishini mashq qildirish uchun topshiriqning mohiyatini biroz o`zgartirish mumkin. Bir harfni vertikal chiziq bilan, ikkinchisini gorizontaal chiziq bilan chizish mumkin. Asta - sekinlik bilan vazifani murakkablashtirib borish, ya`ni bittasini chizish, ikkinchisini aylana ichiga olish, uchinchisini tagiga chizib quyish mumkin.

Mavzu: SEZGI VA IDROK

Reja:

1. Sezgilarning to`g`risida tushuncha.
2. Sezgilarni klasifikatsiya qilish negizlari.
3. Sezgi qonuniyatlari.
4. Idrok to`g`risida tushuncha.
5. Idrok obrazlarni predmetli, yaqqol mazmuni.
6. Idroknin individual xususiyatlari.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Sezgi – psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat, voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta`minlaydi.

Interioreseptiv sezgilar – (lot.interior-ichki, redpiere-olmoq) – ichki a`zolariga joylashgan reseptorlar.

Proprioreseptiv sezgilar (lot.proprius – xususiy, maxsus, regipere-qabul qilmoq) – tananing turli qismlardagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar

Eksteroreseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar, masalan: ko`rish, eshitish, hid va ta`m bilishdan iborat tashqi sezgilar

Kinestetik sezgi (yunon. kineo-harakatga keltiraman) – o`z tana a`zolarining holati va harakatini propreoreseptorlar ta`siri ostida sezish.

Sensibilizatsiya (lotin.sensibilis-sezuvchan) – ichki omillar ta`siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

Ob`ekt va fon - shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa (ob`ekt), muhim bo`lmagan narsalar (fon).

Appertseptsiya - idrokning shaxs va uning tajribasiga bog`liqligi.

Konstantlik - narsalarning sharoiti o`zgarsada obrazi o`zgarmasligi.

Ilyuziya - bor narsani noto`g`ri, yanglish idrok qilish

Gallyutsinatsiya - yo`q narsalarni idrok qilish

Kuzatuvchanlik - shaxsning idrok qilish qobiliyati

Sezgilarning psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat bo`lib, u voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta`minlaydi. Sezgilarning kishiga tevarak-atrofdagi narsa va

voqealarning xususiyatlarini bilishga imkon beradi.

Sezgi a'zolari kishiga tevarak–atrofdagi olamda mo'ljal olish imkonini beradi. Agar kishi barcha sezgi a'zolaridan mahrum bo'lib qolsa bormi, u o'zining atrofida nimalar yuz berayotganini bila olmas, tevarak–atrofdagi odamlar bilan munosabatga kirisha olmas, ovqatni qidirib topa olmas, xavf-xatardan qutilib qola olmas edi.

Kishining hayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta, negaki, ular bizning olam haqidagi va o'zimiz to'g'rimizdagi bilimlarimiz manbai hisoblanadi. Sezgilari bizga ob'yektiv voqelikning haqqoniy suratini beradi, ya'ni olamni u qanday mavjud bo'lsa shundayligicha aks ettiradi. Tovushlar, hidlar va boshqa kuzatuvchilar ko'zga ta'sir qilganda ko'rish sezgilari hosil qilmaydi. Xuddi shuningdek, nur va hid ham eshitish kuzata olmaydi.

Sezgi nerv sistemasining u yoki bu kuzatuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va harqanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Kuzatuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi.

Analizator uch qismdan iborat:

1. Tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator hisoblangan **periferik** bo'lim (reseptor);

2. Analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan **afferent** (markazga intiluvchi) va **efferent** (markazdan qochuvchi) nervlar;

3. Analizatorning periferik bo'limlardan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan **qobiq osti** va **qobiq** (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlari.

Analizator reaksiyalarida periferik bo'limlarining muayyan xujayralari miya qobig'idagi xujayralarning ayrim qismlariga mos bo'ladi. Jumladan, ko'z to'rdasining turli nuqtalari qobiqda har xil nuqtalarda yoyilgan xolda gavdalangan bo'ladi; eshitish a'zosi ham qobiqda barcha sezgi organlariga ham taaluqlidir.

Sezgi jarayoni tashqi ta'sirning o'ziga xos quvvatini saralash va qayta o'zgartirishga qaratilgan hamda tevarak–atrofdagi olamning aynan bir xilda aks etishini ta'minlaydigan sensor ta'sir o'tkazish sistemasi sifatida yuz beradi.

Aks etish xususiyatiga va reseptorlarning joylashgan o'rniga qarab sezgilar odatda uch guruhga ajratiladi:

1) tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida reseptorlari bo'lgan **ekstroseptiv** sezgilar;

2) tananing ichki a'zolarida va to'qimalarda joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan reseptorlarga ega bo'lgan **interoseptiv** sezgilar;

3) reseptorlari mushaklarda va paylarda o'rnashgan proprioseptiv sezgilar, ular gavamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi, bu sezgi turini kinesteziya deb ham, unga tegishli reseptorlarni esa **kinestetik** yoki **kinestetik** deyiladi.

Ekstroreseptorlarni ikkitaga: aloqa bog'laydigan kontakt va distant reseptorlarga ajratish mumkin. Aloqa bog'laydigan reseptorlar ularga ta'sir qiladigan ob'yektlar bilan bevosita aloqa bog'lagan paytda qo'zg'atadi, masalan, badanni tegishli orqali sezish, ta'm bilish. Distant reseptorlar uzoqdagi ob'yektdan keladigan qo'zg'atishdan ta'sirlanadi, masalan, ko'rish, eshitish, xid bilish reseptorlari shular jumlasidandir.

Idrokning murakkabligi

Sezgilar oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

a. Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan: qovunni idrok qilish. Bunda quyidagi sezgilar ishtiroq etadi. Qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko`rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta`m sezgisi, harakatni aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar tahlil yordamida ajratib olinadi va idrokning retseptiv tomonini tashqil etadi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi. Bu esa idrokning pertseptiv tomonini tashkil etadi.

b. Har bir idrok tarkibiga kishining o`tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi. Biz bunday shakl va buyumlarni ilgari juda ko`p marta ko`rganmiz. Ular haqida muayyan bilimlarimiz bor. SHuning uchun bu shakllardagi etishmagan joylarni o`sha bilimlardan olib qo`shamiz va bir butun aks ettiramiz. Demak, idrok jarayoniga xotira faoliyati qo`shiladi.

c. Idrok tarkibiga xayol tasavvurlari kiradi, Masalan, derazadagi qirovni idrok qilib, tropik o`rmon yoki gullarga o`xshatish, kesib olingan daraxt to`nkasini idrok qilib biror yovvoyi hayvonga o`xshatish, osmondagi pag`a – pag`a so`zib yurgan oq bulutlarni idrok qilib, to`plab qo`yilgan paxtaga o`xshatish va boshqalar.

d. Idrok tarkibiga tafakkur va nutq faoliyati kiradi. Agar idrok qilinayotgan narsa yoki hodisa biz uchun yangi notanish bo`lsa, darrov fikr yuritish faoliyati boshlanadi va “bu nima”, “buning nomi nima” degan savol tug`iladi. SHuning, har bir idrok hukm shaklida ifodalanadi. YA`ni narsa yoki hodisaga nom beriladi, uni so`z bilan aytiladi va mavjud tushuncha doirasiga kiritiladi. Masalan “bu gul”, “bu mashina”, “bu kitob” va boshqalar.

j. Idrok jarayoniga his - tuyg`ular ta`sir qiladi. Bu his - tuyg`ular idrok qilinayotgan narsa- hodisalar to`g`risida o`tmishda tug`ilgan taassurotlar va fikrlardan hamda ayni paytdagi idrok jarayonida vujudga kelishi mumkin.

His - tuyg`ular idrokning faollik darajasini kuchaytiradi, uning mazmunini jonli, yorqin qiladi.

z. Idrok jarayonida diqqat g`oyat katta ahamiyatga ega.

Diqqat idrokning faolligini oshiradi va uning mukammal bo`lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas. Narsa - hodisalarni to`liq va raso idrok qilish uchun shu narsa - hodisalar ustida diqqat kuchli va barqaror turishi zarur. Demak, o`quv materialini yaxshi idrok qilish uchun o`quvchilar diqqatini uyushtirish kerak.

Kuzatish va kuzatuvchanlik

Kuzatish idrokning mustaqil faoliyati sifatida namoyon bo`ladi.

Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo`yiladigan maqsadga, ko`riladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatning kuchiga va fikrlash faolligiga bog`liq. Kishining rejali, tizimli va davomli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyatini kuzatuvchanlik deyiladi. Kuzatuvchanlik shaxsning shunday xislatlaridanki, bunda u narsa - hodisalarning unga bilinmaydigan, lekin muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi. Kuzatuvchan kishi ko`proq narsani ko`radi, chuqurroq tushunadi, narsa - hodisalar o`rtasidagi o`xshashlik va farqni topadi, muhim bo`lmagan belgilarni ajratadi.

Akademik I.P. Pavlov kuzatuvchanlikning ilmiy bilimdagi ahamiyatiga yuksak baho bergan. U Sankt - Peterburg yaqinidagi Pavlovo shahridagi Fiziologiya institutining old tomoniga “**Kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik**” deb yozdirib qo`ygan.

Idrokni tasnif qilishda materiyaning yashash shakllari - fazo, vaqt, harakat asos qilib olinadi, unga ko`ra idrok quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Fazoni idrok qilish.

2. Vaqtni idrok qilish.

3. Harakatni idrok qilish.

Fazoni idrok qilish undagi narsalarning shaklini, hajmini va o`zaro munosabatlarini aks ettirishdir. Demak, fazodagi narsalar uch o`lchovda idrok qilinadi, narsalarning shakli: uch burchakli, turt burchakli, kub, kvadrat, doira, konus va boshqalar. Narsalarning hajmi katta - kichik, o`rtacha, yirik mayda va boshqalar. Narsalarning bir -biriga va idrok qiluvchiga munosabati: o`ngda, chapda, yuqorida, pastda, uzoqda va hokazo. Fazoni ko`rish, teri, muskul - harakat organlari bilan idrok qilinadi. Fazoni bir ko`z bilan va ikki ko`z bilan idrok qilamiz. Monokulyar idrokda narsalarning chetlaridan kelayotgan nurlar bitta ko`zning to`r pardasida aks etadi. Bu nurlar ko`z gavharida bir - birini kesib o`tadi va ularning kesishgan joyida ko`rish burchagi hosil bo`ladi. Bu burchakning katta - kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta kichikligiga hamda uning ko`zdan qanchalik uzoq - yaqinligiga bog`liq. Ko`z gavharining va umuman, ko`zning narsalarni eng yaxshi ko`rish uchun moslashuvini **akkomodatsiya** deyiladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Aytingchi, qorni ochlikni, chanqashni, ko`ngil ozishini sezish quyidagi sezgi turlarining qaysi biriga taalluqli?

a) tuyish sezgisi; b) organik sezgi; v) teri sezgisi; g) ta`m bilish sezgisi

2. Quyidagi javoblarning qaysi birida sezgining ta`rifi to`liq berilgan?

a) sezgi yagona reallikdir b) sezgi narsa va hodisalarning ayrim xossalarini aks ettirishdir v) sezgi ob`yektiv olamning sub`yektiv obrazidir.

g) sezgi tashqi ta`sir va belgilar timsolidir.

3. Ikkala ko`zi ko`r bo`lib tug`ilib, 52 yoshida yorug` dunyoni ko`rgan kishi narsa va hodisalarni ko`zi sog` kishilardek idrok eta oladimi?

a) ha, idrok eta oladi; b) idrok eta olmaydi; v) idrok o`qitishni talab qiladi;

g) fazoni idrok qilish tug`ma emas, shuning uchun idrok eta olmaydi.

4. Idrokning ta`rifini quyidagi fikrlardan aniqlang?

a) idrok sezgilardan tashqil topgan; b) idrok narsa va hodisalarni to`liq aks ettirish;

v) idrok bilish jarayonlariga kiradi; g) idrok maxsus o`qitishni talab qiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari;

1. Idrok xossalarining bir - biridan farqi nimada?

2. Idrok turlari va ularning tasnifini tushuntiring?

3. Vaqt va harakatni idrok qilishning inson hayotidagi ahamiyati qanday?

4. Idrokning sezgidan farqi nimadan?

5. Sezgi deganda nimani tushunasiz?

6. Sezgining qanday turlari bor?

7. Sezgining fiziologik asosini kim ishlab chiqqan?

8. Ekstretseptiv sezgilarga nimalar kiradi?

Mavzu: XOTIRA

Reja:

1. Xotira to'g'risida tushuncha.
2. Xotira nazariyasi.
3. Xotira jarayonlari.
4. Xotira turlari.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

Xotira – biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayoni.

Amneziya (lot.A – inkor etish, mnesus - xotira) – miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati

Mantiqiy xotira – materialni ma'no tomonidan o'zaro bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi

Mexanik xotira (yunon. mechane – qurol, mashina) – materialning ma'nosiga tushunmagan holda takrorlashdan iborat xotira

Paramneziya (yunon. para – oldida, yonida mnosis - eslash) – sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi

Reminissensiya (lot.reminiscentia - eslamok) – avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushurishidan iborat xotira jarayoni, vaqtinchalik unutish holati

Xotira turlari:

- I. Psixik aktivlik faoliyatiga ko'ra:** harakat, obrazli, emotsional, so'z ma'no.
- II. Faoliyat maqsadiga ko'ra:** ixtiyorsiz, ixtiyoriy.
- III. Materialning davomiyligiga ko'ra:** qisqa muddatli, uzoq muddati, operativ

Xotira jarayonlari: esda qoldirish (ixtiyoriy, ixtiyorsiz), esga tushirish, esda saqlash

Xotira tiplari:

- 1) Tez esda qoldirib, sekin unutish,
- 2) Tez esda qoldirib, tez unutish,
- 3) Sekin esda qoldirib, sekin unutish
- 4) Sekin esda qoldirib, tez unutish

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bizning bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyati, hayot sharoiti ta'sirida shakllanadi, kishi o'zining ish faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea va hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishini ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa - hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil eslab va o'zlashtirib olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklarini emas, balki uqilayotgan fanga qiziqishining har - xilligi bilan tushuntiriladi. esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yakqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda

chukur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta`sirlansak, o`sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog`liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirleydilar. Aksincha, irodali, materialni o`zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur esda qoldiradilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga uning aqliy saviyasiga, bilimiga, o`quviga, fikrlash qobiliyatiga, ko`nikma va odatlarga ham bog`liqdir. SHunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog`liqdir. SHaxs o`z oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalari asosida o`zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish; esda saqlash; esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma`lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya`ni shaxsiy tajribani to`plash bilan bog`liqdir, to`plagan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qaytaesga tushirishni talab qiladi. Ma`lum materialni faoliyatda qatnashmay qolishi yoki tushib qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug`ma deb atashadi. To`g`ri, oliy nerv tizimi, uning o`ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o`ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin. Lekin hayotda ko`pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga bog`liq tarzda ajralib turadigan tiplari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko`rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi **ko`rgazmali** — **obrazli** bo`lib, ko`zi bilan ko`rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o`zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo`ladi. Bundaylar so`z — mantiqiy xotira tipi vakillaridir. Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, «yuragidan» o`tkazgan, unda biror yorqin emosional obraz qoldirolgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu — **emosional xotiradir**. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni **fenomenal** xotira sohiblari deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo`lgan kishilar to`g`risida ko`p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o`zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida Yuliy Sezar, Naloleon, Mosart, shaxmat ustasi Alexin kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo`lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixologi va neyropsixologi A.R. Luriya ham ana shunday xotira sohiblaridan biri — asli kasbi jurnalist bo`lgan Shereshevskiy degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o`rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, Dantening «Ilohiylik komediyasi»dan olingan uzundan-uzoq parchani bir marta qarab olgandan so`ng, 15 daqiqadan keyin so`zma-so`z aytib berolgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo`lgan italyan tilida yozilgan edi. Ko`pchilikni qanday qilib yaxshi, mustahkam esda saqlab qolish muammosi qiziqтира, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qiynar, ko`rgan narsalari ko`z oldida gavdalanaverar edi. Qanday qilib eslab qolasiz? Degan savolga u shunday javob bergan: men «materialni» o`zimga tanish va sevimli bo`lgan Moskva ko`chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialning bir bo`lagi o`sha «ko`chaning» salqin tushgan eriga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo`lgan ekan. Shunga o`xshash har bir fenomenal xotira egalarining o`ziga xos eslab qolish uslublari bo`lar ekan. Tarixda bunday kishilar bor va ular bizning oramizda xam yo`q emas. Muhimi

shunda-ki, ana shu fenomenal xotirani shaxs va jamiyat manfaatiga mos tarzda unumli ishlata bilishdir. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarining o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan. Shotlandiyalik matematik A. Etkin 1933 yili 25 ta bir - biri bilan bog'lanmagan so'zlardan iborat ikki qatorni eslab qolib, hech bir xatosiz uni 27 yildan keyin esga tushira olgan. "qilich va qalqon" kinofilmidagi rus razvedchigi I. Vaysning nasistlar tomonidan lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi ham.

Xotiraning psixologik nazariyalari:

1. Assotsiativ nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko'ra o'zlashtirilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalarning ongda bir vaqtda yoki birin-ketin xotiradagi mavjud ma'lumotlar bilan o'xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi asosida *bog'lanishlar* hosil qilinishi xotira samaradorligini belgilaydi.

2. Geshtalt nazariyasi esa ma'lumotlarni umumlashtirib, yaxlitlab o'rganishni tavsiya qiladi. Geshtaltizm ong hodisalariga nisbatan assotsianistlarning qismlarga ajratgan holda yondashuviga avvalo qismlarni sintez qilish printsipini, uning qismlariga nisbatan yaxlitlikning birlamchiligi printsipini qarama-qarshi qilib qo'yadi.

3. Freydizm nazariyasi asoschilarining fikricha, ma'lumot shaxs ehtiyoji, qiziqishi, motivi, motivatsiyasi, emotsiyasi, faoliyatining maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu ma'lumot oson o'zlashtirilib, sekin unutiladi.

4. Bixeviorizm nazariyasi esda saqlashning muhim omili – takrorlash ekanligini e'tirof etadi.

5. Mantiqiy nazariya ma'lumotlarning mazmundorligi, mohiyatan anglanilganlik darajasi esda saqlashni yengillashtirib, unutish sur'atini susaytirishga zamin hozirlaydi.

6. Faoliyat nazariyasida inson uchun hayotiy, ijtimoiy, kasbiy ahamiyatli voqeliklar, ma'lumotlarni aslo unutilmasligi, odatda shaxsning faoliyatda ishtirok etish darajasiga qarab ma'lumotning esda saqlanishi ta'kidlanadi.

Yuqorida mulohaza yuritilgan psixologik nazariya va yo'nalishlar tahliliga quyidagi xotira jarayonlari (esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushurish, unutish)ni yoritishda batafsilroq to'xtalamiz.

Xotiraning fiziologik nazariyasi:

1. Nerv tizimida izlarning saqlanishi. Nerv tizimi ilgarigi qo'zg'atuvchilarning izlarini aniq saqlay olish qobiliyatiga ega. Agar bir xil xususiyatga ega bo'lgan signal qanchalik ko'p uchrasa, sinaluvchi unga shunchalik tez moslashadi, xuddi shu tariqa tezkorlikda (reaktsiyaning latent vaqti juda qisqa bo'lishiga qaramay) javob qaytarib, bu qonunning oddiy sharoitlarda ham saqlanib qoladi.

2. Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayoni. Izlarning «konsolidatsiyalanish» (mustahkamlanish)i uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Miyaning qo'zg'alishiga ta'sir qiluvchi turli moddalar, izlarning saqlanishiga turlicha «chuqurlikda» ta'sir qiladilar. Ba'zilar 3-4 kun oldin hosil qilingan ko'nikmalarni yo'qotsa, boshqalari izlarning hosil bo'lishiga ta'sir qiladi. Izlarning mustahkamlanishi ma'lum vaqtni talab qiladi va ushbu jarayonda turli kuch bilan ta'sir qiluvchi holatlar hukm suradi.

3. Xotiraning fizik va neyron iz qolish nazariyalari. Fizik iz qolish nazariyasida, neyronlardan nerv impulslarining o'tishi o'zidan keyingi fizik iz qoldirishi e'tirof qilinadi. Bu nazariya tarafdorlarining fikriga qaraganda, izlarning fizik aks etishi sinapslarda, yuzaga keladigan elektrik va mexanik o'zgarishlarda o'z aksini topadi.

Protonlar hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar biokimyoviy reaksiyalar deb atalib, bu hodisani jahon psixologlari uzoq muddatli xotiraning psixofiziologik mexanizmi deb ataydilar.

Xotiraning bioximik nazariyasi:

1. Sinapslarning elektroximik o'zgarishlari bosqichi. Bu nazariyaning asosiy mohiyati esda olib qolish jarayonining ikki bosqichli xarakterda ekanligini bildiradi. Birinchi bosqichda qo'zg'atuvchining bevosita ta'siridan so'ng, miya hujayralarida asl holiga qaytuvchi fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan qisqa muddatli elektroximik reaksiya yuz beradi. Ikkinchi bosqich birinchi bosqich negizida yuzaga kelib, aslida u yangi oqsil moddalar (proteinlar)ning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik reaksiyalardan iboratdir. Birinchi bosqich sekundlar yoki minutlar mobaynida davom etib, bu qisqa muddatli xotiraning mexanizmi hisoblanadi.

2. RNK (ribonuklein) sifat va miqdorining o'zgarishi bosqichi. Nerv hujayrasining qo'zg'atilishi RNK (DNK genetik, irsiy xotiraning, RNK esa ontogenetik ya'ni orttirilgan xotiraning asosi hisoblanadi)ning ko'payishiga olib keladi va unga tanish qo'zg'atuvchilarning takroriy ta'sir ko'rsatishidan tebranish qobiliyati borligi haqida xabar beruvchi uzoq davom etadigan bioximik izlar qoldiradi. RNK juda o'zgaruvchan bo'lib, uning ehtimoldagi o'ziga xos o'zgarishlar miqdori 1015 – 1020 soni bilan o'lchanadi, bu esa RNK juda katta miqdordagi axborotlarning kalitini o'zida mujassamlashtirganligini bildiradi.

Masala: Bank o'marildi.

Tasavvur qiling, siz beixtiyor shu o'g'irlikning guvohi bo'ldingiz. Hamma ish 20 soniyada yuz berdi. Rasmdagi barcha narsalarga yaxshilab qarab, imkon boricha ko'p narsani eslab qolishga atigi shuncha vaqtingiz (20 soniya) bor, xolis bo'ling va savollarni o'qigandan keyin rasmga qayta qaramang). O'g'rilarni topib, ishni yopish uchun hodisa joyida guvohi bo'lgan narsalaringiz haqida tergovchi sizga 10 xil savol beradi. 20 soniya ichida eslab qolgan narsalaringiz bo'yicha javob bering. **Taassurotlaringizni qoldirish ixtiyoriy (lekin javoblarni emas!).**



20 soniya diqqat bilan ko'zdan kechirib bo'lgan bo'lsangiz, endi rasmga qayta qaramay turib, tergovchining quyidagi savollariga javob bering:

- 1) Mashinaning nomeri qanday edi?
- 2) Mashinada radio bor edimi?
- 3) Ro'paradan qaraganda haydovchi qaysi tomonda o'tirgan edi: chap tomondami yoki o'ng tomondami?
- 4) Mashinada biron-bir nuqson bor edimi? Agar bo'lgan bo'lsa, qanday edi?
- 5) Haydovchi bilan birga jami nechta o'g'ri bor edi?
- 6) Haydovchining bosh kiyimi bor edimi?
- 7) Qopni ko'tarib chiqayotgan o'g'rining qanday belgilarini eslab qola oldingiz?
- 8) Zinada jami nechta odam turgan edi?
- 9) Binoga biron-bir zarar yetkazilgan edimi?
- 10) Voqeaga yana guvoh bo'lganlar bor edimi?

Guruhlarda keysni yechish bo'yicha yo'riqnoma

1. Individual yechilgan keys vaziyatlari bilan tanishib chiqing
2. Guruh sardorini tanlang.
3. Vatman qog'ozlarda quyidagi jadvalni chizing

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan yechim	Guruh yechimi

4. Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar ro'yxati	Guruh faol maks. 0,2 b	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi maks.0,3 b	Javoblar to'liq va aniq berildi maks.0,5 b	Jami maks.1,0 b
1.				
2.				
3.				

0,9-1,0 ball – a'lo

0,7- 0,8 ball – yaxshi

0,5- 0,0 ball – qoniqarli

0 -0,4 ball – qoniqarsiz

(Test, psixologik masala va nazorat savollari)

Izchillik testlari

1. Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyadagi muvaqqiyat bog'lanishlar

B) miyada iz hosil bo'lishi

*V) ilgari idrok qilgan boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik ularni esga tushirishdan iborat jarayon

- G) kundalik bilimlarni esda olib qolishga
- D) zarur vaqtda kerakli materialni esga tushira olish qobiliyati

2. Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgan?

- A) esga tushirish
- B) esda olib qolish
- V) unutish
- G) esda saqlash

*D) barcha javoblar to'g'ri

3. Xotiraning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

- A) ikkinchi signallar tizimi
- *B) assotsiatsiyalar
- V) bosh miyaning po'stloq qismi
- G) ketma-ketlik assotsiatsiyasi
- D) dinamik streotip

4. Qaysi qatorda assotsiatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) miyada iz qosil bo'lishi
- B) material izini yo'qolishi
- V) esda qoldirish va unutish tezligiga ko'ra

*G) xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea-hodisalarning o'zaro bog'lanishdir biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi

D) barcha javoblar to'g'ri

PSIXOLOGIK TRENING:

«Buzuq telefon yoxud “mish-mish”» o'yini

Maqsad: shaxslararo chiniqish, xotirani mustahkamlash, mantiqiy xotirani rivojlantirish, emotsional tanglikning oldini olish.

Bu trening asosan seminar mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan. Trening ko'rsatmasiga binoan guruhdagi talabalardan ixtiyoriy 5 kishi tanlab olinadi. Ulardan to'rttasini xonaning eshigi ortiga chiqariladi va bittasini olib qolib, guruhdagi boshqa talabalar bilan birgalikda unga ham eshittirib trener (o'qituvchi) tomonidan biror bir qiziqarli voqea matn tarzida o'qib eshittiriladi. Matnni tinglagan talaba tashqaridan bir o'rtog'ini chaqirib eshitgan hikoyani birma-bir unga mazmunini gapirib beradi. Ikkinchi talaba keyingisiga aytib beradi va shu tariqa besh talabaning o'qib eshittirilgan matndagi so'zlardan qay darajada esda olib qolib foydalana olganligi hamda xotirasini qanday darajada ekanligini bilib olish mumkin. Bu trening orqali talabalarda mantiqiy xotirani ham rivojlantirish mumkin. Chunki trening uchun tanlangan matndagi voqealar bir-birini to'ldirgan holda ketma-ketlikda rivojlangan bo'ladi.

Quyida trening uchun tanlangan mathdan parcha:

“Sevgi”

(O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar) asaridan parcha

Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar. Ularni **Sevgi** degan g'aroyib kuch topishtirdi. Ular ana shu kuch sehriga maftun bo'lib qoldilar.

Ajab, **Sevgi** hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Unga **Hijron** degan alanga ergashib keldi. Ular ana shu alanga otashida baravar kuya boshladilar.

Nihoyat, **Hijron** alangasi so'ndiyu, **Sevgi Visol** degan entiktiruvchi tuyg'uni

yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar.

Ajab, **Sevgi** hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Endi u **Sinov** degan to'siqni yetaklab keldi. Agar ular **SEVGIning** qo'lidan mahkam tutishganida bu to'siqdan o'tishlari mushkul emasdi. Ammo unday bo'lmadi. Ular **Sinov** oldida chekindilar. O'rtada **Shubha, Rashk** degan sharpalar o'rmalab qoldi. Shunda ular o'zlarini topishtirgan **Sevgiga** ilk bor ta'na toshi otdilar.....

“Xotira” mavzusi bo'yicha toifalash jadvali

Xotira nazariyalari	Turlari	Jarayonlari	Tiplari
Assotsiativ nazariyasi	Harakat	Esda olib qolish	a) Tez esda qoldirib, tez unutish;
Geshtalt nazariyasi	Obrazli	Esda saqlash	
Freydizm nazariyasi	Emotsional	Esga tushirish	
Bixeviorizm azariyasi	So'z-mantiq	a) tanish,	
Mantiqiy nazariya	Ixtiyoriy	b) eslash,	b) tez esda qoldirib, sekin unutish;
Faoliyat nazariyasi	Ixtiyorsiz	c) bevosita eslash,	
Fiziologik nazariyasi	Qisqa muddatli	g) oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash.	c) sekin esda qoldirib, tez unutish;
Bioximik nazariyasi	Uzoq muddatli	Unutish	
	Operativ	Esda qoldirish	
	Fenomenal	a)ixtiyoriy esda qoldirish	g) sekin esda qoldirib, sekin unutish
	Mexanik	b) ixtiyorsiz esda qoldirish	

Inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajratiladi:

➤ *Yondoshlik assotsiatsiyasi – bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo'ladi.*

➤ *O'xshashlik assotsiatsiyasi – hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasidagi ma'lum o'xshashlikka aytiladi.*

Qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasidagi qarama-qarshilik belgilar va xususiyatlar bo'lganga aytiladi.



Mavzu: Xayol

Reja:

1. Xayol jarayonlari:

2. Xayol turlari:

3. Xayol sifatleri:

4. Xayolning (fantaziya) ahamiyati va o`shishi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Analiz va sintez - xotira tasavvurlarini tahlil qilish va umumlashtirish;

Agglyutinatsiya - elimlash orqali ayrim elementlarni bitta qilib yangi obraz yaratish;

Aktsentirovka - bo`rttirish orqali obraz yaratilishi;

Giperbolizatsiya - kattalashtirish yoki kichiklashtirish orqali obraz yaratish;

Ijodiy xayol - xayol turi bo`lib, original obrazlar yaratish;

Tipiklashtirish - har bir davrga xos bo`lgan obrazlar yaratilishi.

Biz ilgari idrok qilmagan narsalarni tasavvur qilamiz, ilgari ko`rmagan narsalar obrazlarini yaratamiz, yaratiladigan narsalar g`oyalarini yuzaga keltiramiz, bular xayoldir. Masalan: bizning ko`rmagan joylarimiz haqida tasavvurimiz bor. Xayol - obraz, tasavvur yoki g`oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya`ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.

Fantaziya - xayol turlaridan biri bo`lib, u eng qimmatli iste`doddur. Xayol faqat insonga xosdir. Xayol mehnat natijasida paydo bo`ladi. Masalan: biror bir muammoni echishda avval nimadan boshlash, nima qilish, echish, yaratish yo`llari haqida xayol qilinadi. Xayolda biz yo`q narsani yaratamiz, lekin tashqi realikka asoslanamiz. Masalan: yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar asarlarini hayotdan oladilar. Inson miyasida vujudga kelgan muvaqqat bog`lanishlarni yangi tartibda va qayta paydo bo`lishi xayolning nerv - fiziologik asosi bo`lib hisoblanadi.



Kishilar tashqi olamni idrok qilib qolmasdan, balki uni o`zgartiradilar. Xayol qobiliyatimiz bilan bog`liq holda namoyon bo`ladi. SHuningdek, tasavvur xotirasi bilan ham bog`liq, u xayol turi sifatida qatnashadi. Obrazli xotira ijodiy xayol qilishda katta yordam beradi. Xayol voqelikni aks ettirish shakli sifatida quyidagicha ifodalanadi: kelajakni oldindan ko`ra oladi, ilgarigi ta`sirotlarni “jonlantiradi”. Xayol mehnat faoliyati orqali rivojlanadi. Xayolning fiziologik asosini miyaning murakkab analitik - sintetik faoliyati tashqil etadi. Xayol bilish jarayonini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Inson bir narsani o`zgartirishdan oldin miyasida o`ylaydi. Xayol ijodiy jarayonning muhim qismi bo`lib, u taqi olamni idrokdan farq qilib, to`liq, chuqur aks ettiradi. Xayolning faoliyati shaxs yo`nalishiga, quyidagi bir qator axlokiy - psixologik sifatlarga bog`liq: vatanparvarlik, mas`uliyatni his qilish, insonparvarlik, qat`iyatlilik kabilar.

Xayol jarayonidagi sintez quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

- **agglyutinatsiya** - “elimlash” degan ma`noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog`iz kampir, suv parisi, kentavr, sfinks obrazlari kabilar;
- **giperbolizatsiya** - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish, shuningdek, alohida qismlarni o`zgartirishdir. Masalan, Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam paxlavon, no`xot polvon obrazlari kabilar.
- **sxemalashtirish** - o`xshatish orqali ayrim tasavvurlarni, ular orasidagi farqlarni silliqlash;
- **tipiklashtirish** - bir xil obrazlarni qaytarilishi bo`lib, har bir darv uchun tipik bo`lgan obrazlarni yaratish. Masalan, A. Qaxxor hikoyalari (“O`g`ri”, “Bemor”), A.Qodiriy (“O`tkan kunlar”) romani, T.Malikning (“SHaytanat”) asarlari kabilar;
- **aktsentirovka** - ayrim belgilarni ta`kidlash orqali obrazlar yaratish. Masalan, o`rtoqlik hazillari. Aktsentirovka adabiyotda ko`p qo`llaniladi. Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro`y beradi. Chunki, har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko`riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obraz hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega:

1. Xayol tasavvurlari ongda tez paydo bo`ladi va barqaror bo`ladi.
2. Xotira tasavvurlari doim tanish narsadek his qilinadi, xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg`ularini beradi.
3. Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bo`lganligi sababli yangilikni his qilish tuyg`ulari oqibatida vujudga keladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Xalq ertaklaridagi suv parisi, bulbuligo`yo, kentavr (odam boshli ot), sfinks (odam boshli sher) kabi obrazlarning yaratilishi qaysi xayol jarayonlariga taalluqli?
 - a) kattalashtirish (giperbolizatsiya); b) aktsentirovka (bo`rttirish);
 - v) agglyutinatsiya (elimlash); g) tipiklashtirish.
2. Quyidagi javoblardan qaysi birida xayol ta`rifi to`liq berilgan?
 - a) xayol yoki fantaziya tafakkur kabi faqat insongagina xos bo`lgan bilish jarayonidir;
 - b) xayol mehnatning oraliq va oxirgi natijalarini ko`rish imkonini beruvchi bilish jarayonidir;
 - v) xayol avval idrok qilingan obrazlar asosida hali idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini aks ettirishdir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Xayol - fantaziya deganda nimani tushunasiz?
2. Xayol jarayonlariga nimalar kiradi?
3. Xayol turlari qaysilar?
4. Kishilarning xayoli nimasi bilan farq qiladi?
5. Tush ko`rish xayolning qaysi turiga kiradi?
6. Hayvonlarda xayol bo`ladimi?

Mavzu: TAFAKKUR

Reja:

1. Tafakkur haqida umumiy tushuncha.
2. Tafakkur jarayonlari.
3. Tafakkur shakllari.
4. Tafakkur va masala hal qilish.
5. Tafakkur turlari.
6. Tafakkurdagi individual farqlar.

Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:

Abstrakt tafakkur - mavhum narsalar haqida fikr yuritish

Analiz - narsa va hodisalarni tahlil qilish

Sintez - ajratilgan elementlarni qaytadan birlashtirish

Umumlashtirish - bir turkumga xos bo`lgan narsa va hodisalar haqida fikr yuritish

Taqqoslash - narsa va hodisalar o`rtasidagi o`xshashlik va farq xususiyatlar haqida fikr yuritish

Masala - muammoli masalalar haqida fikr yuritish

Tafakkur - narsa va hodisalarni umumlashtirib, vositali yo`l bilan aks ettirish.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur bo`lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo`lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o`z atrofidagi olamda bo`lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga

tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to'g'risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklarimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo'lishini, bo'lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg'on ekanligini belgilashda o'z ifodasini topadi. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo'ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokidagi in'ikosning o'zi chinakam bilim bo'ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g'arbga botayotganini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz erni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o'tkazish va matematika yo'li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o'z o'qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka to'g'ri kelmas ekan. Voqelikni to'g'ri aks etishi tafakkur bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlarida hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalarning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. ***Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi.*** Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi.

Xulosa chiqarish bitta yoki bir necha hukmlardan yangi hukm hosil qilishdir 3 xil xulosa chiqarish mavjud:

1. **Induktiv xulosa chiqarish (yakka xulosa)**
2. **Deduktiv xulosa chiqarish (umumiy xulosa)**
3. **Analogik xulosa chiqarish (taxminiy xulosa)**

TAFAKKUR VA MASALA HAL QILISH

Agar hayot va amaliyot davomida odam yangi maqsad, yangi muammo, yangicha ahvol va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo'lsa, odamda dastlab tafakkur qilishga zaruriyat tug'iladi. Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir.

TAFAKKUR TURLARI

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va bir muncha shartli tasnifi tarqalgandir:

1. **Ko'rgazmali - harakat;**
2. **Ko'rgazmali -obrazli;**
3. **Mavhum.**
4. **Nazariy;**
5. **Amaliy tafakkur.**

Ko'rgazmali - harakat tafakkur - tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazardan echganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bog'langandir. Sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir.

Ba'zi intellektual masalalarni echishda bitta echim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda "gruppaviy effekt" bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi. Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir - birlaridan fikrlash uslublarining noyoblighi bilan farq qiladilar.




Tafakkur turlari

Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali - harakat Ko'rgazmali - obrazli Mantiqiy
Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra	nazariy amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	konvergent divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	reproduktiv produktiv (ijodiy)

A11



A12



Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o'xshash, muhim belgilarni shu narsalar to'g'risida bitta tushuncha qilib, fikran birlashtirish degan ta'rif tafakkurning qaysi jarayoniga taalluqli?

a) analiz va sintezga; b) taqqoslashga; v) umumlashtirishga; g) abstraktsiyalashtirishga;

2. Quyidagi javoblarning qaysi biri tafakkurning ta'rifini to'g'ri ifodalaydi?

a) tafakkur xotira obrazlaridan tashkil topadi;

b) tafakkur hodisalarning umumiy xususiyatlarini umumlashtirib aks ettirishdir;

v) tafakkur nutqqa bog'liq bo'lmagan jarayondir;

g) tafakkur faqat insonlarga xos bo'lgan xossadir.

O'xshashini topish (tafakkurni mashq qildirish).

Biror predmet yoki hodisaga o'xshash bo'lgan predmet va hodisalarni sanang, masalan, "vertolyot" so'zini oladigan bo'lsak, uning ko'pgina xususiyatlariga qarab o'xshashini topish mumkin, ya'ni "qush", "kapalak", "ninachi"(uchadi), "avtobus", "poezd", (transport vositalari va h.k.). Bu mashqlar tafakkurning umumlashtirish va tasniflash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Hissiy bilish va tafakkur o`rtasidagi farqni ayting?
2. Tafakkur jarayonlarining ahamiyatini ko`rsating?
3. Abstrakt va konkret tafakkur o`rtasidagi farq nimada?
4. Muammoli vaziyat va masala hal qilishning ahamiyatini asoslab bering?
5. Hayvonlarda tafakkur bormi?

Mavzu: O`smirlik va o`spirinlik davrining psixologik xususiyatlari.

Reja:

1. O`smirlarning anatomik-fiziologik rivojlanishi xususiyatlari.
2. Akseleratsiya nazariyalari va o`smirlik yoshi.
3. O`smirlik yoshida shaxs sifatlarining shakllanishi.
4. Ilk o`spirinlik yoshining uziga xos xususiyatlari.
5. Ilk o`spirinlik yoshida shaxs kamoloti.
6. Ilk o`spirinlar aql–idrokining xususiyatlari.

Tayanch suz va iboralar:

O`smirlik. Jismoniy rivojlanish. Psixik rivojlanish. Akseleratsiya. Tarbiyasi kiyin o`smirlar va ular bilan ishlash xususiyatlari. Uspirinlik. Kasb tanlash. Kasbga yullash. Urtoklik. Dustlik. Oila xakida kaygurish. Jamiyatga foyda keltirish orzusi.

Bolalar rivojining 11-12 yoshdan 14-15 yoshlargacha bulgan davri – o`smirlik yoshi deb aytiladi. O`smirlik insonning balogatga etish davri bo`lib, o`ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog`onalaridan keskin farqlanadi. O`smirda ro`y beradigan biologik o`zgarishlar natijasida uning psixik xayotida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o`shish va jinsiy etilish amalga oshadi. Bolaning buyi 11-12 yoshida yiliga 6-7 sm, xatto 10-sm gacha usishi mumkin. Biroq bu boskichda kizlar ugil bolalarga karaganda tezrok usadilar. Bu usish 13-14 yosh oxirlarida ugil bolalar va kizlarda tenglashadi. Un besh yoshga kadam kuyganda ugil bolalar kizlarni ortda koldirib ketadilar. SHundan keyin to umrining oxirigacha usishda ugil bolalar ustunlik kiladilar.

O`smirlik davrida buy bilan tana nomutanosib ravishda usadi, natijada bolalar orik, nimjon va novcha bulib kurinadilar. Buylari tez usganligi uchun kiyimlari kiska vakt ichida kalta bulib koladi, bu esa ularning ruxiyatiga kattik ta`sir kiladi, guyoki atrofdagi odamlar unga karayotganday, «O`qasining kiyimini kiyib olganday» tuyuladi. O`smir ichki organlarining usishida xam shunday nomutanosiblik buladi. O`pka sigimi kattalashadi, yurak faoliyati kuchayadi, lekin kon tomirlari kengayishi bundan ortda koladi, natijada o`smir tez charchaydigan, tezda rangi uchadigan, xolsizlanadigan, boshi aylanib, xatto yikilib koladigan buladi. Tez usayotgan organizm kuprok oksil moddalarini, kuprok kislorodni talab kiladi, bularni esa bola tez xarakat kilish orkaligina oladi. SHuning uchun xam o`smirning xarakatsiz bir erda turib kolishi unga kiyinchiliklar keltirib chikaradi. O`smirning sinfda, dars paytida xam urnidan turib ketishi, u yon – bu yonga karashi, kimirlashi, sumka-sidan biror narsani olib eb utirishining sababini xam shu bilan izoxlash mumkin. SHuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan mashgulot olib borayotgan O`qituvchi birmuncha «raxmdil, kechirimli, ba`zan uzini kurmaganga oladigan» xam bulishiga tugri keladi.

Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7-8 foizini kon tashkil kiladi, kon bosimi

birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida buladi. YUrak kiskarishining chastotasi sekinlashadi, masalan, 11 yoshda minutiga 85-90 marta ursa, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. Upkaning tiriklik sigimi kuyidagicha buladi: ugil bolalarda – 11 yoshda 1900-2000 ml, 15 yoshda – 2600 –2700 ml, kizlarda – 11 yoshda 1800-1900 ml, 15 yoshda 2500-2600 ml. SHuning uchun nafas olish xar dakikada 2 marta kamayadi. O‘smirlarda ichki sekretiya bezlari funksiyasi xam uzgaradi, bu esa jinsiy etilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida kuzgaluvchanlik uzgaradi, natijada yakkol xis-tuygular paydo buladi. Kalkonsimon bez faoliyatining kuchayishi kuzgaluvchanlik, asabiylashish va toli-kishni keltirib chikaradi. Bosh miya kobigida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulk-atvorda parokandalik, gayritabiiylik paydo buladi.

O‘smirlar jinsiy etilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini O‘qituvchilaridan, 4 foizini maktab vrachidan va kolganlarini kucha-kuydan, urtoklaridan va dugonalaridan bilib oladilar. Goxo o‘smirlar orasida axlokan tubanlashuv xollari ruy berishi mumkin. Ularni bunday kiliklardan, nopok gurux va tudalardan xalos etish maksadga muvofikdir.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik xolatiga kuchish jarayoni sodir buladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin uzgarishi bilan aqliy faoliyatida xam burilishlar seziladi. O‘qituvchining yangi MA‘RUZAni batafsil tushuntirishi, darslarni ma‘ruza shaklida olib borilishi uni zeriktiradi, O‘qishga lokaydlik tugdiradi. Ilgari O‘quv materialini ma‘nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o‘smir endi zarur urinlarni mantikiy xotira va tafakkurga suyangan xolda uzlashtirishga xarakat kiladi, talabchanlik unda kuchayadi. SHu vaktgacha odobli, dilkash bulgan o‘smir kutilmaganda kaysar, intizomsiz, kupol, serzarda bulib koladi. Kattalarning talablari, kursatmalari mantikan ixcham, dalillarga asoslangan, etarli ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga ega bulishi kerak. O‘smir xulkidagi bunday uzgarishlar tajribasiz O‘qituvchi yoki ota-onalarni kattik tashvishga soladi, munosabatlarini uzgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chikadi.

Ayrim pedagoglar o‘smirlik davri inkirozi sabablarini bilishga intiladilar.

Xush, o‘smirning psixik usishini xarakatga keltiruvchi kuch nima?

O‘smirning psixik usishini xarakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi extiyojlar bilan ularni kondirish imkoniyatlari urtasidagi karama-karshiliklar tizimining namoyon bulishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va karama-karshiliklarni psixologik kamolotni ta‘minlash, faoliyat turlarini murakkab-lashtirish orkali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta – sekin yo‘qotish mumkin.

O‘smirlik chogida rivojlanishning jadallashuvi – akseleratsiya yakkol kuzga tashlanadi. O‘smirlik inson shaxsi kamolotining muxim boskichi xisoblanadi. O‘smirlik chogida goyat katta axamiyatga ega bulgan psixologik uzgarishlar ruy beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur sifatlar ta‘lim –tarbiya ta‘sirida paydo buladi, barkaror, mustaxkam iz koldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon buladi.

O‘smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bula boshlaydi, psixikasida keskin kayta kurish sodir buladi. O‘zgarishlar uning oldiga yangi talablar kuyadi, bu esa uz navbatida kuprok xuquq va erk berilishini, eng

avvalo mustakil karorga kelish va xulk – atvorini makbul deb xisoblab amalga oshirishni takozo kiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barkarorlik o‘smirlik davrining eng muxim xususiyatlari xisoblanadi.

Xozirgacha balog‘atga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi to‘grisida bir butun, yaxlit ilmiy nazariya mavjud emas. SHuning uchun usishdagi jadallashuv, ya’ni akseleratsiya buyicha xam muayyan nazariya yaratilmagan. Ana shu boisdan xar xil ilmiy asosdagi bir-biridan farkli, e’tirozli qator nazariyalar paydo bulgan. Bular kuyidagilar:

Geliogen nazariyasi. Bu nazariya 1936 yilda chet el olimlari tomonidan yaratilgan bulib, uning asosiy moxiyati akseleratsiya xodisasi **kuyosh nurining** bevosita ta’siri bilan vujudga keladi, degan goyadan iboratdir. Guyoki serkuyosh ulkalarda rivojlanish tezlashar emish, lekin akseleratsiya xodisasi shimolda xam, serkuyosh ulkalarda xam sezilmokda. Demak kisman tugri bulishi mumkin xolos.

Geteroziya nazariyasi. (turli-tumanlik) Turli millat vakillarining aralash nikoxga kira boshlagani bunga yorokin misoldir. Mazkur nazariyaga muvofik psixik dunyodagi kayta kurishlar nasliy belgilar keskin uzgarishiga sabab buldi, natijada farzandlarning usishida kuchayish, jadallashish, akseleratsiya xodisasi vujudga keldi.

Urbanizatsiya nazariyasi. Jamiyat rivojlanishida shaxarlarning roli ortishi, shaxar va kishlok turmush tarzining bir-biriga yakinlashuvi bilan boglik deb karaladi. Lekin bu xam sabab bula olmaydi.

Nutritiv nazariya. Bu goyaning tub moxiyati shO‘qi, akseleratsiya odamlarning ovkatlanishi yaxshilanishi, iste’mol kilinayotgan oziqalarda darmondorilar mikdorining kupayishi sababli vujudga keladi. V-6, V-12 darmondorilari (vitaminlari) va foliev kislotasini odamlar kuprok iste’mol kilishi mazkur xolat namoyon bulishining asosiy omili emas. Kisman tugri bulishi mumkin.

Nurlanish nazariyasi. Bu nazariya namoyondalarining fikricha, yer yuzida rentgen kurilmalarining kupayishi, atom, vodorod va neytron bombalarining portlashi natijasida insonda radioaktiv moddalar, radiatsiya nurlanishi darajasining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Yer kurrasiga tarkalgan zaryadlar bilan inson organizmining nurlanishi usishini kuchaytirishi, ya’ni akseleratsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Lekin me’yoridan ortik xar kanday nur, jumladan rentgen nuri salbiy ta’sir utkazadi.

Ijtimoiy sharoitning yaxshilanishi nazariyasi. YAshash sharoitlarining yaxshilanib borishi, keng kulamda sanitariya va gigiena tadbirlarining amalga oshirilishi, ovkatlanish sifatining ortishi, ota-onadan farzandga nasliy belgilarning (genlarning) bir tekis utishi kabi omillar akseleratsiya jarayonini tezlashtiradi, degan fikr qator mamlakatlardagi tadkikotchilar orasida keng tarkalgan.

SHu nazariyaga asoslanib shu narsani kushish mumkinki, odamlar iste’mol kilayotgan oziq-ovkat maxsulotlari tarkibida sun’iy-kimyoviy maxsulotlarning, jumladan kishlok xujalik ekinlari usishini tezlatadigan, xosildorlikni kutaradigan kimyoviy moddalar oziq-ovkat maxsulotlari tarkibida odam organizmiga xam utadi, bu xam albatta jismoniy rivojlanishga turtki berishi mumkin. Bundan tashkari ilmiy texnika rivoji, axborotlar uzatish va kabul kilish tizimlarining uzgarishi odamlarning aqliy rivojlanishlariga ta’sir kursatadi, jismoniy mexnat kamayishi odamlarning aqliy mexnat bilan kuprok shugullanishlariga kulay imkoniyatlar yaratib berishi xam akseleratsiya jarayonlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy akseleratsiya nazariyasi. Bu ilmiy nazariyaning asoschilaridan biri, yirik fiziolog olim A. A. Markosyandir. Uning fikricha, hozirgi zamon kishilaridagi bilimlar xajmini XX asr yarmidagi bilimlar xajmiga takkoslash orkali bolalardagi usish jarayonini aniklash ijtimoiy akseleratsiya deyiladi. Bolalardagi akseleratsiyaning sababi: birinchidan, ota-onalarning umumiy saviyasi yuksalgani, ikkinchidan shaxsiy va ijtimoiy turmushda axborot vositalari tarmogining kengayganligi, ya'ni televidenie, radio, telefon, kino, madaniyat muassasalari tarmogi va xokazolardir.

Bizningcha, mana shu omillar katoriga shaxslararo munosabat-larning tugri yulga kuyilishi, odamlarning okilona, odilona mulokotga urgangani, jamoa va guruxlarda ijobiy psixologik muxit yaratilgani, asabiylashish, parokandalik kamayganini xam kushish maksadga muvofikdir.

O'smirning «tarbiyasi qiyin» bulib qolishiga nimalar sabab bulishi mumkin?

Bola aloxida olingan shaxs sifatida uz-uziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki boskichni boshidan kechiradi. Bu boskichlar o'smirlik yoshining ikki xil davriga – kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davriga tugri keladi. Birinchi boskichda bola uzini «bolalar» dan ajratib, endi uzini kattalar olamiga mansunbligini ta'kidlamokchidek buladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-xarakatlariga taqlid kilish va uzining mana shu yarashmagan kiliklariga tankidiy baxo bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yakin bulishi uchun yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortik darajada boglik bulib kolishi va shu singari xolatlar xarakterlidir.

Ikkinchi boskichda endi uzining yosh bola emasligiga shubxa kilmaydi va u uzligini anik anglay boshlaydi, uz shaxsini uluglab, uziga xos xarakatlar kila boshlaydi. Bu davrga kelib, uning xarakatlari uzi bilan urtok bulgan bir gurux tengdoshlariga boglik bulmay koladi. Atrofidagi xar kanday kishining uning shaxsi xakidagi tankidiy fikrni eshitgisi kelmaydi, xato bulsa xam uz fikrida kat'iy turishga xarakat kiladi. SHuning uchun xam bu davrda bolaga ta'sir utkazish metodikasiga jiddiy e'tibor berish darkor.

O'smirlik yoshida yuz bergan uzgarishlar, jumladan fiziologik uzgarishlar nafakat uning xulkiga, xatti-xarakatlariga ta'sir etibgina kolmay, uning bilishga bulgan munosabatlariga, mexnat va uning turlariga munosabatlarini xam uzgartirib yuboradi.

O'smirning nerv tizimi jiddiy uzgarishlarga duch keladi. Miya pustlogining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi. Xotiraning xajmi kursatmali material va faktlarni eslab kolish xisobiga emas, balki mantikan boglangan materialni eslab kolish xisobiga oshib boradi. O'smirlar uzlashtirib oladigan mavxum tushunchalar doirasi kengayadi. Ayni vaktida muxim narsalarni muxim bulmagan narsalardan ajrata bilmaslik xam kuzatiladi. Ijtimoiy faoliyatga kizikish ortadi. Faollik, tashabbuskorlik, baxodirona ishlar va romantikaga, dustlik va urtoklikka intilish bu yoshga xos bulgan xususiyatdir.

O'smir endi bola emas, u tevarak-atrofidagi narsaga juda xam kizikadi, faolligi xam zur, xam jismoniy, xam aqliy mexnatga ishtiyoki juda katta. Uning bu faolligini yulga solishga urganish lozim, bolalarni axillik bilan ish kurishga urgatish, ularning keraqli bilimlar bilan kurollanishiga, jamoat ishlarini olib borishni urganishiga, xam aqliy mexnat soxasida, xam jismoniy mexnat soxasida uyushkoklik bilan ishlashni urganishiga yordam berish kerak. O'smirning faolligi – ijtimoiy xayotda uz urnini, uzining boshka kishilar xayotidagi rolini tushuna boshlagan kishining faolligidir. Uning faolligidan axlokiy tarbiyada xam, aqliy tarbiyada xam foydalanish kerak, o'smirning

vokea-xodisalar moxiyatini bilib olishdagi ildamligidan sinf O'quvchilari faolligini oshirishda, namuna kilib kursatishda, O'qituvchi bayon kilgan nazariy bilimlarga xayotiy misollar keltira olish kunikmalarini xosil kilishda xam foydalanish zarur. Buning uchun xar bir o'smirlarga uning kungliga yokadigan ish topib berish lozim. Turli xil tugaraqlarni (texnika ijodkorligi, konstrO'qtorlik, aviamodelchilar, tabiatshunoslar), fakultativ ishlarni, turizm, ijtimoiy faoliyatni taqlif etish mumkin. O'smirlarni yashil daraxtlarni kuriklashga, bog, urmon va dala zararkunandalariga karshi kurashga, tuproqni muxofaza kilishga, daraxtlar utkazishga, balik boyliklarini kuriklashga, turar joy va maktab atrofini obodonlashtirishga karatilgan ommaviy ishlarga jalb kilish foydalidir.

O'smirlarni tarbiyalash, ularga raxbarlik kilish san'ati shundan iboratki, ular bu raxbarlikni mumkin kadar kam xis kilsinlar.

O'qituvchilar jamoasi xar qancha urinishidan kat'iy-nazar, ta'lim jarayonida «tarbiyasi kiyin» o'smirlar xam uchrab turadi. Bunday bolalar o'smirlik yoshiga xos umumiy xususiyat – uz imkoniyat-lariga me'yoridan ortik yO'qori baxo berishlari asosida eng kup sodir buladi. Hozirgi davrda bunday O'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l – atvordagi nO'qsonlarning xatti-xara-kati nosoglomligining oldini olish va tuzatish yullari ilmiy asosda ishlab chikilgan. Tadkikotchilarning kursatishicha, tarbiyasi kiyin, injik, xulki salbiy bolalarning kelib chikishining ijtimoiy sabablaridan tashkari, pedagogik va psixologik sabablari xam mavjud. O'quvchilarda nojuya xatti – xarakatlar paydo bulishining sabablari va turtkilari xar xildir. Konunni buzishi yoki koidaga xilof ish kilishi darajasiga karab tarbiyasi kiyin o'smirlar jinoiy konunbuzar va oddiy koidabuzar (tartibbuzar) guruxlariga ajratiladi.

SHaxsning biologik usishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, O'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi kusurlar tarbiyasi kiyinchiliklarni keltirib chikaradi. SHaxsning psixik usishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangan, irodaning bushligi, xissiyotning kuchsizligi, zarur extiyoj va kizikishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati urtasidagi nomutanosiblik va xokazolar xatti-xarakatlarni izdan chikaradi. SHaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nO'qsonlar: axlokiy xislarni etishmasligi, O'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan notugri mulokot, ishyokmaslik, bush vakti tugri taksimlamaslik va boshkalar xam salbiy kiliklarni vujudga keltiradi. SHaxsning bilim, O'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muxim bilim, kunikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktabdan tashkari muxitning ta'siridagi nO'qsonlar, chunonchi, oilada pedagogik–psixologik bilimlarning etishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota–onaning ichkilikka va shaxvoniy xayotga berilishi, balogatga etmagan tengkurlarning ta'siri madaniy – ma'rifiy ishlab chikarish jamoalari xamda jamoatchilik kurshovidagi kamchiliklar xam tarbiyasi kiyin o'smirlar kupayishiga sabab buladi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruxlarga ajratish mumkin:

Tarbiyasi kiyin o'smirlarning birinchi guruxi **orsizlar yoki subutsiz, surbetlar** deb ataladi. Ular uz xatolarini bila turib konun va koidalarni buzadilar, noma'kul ishlarni kiladilar. Bunday bolalar betgachopar, ujar tabiatli, raxm-shafkatsiz, «zuravon»

buladilar. Mustakil fikrga ega bulmagan, lakma tengdoshlarini uz atroflariga tuplaydilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruxga mansub tarbiyasi kiyin **o'smirlar yaxshi va yomoni tushunadilar**, biroq mustakil e'tikodga, barkaror yO'qsak xis – tuyguga ega emasliklari sababli «orka kanot» da turib koidani buzadilar. Bu turdagilar kupincha kilmishlariga tavba kiladilar, suz beradilar, lekin ma'lum fursat utgandan sung bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruxga mansub tarbiyasi kiyin **o'smirlar shaxsiyatparastlik** tufayli konunbuzarlik, tartibbuzarlik yuliga kirib koladilar.

Turtinchi guruxga **injik tabiatli o'smirlar** kiradi. Ular sinf jamoasida uz urnilarini topa olmaganidan kayguradilar. Bunday O'quvchilar ginaxon, arazchi buladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar.

Tarbiyasi kiyin o'smirlarning xatti-xarakatlarini ijobiy yunalishga burib yuborish uchun ularda ma'suliyat, gurur, javobgarlik, ishonch kabi yO'qsak xislarni tarkib toptirish lozim. Ularga mos topshiriklar berish, ma'suliyat xissini shakllantirish orkali ijobiy fazilatlar paydo kilish mumkin.

O'smirlikdan keyingi navbatdagi boskichni uspirinlik davri deb bir boskich xisoblashimiz xam mumkin, lekin hozirgi kupchilik psixologlar klassifikatsiyasi buyicha ikki boskichga ajratishimiz xam mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi boskichni o'smirlik, keyingisi ilk uspirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardi—da 14 yoshdan 21 yoshgacha bulgan davrlarni kamrab olar edi. Xozir kupchilik psixologlar 15–18 yoshni kamrab oladigan davrni ilk uspirinlik deb atashni ma'kul kurmokdalar, bu umumta'lim maktabining 8–9 sinfi-dan boshlab, kasb–xunar kolleji va litseylarining 1–2–sinflariga, ya'ni 8–10 sinf yoshiga tugri keladi. Bu davrda O'quvchi jismonan bakuvvat, O'qishni tugatgach mustakil mexnat kila oladigan, oliy maktabda uzini sinab kuradigan imkoniyatga ega buladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mexnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil axamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy xayotda faol katnashish, ta'lim xarakterining uzgarishi, yigit va kizlarda ilmiy dunyokarash, barkaror e'tikodning shakllanishiga, yO'qsak insoniy xis–tuyguning vujudga kelishiga, bilimni uzlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi.

O'spirinlik davrining asosiy xususiyatlari shaxs kamolotiga qanday ta'sir qiladi?

Xayotda uz urnini topishga intilish kasb – xunar urganish, ixtisoslikni tanlash, istikbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bulishni keltirib chikaradi. Birok bu davr kuch-gayrat, shijoat, kaxramonlik kursatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bulish bilan boshka yosh davrlaridan keskin farklanadi.

Ilk uspirinning psixik rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni kuyadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot urtasidagi ziddiyatlardir. Turli karama–karshiliklar, ziddiyatlar uspirinning axlokiy, aqliy, estetik jixatdan tez usishi orkali bartaraf kilinadi.

Ilk uspirinlik yoshidagi etakchi omil yuqori sinf O'quvchisi faoliyatining xususiyati, moxiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O'spirinlarda avvalo uzini anglashdagi siljish yakkol kuzga tashlanadi. Bu xol

shunchaki usishni bildirmaydi. Uspirinda uzi-ning ruxiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, kobiliyati xamda imkoniyatini aniklashga intilish kuchayadi. Bu yoshdagi O'quvchilarning uzini anglashga alokador xususiyatlari mavjud. Ular avval, uzlarining kuchli va zaif jixatlarini, yutO'q va kamchi-liklarini, munosib va nomunosib kiliklarini anikrok baxolash imkoniyatiga ega buladilar. O'spirin o'smirga karaganda uz ma'na-viyati va ruxiyatining xususiyatlarini tularok tasavvur eta olsa xam, ularni okilona baxolashda kamchiliklarga yul kuyadi. Natijada u uz xususiyatlariga ortikcha baxo berib, manmanlik, takabburlik, kibr-lanish illatiga duchor buladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga gayritabiiy munosabatda bula boshlaydi. SHuningdek, ayrim uspirinlar uz xatti-xarakatlari, aqliy imkoniyatlari va kizikishlariga past baxo beradilar va uzlarini kamtarona tutishga intiladilar. O'smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat-murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, uz kadr-kimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, uspirin yigit va kiz sezgirlik deganda nozik, nafis xolatlarining farkiga borish, zaruratni anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. Uspirin uzining ezgu niyatini baxolashda jamoada uz urnini belgilash nO'qtai – nazaridan yondoshadi, chunonchi, «uzim tan-lagan mutaxassislikka yaroklimanmi?», «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bula olamanmi?», «Jamiyatning tarakkiyotiga uz ulushimni kusha olamanmi?» degan savollarga javob kidiradi. O'quvchida uzining fazilati tugrisida yakkol tasavvur xosil kilish uchun O'qituvchi unga juda ustalik, ziyraqlik bilan yordam berishi lozim. SHundagina jamoada ustozga, dustlariga chuqur xurmat, minnatdorchilik tuygulari uygonadi.

O'spirin O'quvchida uzini anglash zamirida uz-uzini tarbiyalash istagi tugiladi va bu ishning yullarini topish, ularni kundalik turmushga tadbik kilish extiyoji vujudga keladi. Uzlariga ma'kul ma'naviy – psixologik kiyofaga ega bulish uchun okilona ulcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mO'qammal timsol, namuna, yO'qsak orzu tasvirini kidiradilar.

O'spirinda ideallar bir necha kurinishda namoyon bulishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular tanikli kishilarning kiyofalari, badiiy asar kaxramonlari timsolida uzlarida yO'qsak fazilatlarini gavdalandirishni orzu kiladilar. Bu orzular mazmun jixatidan uspirin yigitlar va kizlarda fark kilishi mumkin. Masalan, kizlar kupincha mexnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar kaxramonining xususiyatlari mujassamlashgan kiyofalarini ideal darajaga kutaradilar. Ammo ayrim O'quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, bakuvvat yultusar, xiylagar kuv josus va boshkalarining salbiy sifatlariga taqlid kilishga xam moyil buladilar.

Kuzatishlar va xayot tajribalarining kursatishicha, ba'zi xollarda ilk uspirinlar uzlarini kurkmas, jasur kilib kursatishga, nourin xarakatlarga moyil buladilar.

Ilk o'spirinlar ma'naviy xislatlarga, axlokiy mezonlar moxiyatiga jiddiy munosabatda buladilar. Masalan, burch, vijdon, gurur, kadr-kimmat, faxrlanish, ma'suliyat, or-nomus kabi tushuncha-larni chO'qur taxlil kila oladilar. Lekin xammalari emas. Axlokiy ma'naviy karashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar soglom muxit yaratish, barkaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta uylab tashkil kilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy xayotda uchraydigan yaramas

yurish – turishlarga, il-latlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muxim vazifasi xisoblanadi. Uspirinlarda balogatga etish tuygusi takomillashib borib uzining urnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuygusiga aylanadi. Bu xol uning uzini aloxida shaxs ekanligi, uziga xos xislatini tan olinishini istashida aks etadi.

Bu yoshda shaxs sifatleri shakllanishida maktab muxiti, ayniksa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengkurlar kuchli ta'sir etadi. Maktab va sinf jamoalari ta'sirida matonatlik, jasurlik, sabr-tokatlik, kamtarlik, intizomlilik, xalollik, xamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, lokaydlik, munofiklik, laganbardorlik, dangasalik, gayirlik singari illatlarning barxam topishi tezlashadi.

O'spirin xar bir ishda etakchi, birinchi bulish istagi bilan yashaydi. Lekin xar doim xam uddasidan chika olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun uspirin kuyidagi xislatlarga ega bulishi kerak.

a) axlokiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbus-korlik, faollik, mexnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, kat'iyat, mustakillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchakchaqlik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, uz kuchiga ishonch, optimizm va boshkalar.

O'spirinlarda mavjud bulgan yana bir muxim xislat ularda yuksak darajadagi dustlik, urtoklik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. SHu sifatarning kay darajada shakllanganligi tarbiya-viy ta'sir utkazish mezoni xisoblanadi.

O'spirin O'quvchilarda tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijti-moiy xayot guzalliklarini paykash, idrok kilish, sevish, ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozO'qa olish xislatlari paydo buladi. Ular-ning psixologiyasida mayin sado, yokimli nido, kalbni tulkin-lantiradigan musika, nozik xis-tuygu, ezgulik xislari, mayllari kuchayadi. Ayniksa, estetik xislar ularning ma'naviyatidagi kupol, noxush, xunuk va yokimsiz kiliklarning yo'qolishiga yordam beradi. SHunga karamay uspirin yigit va kizlar orasida estetik tuygusi tula shakllanmagan, notugri tasavvurga ega bulgan shaxslar xam uchraydi.

O'spirin O'quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan xar kaysi fanning inson dunyokarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy axamiyatiga, amaliy xususiyatiga, uzlashtirish imkoniyatiga va uni O'qitish metodikasiga boglik buladi.

O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantikiy xotira, eslab kolishning yul va vositalari ta'lim jarayonida etakchi rol uynay boshlaydi. Uspirinlar topshiriklarni bajarishda, ularning ma'nosi xamda moxiyatini tula anglab ish tutadilar, eslab kolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar.

O'spirin barcha faoliyat boskichida mustakil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf kilishda dars jarayoni katta imkoniyatlarga ega. Darsda O'quv materialini bayon kilishda mazmuni ixcham, mantikiy boglangan bulishini ta'minlash, O'quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab olingan koidalardan iborat bulib kolmay, uning «uz suzi bilan» izoxlanishini talab kilinishi kerak. Tinglangan yoki O'qilgan materialda mustakil xulosa chikarishni talab kiladigan xolatlar bulishiga aloxida e'tibor berilishi kerak.

Ilk uspirinlik yoshidagi O'quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda tugarak va

fakultativ mashgulotlar muxim axamiyatga ega. Uspirin O'quvchining mustakil fikrlashini rivojlantirish uchun O'qituvchilar, sinf raxbarlarining siymolari muxim rol uynaydi. Buning uchun birinchidan, O'qituvchilar uspirinlarda urganilayotgan narsa va xodisalarning ob'ektivligi, xakkoniyligi, tugriligiga ishonch xosil kilishlari, ulardan kanoatlanishlari va ularni isbotlashga urgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan O'qituvchilari ularni narsa xodisalar tugrisida original fikr yuritishga yullashlari kerak. Uchinchidan, O'quvchilarning mashgulotlarda kullanaverib ma'naviy eskirgan bir kolipdagi suzlardan, iboralardan foydalanishlariga yul kuymas-liklari kerak. Turtinchidan, fan O'qituvchilari uspirin yigit va kizlarga bilimlarini amaliyotga tadbik kilishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga xarakat kilishlari lozim.

Tafakkur rivojlanishi bilan birga O'quvchining nutk faoliyati xam usadi. Bu esa O'quvchida uz fikrini tugri, anik ifodalash malakasini tarkib toptiradi. Nutkning tuzilishini takomillash-tiradi va lugat boyligini yanada oshiradi.

Uspirin adabiy asarlarni O'qish va tushunish orkali mustakil fikrlashga, muloxaza yuritish va munozaraga urganib boradi.

Katta maktab yoshidagi O'quvchi aqlining tankidiyligida og'machilikka moyillik kuchli buladi. Og'machilikning eng asosiy sabablaridan biri–vokelikning moxiyatini ilmiy jixatdan tugri tushunolmaslikdir. Aqlning va tafakkurning tankidiyligini tarbiyalashda O'qituvchi O'quvchining uziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, muloxaza doirasining kengligiga, nutk kobiliyatiga, shaxsiy nO'qtai-nazariga, O'qishga nisbatan munosabatiga, kizikishining xususiyati va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini kanchalik bulishiga, mavjud O'qish kunikmasi va malaqlariga aloxida e'tibor berishi lozim.

Aql tankidiyligining rivojlanishi yuqori sinf O'quvchilari moddiy dunyoni, atrof–muxitni urganishga, O'quv materiallarini puxta uzlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollik da'vat etadi.

Ilk uspirinlik tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustakilligi, samaradorligi, tezligi tashkil kiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, uspirin ongida tevarak atrofdagi vokelik buyicha muloxazalar, muxokamalar va tushunchalar kanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy konunlari, xossalari, sifatlari uzaro boglanishi va munosabatlari uspirinning fikrlashida tulik aks ettirish tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa uzining mazmundorligi va chuqurligi bilan boglik buladi. Tafakkurning mustakilligi deganda, uspirin tashabbuskorlik bilan uz oldiga vazifalar kuya bilishi va ularni xech kimning yordamisiz okilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda uspirining uz oldiga yangi goya, muammo va vazifalar kuyishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni topishga intilishni anglaymiz. Aqlning pishikligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va kullay olishda eskirgan vositalardan kutulishda namoyon buladi. Agar O'quvchi muayyan vakt ichida ma'lum soxa uchun kimmatli, yangi fikrlarni aytgan bulsa, nazariy va amaliy vazifalarni xal kilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga tulik javob olingan vakt bilan belgilanadi. Uspirin tafakkurining tezligi kator omillarga: birinchida, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustaxkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishiga,

muvakkat boglanishning tezligiga, turli xis-tuygularning mavjudligiga, O'quvchining diqqati va kizikishiga; ikkinchidan, uspirinning bilim saviyasiga, kobilyatiga, egallagan kunikma va malakalariga boglikdir. Uspirin kobilyati,layokati va iste'dodi ta'lim jarayonida va mexnat faoliyatida rivojlanadi. Uning kanchalik iste'dodli ekanligini aniklash uchun ziyraqligi, jiddiy sinovga shayligi, mexnatga moyilligi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashning tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Kobilyatning usishi, bilimlar, kunikmalar, malakalarning sifatiga boglik bulib, shaxsning kamol topish jarayoniga kushilib ketadi.

Uspirinlar biror xodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muxim xususiyatlariga, birlamchi jixatlariga sinchkovlik bilan karay boshlaydilar. Darsliklardan O'qigan va O'qituvchidan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarga ishonish va ulardan kanoat xosil kilish uchun faol xarakat kiladilar. Tafakkurni okilona yullar bilan ustirish uchun favkulodda xolatlarda O'quvchining mazkur xususiyatini yomonlamay, balki uni ragbat-lantirish tugrirok buladi.

SHunday kilib ta'lim jarayonida turli fanlarni O'qitish tufayli keng kulamli bilimlar tizimi uzlashtirilishi orkali yO'qori sinf O'quvchilarida tafakkurning faolligi, mustakilligi, mazmundorligi, maxsuldorligi ortadi.

Endigina usib kelayotgan uspirin O'quvchilar kasbga kandy yondoshadilar? Bu muammo kupchilikni kiziktiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk uspirinlik yoshidagi ugil-kizlar xayotda mustakil kadam tashlash tugrisida anik asosli fikr bildirishga kiynaladilar. SHu sababli kasb tanlash davrida okilona va tugri yul tutishni bilmay dovdirab koladilar yoki tavak-kaliga ish kuradilar. Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, jiddiy –ijtimoiy sustlik xolatlari vujudga keladi.

O'quvchilar maktabda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, xar kaysi uspirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Birok ularning xammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xoxlayvermaydi. Maktabda er kurrasini urganiladi, biroq barcha O'quvchilar sayyox bulishni istamaydi.

Katta yoshdagi maktab O'quvchilaridan biror O'quv faniga ishtiyok natijasida ularga xar – xil kasblarga kizikish vujudga keladi.

YUqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilish-lari, qobilyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga tugri yunaltirish uspirinlar uchun katta xayotiy masaladir. O'spirinlarga O'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, uz kasbining ustalari, murab-biylar aloxida e'tibor berishlari kerak.

O'rta maktabni bitirgunicha xamma O'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb – xunarga xar-xil munosbatlar xosil bulishining asosiy sababi maktabda O'qish davrida kasb tanlash buyicha turli xil niyatlar paydo bulishidir.

V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni aloxida ifodalaydi:

a) biror O'quv faniga kizikish; b) vatanga foyda keltirish istagi (uziga xos psixologik xususiyatini xisobga olmagan xolda); v) shaxsiy kobilyatini ro'kach kilish; g)oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) dustlari va urtoklariga ergashish; e) ish joyi yoki O'quv yurtining uyiga yakinligi; yo) moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani; j) O'quv yurti kurinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

SHuningdek boshka turdagi motivlar masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maksadi, unga intilishi, kasb tugrisidagi ma'lumoti, uzining sixat salomatligi,

asab tizimining va temperamentining xususiyati va xokazolar xam bulishi mumkin.

O'spirinlarda kasblar xakida yakkol tasavvur bulmasligi sababli ular kuprok xatoga yul kuyadilar. Uz kobiliyatlarini okilona baxolay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun kanchalik tez va anik xarakat kila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Birok xozir mazkur kungilsiz xolatlarining oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun kuyidagi pedagogik–psixologik omillarga aloxida e'tibor berish maksadga muvofikdir:

- 1) Kasblarni urganish usullarini ishlab chikish, ularni tasniflash va lunda kilib ifodalash.
- 2) O'qituvchining kasblar buyicha tashvikot ishlarini olib borishi.
- 3) O'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish.
- 4) Mexnat ta'limi darslarida yuqori sinf O'quvchilarini kasbga tayyorlash va kizikish uygotish.
- 5) Psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tadbik kilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chikish.
- 6) Joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish.
- 7) Kasb tanlash targ'iboti yuzasidan uspirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb kilish va psixologik tayyorlash.

Tadkikotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yunaltirishning usul va vositalari ishlab chikilgan. E. A. Klimov kasbga yo'naltirish uchun kasb turlarini «inson-tabiati», «inson-texnika», «inson-inson», «inson-badiiy obraz» singari komplekslarni tavsiya qiladi.

Kasb tanlashga yullash va kasblarni targib kilish usullaridan yana biri – kursatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar kurgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulidan, nakkoshlik va texnika tugaragi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashkari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orkali xam ayrim kasblarga kizikish uygotish mumkin.

Mexnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yunaltirishning boshkacha usullarini: barcha fanlarni O'qitishning politexnik jixatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofdagi ishlab chikarishdan ob'yekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni O'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llab O'quvchilarning kasbga kizikishini oshirishni; mexnatga ishtiyok uyg'otishni; darslarda kasblar xakida axborotlar berib borishni; mexnat soxalari bilan O'quvchilarning mustakil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmokdalar.

Qishloq maktablarida kasb tanlash bo'yicha imkoniyatlar xam mavjud. CHunonchi yozda yO'qori sinf O'quvchilarini ishlab chikarishga bermalol jalb etish mumkin. Bunda jismoniy mexnatga uspirinlarni kiziktirish, mexnat natijasidan baxramand etish, ularda mamnuniyat xissini tarkib toptirish, ularda rejali mexnat kilish kunikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va ma'suliyat xissini tarkib toptirish lozim.

Kasb tanlashda uspirin yigit kizlarda kator maksadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad – bosh maksad deb ataladi va umumxalk mexnatiga uz ulushimni kusha olamanmi?, kanday inson bulib etishaman? xayot va faoliyat ideallari nimalar bulishi lozim? degan fikrlardan iborat buladi. Bundan tashkari yakin va yakkol maksadlar xam mavjud.

Ilk o'spirinlik yoshida inson uchun eng muxim xissiyot – sevgi vujudga keladi. U o'rtoqlik, do'stlik tuygulari zamirida paydo buladi.

O'spirinlik davrida vujudga keladigan xis – tuygularni tugri idora etish, yigit va kizlarga sevgi munosabatlarining nakadar nozikligini bulajak oilaning baxti xakidagi tushunchalarni tugri anglatish yaxshi natija beradi.

O'qituvchilar va ota – onalar uspirin yigit va kizlarga sevgining ikki turi – shaxvoniy tuygu zamirida vujudga keladigan bekaror sevgi va chinakam dustlik, insoniy munosabatlar asosida paydo buladigan xakikiy sevgi borligini tushuntirishlari lozim.

O'spirinlarni turmush kurishga tayyorlashda maktab bilan oilaning xamkorligi muvaffakiyat garovi xisoblanadi. Uspirin-larga oila kurish xakida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadokat bulishi keraqligini O'qtirish bilan birga ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bulgan kiyinchiliklardan xam ogoxlantirish kerak

Mustaqil ta'lim

- 1) O'smirlik yoshida paydo bulgan asosiy anatomik va fiziologik uzgarishlar nimali
- 2) O'smirlik yoshidan paydo bulgan eng muxim psixologi uzgarishli
- 3) Ilk o'spirinlik yoshida shaxs xususiyatlarining shakllanishi
- 4) O'spirinlarga kasb xaqida, turmush xaqida ma'lumotlar berishning psixologik muammolari

Keyslar banki

Keys 1. Erkin «onasini bolasi» deb ataladigan bolalardan biri. Uning onasi garchi faqat o'g'li bilan shug'ullanishi kerak bo'lsa-da, u har qanday sabab bilan goh direktorga, goh o'qituvchilarga, goh sinfdoshlarning ota-onalariga murojat qilishni afzal ko'rdi. Natijada, Erkin 15 yoshga to'lgan bo'lishiga qaramay, har qanday arzimas sabab bilan onasiga murojat qilish odobsizlik ekanligini tushunmadi va u umuman xaqiqiy hayotga moslashmadi. U o'zini o'zi himoya qila olmaydigan, oddiy vaziyatlardan ham chiqib keta olmaydigan darajaga etdi.

Odatdagidek, ziddiyatlarning hamma sabablari quyidagilarga taqalardi: «meni turtishdi», «meni masxara qilishdi», «meni chaqirishmadi» va sh .k.

Mehmonga buva va buvisi kelishdi, ular chet elda yashardilar shuning uchun ham 8 yil mobaynida nabirasini ko'rishmagan edi. Buvasi sobiq xarbiy edi, u hafta davomida Erkin va kelin xulqini kuzatdi.

YAnagi holatdan keyin buva nabirasi bilan yolg'iz gaplashishga qaror qildi.

- Men sen bilan nafaqat bu holat xaqida, balki butun hayoting to'g'risida gaplashmoqchiman. Sen endi 15 yoshdasan va buni tushunishing kerak: qanday vaziyatda onasini yordamga chaqirish va uning maslahatini olish lozim; qanday vaziyatda onasini o'z shaxsiy ishlariga aralastirmaslik lozim. Mana qara, qanday xudbinsan: oyingni ko'zi yoshlanishigacha tashvishlantirding, umuman olganda bu ishni o'zing ham hal qilishing mumkin edi.

YAna bir gap. O'zing tushunasan, hamma payt ham oying yoningda bo'lmaydi va sen o'zingni himoya qila olishing kerak, o'tmish va kelajakni tahlil qila bilishing shart. Mana bugun, agar sen o'zingni xaq deb bilsang, nega unda o'qituvchidan bahoni pasaytirgani sababini so'ramading? Sen bo'lsang oyingni ovora qilib, o'qituvchidan shikoyat qilding. Axir sen kap-katta yigitsan, har qanday iltimosingni, noroziligingni,

savolingni o'zing aytishing kerak.

hayotda juda qiyin masalalarni hal qilishinga to'g'ri keladi: o'z g'ururing, oilang faxrini himoya qilishing, bezorilarga to'sqinlik qilishing, sevgan qizing nomusini, Vataningni himoya qila bilishing lozim.

Bir hafta oldin oying bilan suhbating davomida sinfdoshlaring bilan ziddiyatli munosabatlaring haqida eshitib qoldim. Sen aytdingki, o'rtog'ing noxaq. Lekin sen bunga qanday e'tibor qilding: tupurding, tirnading va oyinga yugurding... Oying senda o'z himoyachisini ko'rishi kerak. Sen bo'lsang o'zingni yosh boladek tutasan. Kelishib olaylik, agar nimadir bo'lsa, oyingni boshini qotirmaysan, balki men bilan maslahatlashasan. Biz birgalashib o'ylaymiz. SHu yo'l ma'qulmi senga?

YAna bir shart, irodangni o'zing tarbiyala, ya'ni hamma narsani o'zing hal qil va bajar. Fe'lingni tarbiyala! Axir sen urush ofitserining nabirasidan-ku! Agar qiynalsang, senga hamisha yordam beraman! Kelishdikmi?

Qani ovqatga, oying bilan buving bizni kutib qolishdi.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- 1.Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda)
- 2.Ona va o'g'il o'rtasida kelib chiqqan oilaviy munosabatlar turiga xarakteristika bering.
- 3.Ona va buvaning tarbiya ko'rinishi qanday?
- 4.Oilaviy tarbiya qiyinchiligini nimada ko'rasiz?
- 5.Bunda qanday pedagogik kategoriyadan uzoq bo'lish lozim?

Nazorat savollari

- 1.O'smirlik yoshida paydo bulgan asosiy anatomik va fiziologik uzgarishlar nimalardan iborat?
2. O'smirlik yoshidan paydo bulgan eng muxim psixologi uzgarishlar nimalardan iborat?
- 3.O'smirning kurs, dagal muomalali bulib kolishining sababi nima?
- 4.Kiyin tabiatli, «tarbiyasi kiyin» bolalarning paydo bulish sabablari va ular bilan ishlash
- 5.Ilkl uspirinlik va uspirinlik yoshida uziga xos xususiyatlar nimalarda kurinadi?
- 6.Ilkl uspirinlik yoshida shaxs xususiyatlarining shakllanishi nimalarga boglik?
- 7.Uspirinlarning aql-idrok va tafakkur xususiyatlari kaysilar?
- 8.Uspirinlarga kasb xakida, turmush xakida ma'lumotlar berishningpsixologik muammolari nimalardan iborat?

Test savollari

- 1.Akseleratsiya so'zining ma'nosi nima?
A.Jadallashuv B.Usuvchi V.Moslashuvchi D.Kamayuvchi
- 2.Yosh davrlari klassifikatsiyasida uspirinlik davri necha yoshlarni qamrab oladi?

A.17-21 yosh B.12-17 yosh V.13-16 yosh D.18-22 yosh

3. Talaba qizlar guruhi qaysi guruhga kiradi?

A). Real V). SHartli S). Jamoa D). Kichik

4. Tanish va eslash xotiraning qaysi jarayoniga tegishli?

A). Esda qoldirish V). Esda saqlash, unitish
S). Esga tushirish D). Qisqa logik

5. O'quvchilar jamoasida ruxiy muxit qanday omillarga bog'lik?

A). Sinf raxbarining faoliyatiga V). Sinf faoliyatiga
S). Jamoadagi fiziologogik moslikka D). Jamoadagi psixologik moslikka

Mavzu: Talabalar psixologiyasi va o'quv faoliyati.

Reja

1. Talabalarning psixologik xususiyatlari.
2. Talabalar tafakkurining xususiyatlari.
3. Talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini tekshirish.

Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim – tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko'proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarning mahoratiga bog'liqdir. Shuning uchun o'qitishning yangi ilg'or, faol usullarini qo'llash, oqilona vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim – tarbiya jarayonini samarali malga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzloqsiz ta'sir o'tkazish hO'qm surishi lozim.

O'qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyati negizida o'quv – tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi yotadi. Bu muammo oliy maktab psixologiyasida juda kam tadqiq qilingani sababli xuddi ana shu muammo yuzasidan kengroq mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning psixologik xususiyatlari

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'i nazar) muloqotga kirishishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etO'qlikning jadal sur'at bilan ro'yobga chiqishidir. Ma'lumki, ijtimoiy etO'qlik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashda (oilalar qurishga), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga (mas'ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatkichlari o'rta ma'lumotlilik, jamoatchilik topshirig'i, mehnatda faollik ko'rsatish, qonunlar oldida javobgarlik,

mutaxassis bo‘lish imkoniyati, unga intilish tuyg‘usi, irodaviy zo‘r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o‘tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug‘ullanish, bo‘sh vaqtni tashkil eta olish, to‘garakda qatnashish va hokazolardan iboratdir.

Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17 – 22 – 25 yoshni o‘z ichiga oladi va o‘zining qator betakror xususiyatlari va qarama – qarshiliklari bilan xarakterlanadi. SHu boisdan o‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o‘spirinlik o‘ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning harxil ko‘rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat’i nazar) rollarini tez suratlar bilan bajarib ko‘rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko‘nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o‘tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog‘liq ichki qarama – qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik psixologiya fanida ma‘lumki, o‘rta maktab o‘quvchilarni har (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) jihatdan oliy maktab ta‘limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavxumlashtirish, sistemelashtirish kabi qobiliyatlarda ko‘rinadigan fazilatlar namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga o‘spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g‘oyaviy – siyosiy jihatdan muayyan darajada o‘shish ro‘y beradi. SHunga qaramay, ular oldida oliy o‘quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog‘liq yangi vazifalar paydo bo‘ladi. Xozirgi fan – texnikaning rivoji bir tomondan axborotlarni, ma‘lumotlarni ko‘paytirsada, ikkinchi tomondan talabalarda mutaxassislikka oid bilimlarga barqaror qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi, chunki qat’iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo‘r berish o‘rnini loqaydlik, faoliyatsizlik egallaydi. Boshqacha aytganda, ular “tayyor axborotlarning quli” ga aylanadilar. CHunki komyuter, displey, EHM, kalkulyatorlar inson aqliy mehnatini engillashtiradi, ularni aqliy zo‘r berishdan xalos qiladi. Ana shular sababli oliy o‘quv yurti ta‘limi oldidagi muhim vazifa talabalarga dasturdagi bilimlar majmuasini berishdir.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini o‘zi tashkil qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqarish va xokazolarni o‘rgatiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili – monologik ma‘ruzadan dialogik (talaba va o‘qituvchining muloqotiga asoslangan) leksiyaga o‘tishdir.

Psixologlardan B. G. Ananov, N. V. Kuzmina, N. F. Talizina, V. YA. Lyaudis, I.S. Kon, V. T. Lisovskiy, A. A. Bodalev, A. V. Petrovskiy, M. G. Davletshin, I. I. Ilyasov, A. V. Dmitrieva, Z. F. Esareva, A. A. Verbitskiy, V. A. Tokareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra, oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olish talabalar uchun juda og‘ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini, xislatlarini, sifatlarini takomillashish bosqichi bo‘ladi. Mazkur yosh davrdagi ijtimoiy – psixologik o‘shishning xususiyatlaridan biri o‘qish faoliyatining ongli motivlarini kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o‘shishi sust amalga oshsa–da, lekin xulqning eng muxim

sifatlari – mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. SHuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. SHaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta – sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining haq – huquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatlarning yangicha ko'rinishini urnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amlda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi romantik his – tuyg'ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha xalaqit beradi. CHunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy – psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar.

YOsh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, talaba 17 – 19 yoshda ham o'z hulqi va bilish qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra hulq motivlarini asoslanmagani, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi hollar ro'y beradi. V. T. Lsovskiyning fikricha, 19 – 20 yoshlarda ayrim salbiy xatti – harakatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgari ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o'ynaydi, chunki talaba shu tajriba etishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuboradi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini – o'zi kamolotga etkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini – o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yo'qsak, barqaror, barkamol) “men”ni real (aniq voqea) “men” bilan taqqoslash orqali o'zini – o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabaning nuqtai nazaricha, ideal “men” ham muayyan mezon asosida etarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, g'ayritabiiy his etilishi muqarrar, binobarin, real “Men” ham shaxsning haqiqiy bahosidan ancha yiroqdir, talaba shaxsining takomillashuvida bunday ob'ektiv qaramam – qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan. O'quv yili boshida talabada kqtarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq – shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart – sharoiti, mazmuni, mohiyatida keskin tushkunlikka ro'y beradi. YUqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his – tuyg'ular namoyon bo'ladi. Bizningcha, oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur

davrning muhim sharoitlaridan biridir.

YUqorida aytilganlardan qat'i nazar, yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql – zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch bildiradi. Ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his – tuyg'usini vujudga keltiradi.

O'spirinlikning ikkinchi davri hulqqa, voqelikka baho berishda imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iylik xususiyati bilan farqlanadi. SHuning uchun talabalar har doim prinsipial bo'la olmaydilar. Ba'zan qat'iyatlilik kattalarga salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o'qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi ko'pincha nizolarni keltirib chiqaradi.

B. G. Ananev raxbarligida o'tkazilgan ilmiy – tadqiqot ishlarida ma'lum bo'lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermahsul o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart – sharoit yaratadi.

YU. A. Samarinning ta'kidlashishicha, yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy – psixologik xususiyatli o'ziga xos qarama – qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jihatdan ota – onaga, oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bog'liqligi iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu hol talabalarning xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibliigi tufayli sodir bo'ladi.

Odatda talabalar 2 va 3 kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni nima uchun tanlangani haqida yana jiddiy o'ylaydilar.

Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his – tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba hO'qm va xulosa chiqargach, o'z xatti – harakatida qat'iy turib ularni himoya qiladi, u hayotning turli sohalari bo'yicha har xil darajagi ko'nikma va malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy – psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B. G. Ananev rahbarligidagi tadqiqotchilar jamoasining fikricha, 18 – 20 yosh pallasida fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi. Organizmning tashqi ta'sirga javobi, qon bosimining optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to'yinadi va xokazo. Insonda uquvlilikning qulay imkoniyati vujudga keladi. Uquv insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatini bildiradi. Keyinchalik insonda psixik funksiyalarning dinamikasi, uquvlilik imkoniyatlari sira pasaymaydi. Odamlarning yetuklik davri quyidagi qonuniyatlar bilan farqlanadi: 1) turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi (bir bosqichda xotira, boshqa bir bosqichda tafakkur); jadal sur'at bilan o'sadi; 2) yoshga qarab turli funksiyalar o'zaro bog'liq muvofiqlashgan xususiyat kashf eta boshlaydi; 3) yetuk inson aqlining funksional o'sish darajasi yosh evolyusiyasining har xil bosqiyada yetarli

darajada yuqori bo‘ladi; 4) mazkur funksiyalar dinamikasida hech qanday keskin pasayish bo‘lmaydi; 5) yetuklik davrida uquvlilik kamaymaydi

Talabalar tafakkurining xususiyatlari

Talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan yetuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko‘tariladi. Ammo ilk o‘spirinlik (16 – 17yoshli)ning ayrim bolalarga xos hulq – atvorning tashqi ifodalari, romantikasi ma’lum davrgacha o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Oliy maktabdagi dastlabki sinov (birinchi sessiya) davridayoq talaba turmush faqat romantikadan iborat emasligiga, balki izlanish, irodaviy zo‘r berish, aqliy mehnat zahmati orqali ezgu niyatga etishish mumkinligiga iqror bo‘ladi. Favquloddagi taasurotlardan, ijtimoiy sinovdan keyin o‘qishga, turmushga, insonlarga nisbatan munosabati jiddiy ravishda o‘zgaradi, narsa va hodisalarga, ijtimoiy holatlarga voyaga etgan katta kishilardek muomala qilish, voqelikni to‘g‘ri, oqilona (adekvat) aks ettirishga, tushunib etishga harakat qiladi.

YUqori sinf o‘quvchisi davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mustaqillik, teranli, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiy sifatlari kun sayin takomillashib, yangi – yangi belgi va alomatlar bilan boyib boradi. Talabalarda o‘z – o‘zini nazorat qilish, o‘z – o‘zini baholash, o‘z – o‘zini anglash, o‘z – o‘zini boshqarish kabi aql – zakovatning muhim jiqatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko‘tariladi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishida, ilmiy dunyoqarashning umumta’limiy va ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya asoslari, madaniyatshunoslik, adabiyot, etik, estetika, psixologiya, pedagogika kabi o‘quv predmetlari muhim rol o‘ynaydi. Talabalar tafakkuri, asosan, o‘qish, amaliy mashg‘ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzlo‘qsiz ravishda rivojlanadi. Goho ma’ruza jarayoni ulardan reproduktiv (o‘zlashtirilgan bilimlarga asoslanuvchi) tafakkurni taqozo etsa ham, lekin seminar mashg‘ulotlari, mustaqil topshiriqlar, laboratoriya praktikumi produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta’lim shakli ham talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo‘naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi.

Oliy maktabda mustaqil ishlarning barchasi: konspekt tuzish, referat, annotatsiya, tezis, seminarga hozirlik, kurs va diplom ishlari talabadan mustaqillikni, ijodiy yondashishni, (kreativlikni) muammoli holatni, murakkab pedagogik holatni, murakkab pedagogik vaziyatni hal qilishni taqozo qiladi. Davlat o‘quv rejasida ko‘rsatilgan, dasturda ko‘zda tutilgan materiallar a ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilim – saviyani kengaytirish bilan qanoat hosil qilmasdan, balki ularni tushunish, anglab etishni talab qiladi, bu esa bevosita tafakkurning funksiyasidir. Xotira bisotidagi bilimlarni izchil ravishda tartibga keltirish, esga tushirish, ular ichidan eng muhim jihatlarni ajtatish, o‘zaro taqqoslash, turkumlarga kiritish, umumlashtirish bilish jarayonining aqliy yo‘li bilan, ya’ni tafakkur yordamida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy – falsafiy kurslarni o‘rganish davomida moddiy borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi murakkab ichki bog‘lanishlar, aloqalar va ijtimoiy turmush

qonuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy – uslubiy xususiyatdagi bilimlar o‘zlashtiriladi. Ayniqsa ushbu davrda diskursiv (ijodiyot va haqiqat mezoni uchun bahsda yuzaga keluvchi) tafakkur turi talaba uchun omilkor aql – zakovat quroli vazifasini bajaradi.

Ta’lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) ning funksional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish uchun barcha intellektual rezervlarini (aqliy zahiralari) ishga solishga harakat qiladilar. Hukm chiqarishning barcha (yakka, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor) ko‘rinishlardan o‘quv va mustaqil bilim olishfaoliyatlarda foydalanish shart – sharoitlari tug‘iladi. Xulosa chiqarishning induktiv (xususiydan umumiyga fikrning yo‘nalganligi) va deduktiv (umumiydan hususiy hollarga fikrning qaratilganligi) yo‘llaridan muayyan tarzda bilish faoliyatida qo‘llashga intiladilar. Tushunchalar (yakka, umumiy, xususiy, yaqqol, mavhum, to‘planma) mohiyatini anglagan holda ma’lumotlarni egallash bilimlarni barqarorligini ta’minlaydi. Bu narsalarning barchasi tafakkurni rivojlantirishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Oliy ta’lim uzloqsiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdir. Har bir ma’ruza, seminar mashg‘uloti, mustaqil topshiriqlar, hatto laboratoriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatning tarkibiy qismlaridan tuzilgan bo‘ladi. Ularni hal qilish (echish, bajarish) ijodiy izlanishni vujudga keltiradi. Chunki muammoli holatgacha davr, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham talabadan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatini taqozo etadi. Topshiriqni mustaqil bajarish talabalardan tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, taqqoslash, solishtirish, yaqqollash, mavhumlashtirish, guruhlash, turkumlash, umumlashtirish, sistemalashtirish) va shakllaridan (tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan) foydalanishni talab qiladi.

Talabalarni o‘quv faoliyati yoki ta’limiy usullar bilan tanishtirish tafakkur rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan tushunchalarga (holatlarga) turli nuqtai nazardan qarash usulini talabalarda tarkib toptirish va uni sharoitga (vaziyatga) ko‘chirishga o‘rgatish yuqori ko‘rsatkichlar beradi. SHuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, odatda usullarning ko‘chishini “birdaniga”, asta – sekin, “buzib – tuzatib”, qayta qurish, tarkibini yangidan tuzish, ko‘rgazmali materialdan matnli (mantiqiy) materialga o‘tishi kabi ko‘rinishlari mavjuddir. Talabalarda o‘quv faoliyatning usulini tarkib toptirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Xotira tushunchasini turli nuqtai nazardan qarash mumkin, chunonchi, u bilish jarayoni, produktiv yoki reproduktiv mnemik (lot. – xotira) faoliyat, amaliyotga zarur bilimlar majmuasi, xotira – bu ko‘nikma, malaka va odatlar yig‘indisi; umumlashgan obrazlar to‘plami, grammatik termin, fenominal xotiralilik shaxs sifatida tariqasida va

hokazo.

O'quv faoliyatining ushbu usulini mustaqil topshiriq bajarishga, ya'ni "Tafakkur" tushunchasiga ko'chirish imkoniyati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: tafakkur – bu bilish jarayoni, fikr yuritish faoliyati, prognoz qilish, anglashilgan bilimdar, muloqot negizi, grammatik termin, aql sifati, zehni o'tkirlik, shaxs sifati kabi tasavvur qilish mumkinligini ta'kidlab o'tiladi.

YUqoridagi mulohazalarga qaramasdan, talabalar tafakkurida sub'ektiv – shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan zaif jihatlar mavjuddir. Fikr yuritish faoliyatini nazorat qilishda qator kamchiliklarga yo'l qo'yiladi, masalan, faoliyat natijasini tekshirish sifatidagina qo'llaniladi. Ularning aqliy faoliyatida xatti – harakat yoki bilim sifatini baholash va o'z – o'zini baholashda ham voqelikni oqilona, to'g'ri aks ettirish jarayonida illatlar ko'zga tashlanadi. Narsa va hodisalar xususiyati yoki qonuniyati ko'pincha orttirib baholanadi, ba'zan pasaytirib baholash hollari ham namoyon bo'ladi. Ahyon – ahyonda bo'lsa – da, to'g'ri, oqil, haqiqatan aniq baholash o'rtasidagi munosabat mutanosiblikka, o'zaro uyg'unlikka ega emas, shu tufayli imkoniyat (aqliy zahira) bilan havoiiy orzular orasida ziddiyat vujudga keladi, natijada oqillik o'rnini g'ayirlik egallay boshlaydi. Bunday salbiy hissiy kechinmaning, shaxs illatining oldini olish va mutlaqo bartaraf qilish uchun maxsus treningdan (to'g'ri etaklovchi mashq – namunalardan) foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Ta'kidlab o'tilgan nuqsonlar, qusurlarga qaramasdan, talabalar tafakkuri ilk o'spirinlik yosh davridan ham sifat, ham mazmun, ham ko'lam jihatidan keskin tafovutlanadi. Bu fikrlar psixologlar tomonidan to'plangan miqdoriy ma'lumotlar bilan allaqachonlar tasdiqlangan. SHunday qilib, muayyan bir sohaning yosh mutaxassis kishisi – talaba yuksak aql – zakovat egasi, uquvli – teran fikrli inson, iymonli, diyonatli shaxs, aniq dunyoqarashga; mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan ziyoli, milliy mafkuraning jonkuyari, targ'ibotchisi sifatida ijtimoiy katta hayotga yo'llanma oladi.

Talaba – o'spirinlik, ilk yoshlik davri o'zining mahsuldorligi, refleksiv (anglashilganlik, ongli rejalashtira olishlik) xususiyati bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan o'ziga xos ravishda ajralib turadi. Talabalik yillari ijodiy izlanishlar, aql – zakovat zahiralari ishga sola bilish, aqliy qobiliyatni safarbar qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxsning etO'qlik davri hisoblanadi. Xullas ushbu yosh davrda tafakkur sermahsul, sermazmun bosqichga ko'tarilib, yaratish, ixtiro, ijod va kashfiyot qilish arafasida turadi.

Talabalar mutaxassislikka xos bo'lgan o'quv predmetlari, fan asoslarini egallash faoliyatida ijodiy mahsulot berish uchun tinimsiz harakat qiladilar. Ularning bilishga, bilim olishga undovchi mayllari turg'un, mustahkam va barqaror qiziqishga aylana boradi, badiiy ijodiyot va ilmiy – tadqiqot bobida dastlabki ezgu – niyatlari, orzularini ushatishga intiladilar. Jumladan filolog yoki jurnalist talabalar badiiy ijod bilan, tabiiy – matematika fan sohasidagilar esa kuzatish va tajriba o'tkazish bilan, tarixchi – arxeolog

talabalar ijtimoiy turmush solnomalarini ochish bilan, psixologlar korxonalar va maktablarga amaliy yordam ko'rsatish bilan shug'ullana boshlaydilar. Hatto talabalar o'zlarining aqliy mehnati mahsullari bilan olimpiada, ilmiy – amaliy anjumanlarda, ixtirochilar va ratsionalizatorlar konkurs – tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnasha oladilar. Bularning barchasi tafakkur yordami bilan chiqariladi, moddiy borliqni yanada aniqroq ifodalash, yaratish faoliyatlarida faol qatnashish uchun intilish, muammoli holat va vaziyatlarni hal qilish (echish) jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, ilmiy chiqishlari, ishlab chiqarishga taqdim qilingan ratsionalizatorlik takliflari xalq xo'jaligini yuksaltirish, mustaqil respublika fan va texnikasini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda. Eng yuksak saviyada tayyorlangan diplom ishlari va loyihalari talabalar ijodiy tafakkurini namunalari hisoblanadi, shu boisdan ularning ilmiylik darajasi yuqori bo'lganlari nomzodlik dissertatsiyasiga taqdim qilinmoqda.

Oliy maktabda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni ishlab chiqarishga, amaliyotga, turmushga tadbiq etish, el o'rtasida yoyish, targ'ib qilish ham talabalik davriga xos xususiyatlaridan biridir. Nazariy va amaliy, ijodiy va diskursiv, fazoviy tafakkur bilan qurollangan talabalar omma o'rtasida ilm – ma'rifatni yoyish ishida faol ishtirok qilmoqdalar.

Talabalar narsa va hodisalar, voqelikni to'g'ri, oqilona, omilkorlik bilan aks ettirish, ijtimoiy hayot talabi va ehtiyojlarini anglash, ongli ravishda fikr yuritish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish imkoniyatiga egadirlar. Ularda ta'lim jarayonida tafakkurning diskursiv va reflektiv sifatlarini shakllantirish ilmiy, ijodiy tafakkurni vujudga keltiradi. Buning uchun ularni mustaqil bilim olish faoliyatini to'g'ri uyushtirish va boshqarishga o'rgatish yuksak samaraning kafolatidir.

Talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini tekshirish

Hozir psixologiyada talaba shaxsini o'rganishning qator usullari ishlab chiqilgan. Quyida ana shularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Psixologiya fanida keng qo'llaniladigan usullardan bittasi quyidagichadir.

Hurmatli talabalar! Sizni ilmiy – tadqiqot faoliyatida ekspert sifatida ishtirok etishingizni so'raymiz, bu ishning asosiy maqsadi talabalar shaxsining ob'ektiv ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

1. Buning uchun talaba shaxsining besh guruhdan iborat quyidagi fazilat, sifat va xislatlariga o'z ahamiyati bo'yicha tegishli tartib nomerlarini qo'yishingizni so'raymiz:
SHaxsning g'oyaviy – siyosiy sifatleri.

Kasbiy – ixtisoslik fazilatleri.

Axloqiy – etik xislatleri.

Tarbiyaviy – pedagogik sifatleri.

Tashkiliy – ishchanlik fazilatleri.

2. Har bir guruhga kiritilgan sifatlarni o‘zingiz muhim bo‘lmagan deb hisoblasangiz, u holda uni o‘chirib tashlang va o‘rniga yoqtirganingizni qo‘shib qo‘ying (1 – 5 jadvallar).

3. Har bir guruhdagi alohida fazilatlarni ahamiyatligiga qarab, uni besh balli shkala bilan baholang:

“5” – talaba shaxsining tizimida mutlaqo zarur deb hisoblaganda qo‘yiladi;

“4” – talaba shaxsining tizimida bu sifat qatnashishi shart;

“3” – mazkur sifat ishtirok etsa ko‘ngildagidek ish bo‘lar edi;

“2” – ushbu sifatning mavjudligi zaruriyatdan tashqari;

“1” – uni e‘tiborsiz qoldirsa.

1 – jadval. SHaxsning g‘oyaviy – siyosiy sifatlari

No		Ball
1	Prinsipiallik	
2	Siyosiy savodxonlik	
3	G‘oyaviy e‘tiqod	
4	Jamoat ishlarida faol qatnashish	
5	O‘z ijtimoiy burchini anglash	
6	Tarbiya muammosi muhimligini tushunish	
7	Ijtimoiy – siyosiy fikrlash ko‘nikmasi	
8	Tashkilotchilik qobiliyati	

2 – jadval. Kasbiy – ixtisoslik sifatlari

No		Ball
1	Ilmiy ish bilan shug‘ullanish	
2	Kasbiy etO‘qlik	
3	O‘qishdagi ijodiy faollik	
4	Mustaqillik	
5	Bilimdonlik	
6	Aqlning tanqidiyligi	
7	Axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish	
8	O‘z fikrini ifodalay olish	
9	Ilmiy – tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmasi	
10	So‘z – mantiq lug‘at boyligi	

3 – jadval. Axloqiy – etnik xislatlar

No		Ball

1	O'ziga talabchanlik	
2	O'zgalarni hurmatlash	
3	Kamtarlik	
4	O'ziga ishonch	
5	Ibolilik	
6	Halollik	
7	Adolatparvarlik	
8	Samimiylik	
9	Beg'arazlik	
10	Ichki madaniyatlilik	
11	Hamdardlik	
12	Vijdonlilik	
13	Jamoatchilik mehnatini ortiqcha baholamaslik	
14	YUmor hissi	
15	Dilkashlik	
16	O'zini kamol toptirishga intilish	
17	Gumanitar bilimlarga chanqoqlik	
18	Zamonaviylik	
19	O'zini tutish	
20	O'zini nazorat qilish	
21	O'z manfaatini hamma narsadan yuqori qo'yimaslik	
22	Axloq qoidalariga rioya qilish	

4– jadval. Tashkiliy ishchanlik sifatleri

№		Ball
1	O'qishda va ilmiy faoliyatda natijalarni qo'lga kiritish	
2	uquvi	
3	Bo'sh vaqtni tashkil qilish uquvchanligi	
4	O'quv faoliyatini tashkil qila olish uquvi	
5	YONDosh kasb – hunar ilmiga qiziqish	
6	Bosh maqsadni ajratish qobiliyati	
7	Jamoadam ijodiy holatni saqlab turish qobiliyati	
8	O'z hamkasblariga g'amxo'rlik	
9	Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati	
10	Tanqidni qabul qila olish qobiliyati	
11	O'z xatosini tuzuta bilish uquvi	
12	YOqtirgan sohasiga butunlay berilib ketish qobiliyati (odati)	

5 – jadval. Tarbiyaviy pedagogik sifatleri

№		Ball
---	--	------

1	Boshqalar bilan o'z bilim va tajribasini o'rtoqlashish	
2	Orqada qolganlarga (o'zlashtirmovchilarga)	
3	ko'maklashish	
4	Haqiqatni dalillash va uni tan olish uquvi; haqiqat oldida	
5	tiz cho'kish odati	
6	O'zgalarni ishontirish qobiliyati	

YUqoridagi topshiriqni bajarishning sifati, ma'nosi va to'liqligini eksperimentchi baholaydi. Barcha savollarga to'liq, ma'noli javob bergan talabalarga yuqori ball beriladi.

Psixologiya fanida shaxsning xarakterini, temperamentini, boshqalarga munosabatini, ular bilan muloqot ko'lamini va jamoadagi rolini o'rgatishning ko'plab usullari mavjud bo'lib, ular to'g'risida keyinroq to'la ma'lumot beramiz. Bizningcha, ularni amaliyotga tatbiq qilish ham oliy maktabdagi ta'lim va tarbiyani yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Talabalarning o'ziga xos psixologik rivojlanishi
2. Talabalarning aqliy intellektini rivojlanishi
3. Talabalarni o'ziga baho berishi

Keyslar banki

Keys Feruza va Ozoda- 2-kurs kollej o'quvchilari. Ularning o'zlashtirishi ham, jamoada tutgan mavqelari ham deyarli bir xil. Uquv yili boshlarida ularning guruhini bo'lib yuborishlari tug'risidagi xabarni eshitganlaridan keyin Feruza juda xursand bo'lib ketdi va nihoyat o'zini hafa qilgan bolalardan qutulishini aytib sevindi. Ozoda esa, aksincha, hafa bo'ldi. U yana o'zi R. va U.lar bilan bir guruhda birga o'qishini aytib nolidi. Bu o'kuvchilar bilan Ozoda ilgari do'st bo'lgan va keyinchalik do'stlikdan voz kechgan.

Biroq guruh tarqatib yuborilgach, Ozoda birinchi kundan boshlaboq barcha bolalar bilan tanishib oldi.

Feruza esa ancha vaqtgacha yangi o'quvchilarga hatto yaqin ham kelolmadi.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- 1. Bu yerda Ozoda bilan Feruzaga xos qanday muloqot xususiyatlari namoyon bo'lgan?
- 2. Bu xususiyatlarni birorta temperament yoki xarakter belgilariga kiritish mumkinmi? Nima uchun?

Nazorat savollari

1. Talabalar deganda qanday guruh tushuniladi?
2. Talabalik bu qanday davrni o'z ichiga oladi?
3. Talabalik davrining asosiy xususiyatlari qaysi?

4. Talabalar tafakkurining rivojlanishida nimalar muhim rol o'ynaydi?

Test savollari

1. Nutqsiz kommunikatsiya bu-

A). So'zlarni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi belgilar sistemasi

V). Til yordamida munosabat qilish jarayoni S). Monolog

D). So'zlarni sistematik ravishda ifoda etish

2. Temperament - so'zi kim tomonidan kiritilgan?

A). I.P. Pavlov V). Aristotel S). Gippokrat D). Dimokrit

3. Guruh deganda nimani tushunasiz?

A). Talabalar guruhi, ishchilar guruhi, oila

V). Muayyan belgi, maqsad, tashkil topish xususiyatiga qarab birlashgan insoniy umumiylik

S). Norasmiy, rasmiy, real, shartli guruhlar bo'ladi

D). Jamoa ham guruhdir

4. Xozirgi zamon ilmiy psixologiyasining prinsiplari kaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

A) Psixika odam turmush tarzi bilan belgilanadi

V). Ong va faoliyat birligi, determinizm, psixika, va onging faoliyatda rivojlanishi

S). Nazariya, amaliyot va eksperiment birligi

D). Psixika taraqqiyot va faoliyat maxsuli

5. SHaxs faolligi manbai qaysi?

A). Instinktlari, V). Anglab etilmagan motivlar, xoxishlar,

S). SHaxs ehtiyojlari, D). SHaxs etiqodi va qiziqishlari

Mavzu: Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari

Reja

1. Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari.

2. Darsni psixologik tahlil qilish.

Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari

Qiyinchiliklarning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zahirida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish uquvining zaifligi yotadi. SHunga o'ra oliy o'quv yurti talabalari ko'pincha o'quv materiallarini o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini ba'zo'r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi imtixon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. SHunga ko'ra oliy o'quv yurtining

asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir. Ma'lumki oliy maktabda mustaqillik va mustaqil o'quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma'lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o'quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etadi.

Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarning o'quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi. SHu bilan birga talabalar oldida o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog'liq muayyan qoidalarga rioya qilib hal etiladigan masalalar ko'riladi: 1) Qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin? 2) Qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi? 3) Ma'ruzada talabaning aqliy faoliyati uchun optimal shart – sharoitlar qanday yaratiladi? 4) Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik natijasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin? 5) talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo. Mazkur fanda ma'ruzaning muhim beshta turi qonuniy ravishda tavsiflangan. Ular axborot beruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, metodik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ma'ruzalar deb ataladi. Ana shu ma'ruzalarning sifatini baholashda quyidagilar hisobga olinadi.

1. Ma'ruzaning mazmuni (g'oyaviy – siyosiy yo'nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya amaliyotning birligi,emperik materiallar ko'lami, bayon qilish shakli va boshqalar).

2. Talabani o'ylashga, bosh qotirishga etaklovchi materiallarning muammoli bayon qilinishi (uning darajalari, jabhalari, jihatlari, davriyligi kabilar).

3. Ma'ruzaning asosiligi (yaqqol dalillar bilan mustahkamlanuvchi nazariy qoidalarning haqqoniyliigi, lo'ndaligi).

4. Ma'ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liqligi (qay darajada, qay shaklda, qay yo'sinda).

5. Ma'ruzaning tizimi (rejaliligi, tartibliligi, yig'inchoqligi, umumlashganligi).

6. Ma'ruza o'qish usuli (ko'rsatmalilik, jonli nutq, his – tuyg'uga boyligi, material bayonining sur'ati, o'rinli to'xtalish, mantiqiy urg'u).

7. O'qituvchining talabaga munosabati (e'tiborligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi).

8. Auditoriya bilan aloqa qilish (bevosita, jonli, yakkama – yakkama, guruhiy, jamoaviy, uzlo'qsiz, ahyon - ahyonda).

9. Talabalarning leksiyadagi davomati (akademik guruhning to'la qatnashuvi, bir oz kamchiligi, umuman kamchiligi).

10. Ma'ruzani konspektlashtirish (ko'pchilik tomonidan, yarmisi, ayrimlari).

11. Lektorlik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, tezisga asoslanib bayon

qilish, ma'ruza konspektidan uzoqlashmay bayon qilish).

12. Maqsadga erishish (ishlab chiqilgan yo'llar, sinalgan vositalar, egallangan usullar, shaxsiy nuqtai nazarni bayon qilish, talabaning mustaqil holda ishlashi uchun imkoniyat yaratish va boshqalar).

Ma'lumki, oliy maktabdagi o'quv tarbiya jarayonida ma'ruza bilan seminar mashg'ulotlari bog'lanish muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg'ulotlari asosan talabalarda tafakkurning tanqidiyligi, mahsuldorligi kabi aqlning zarur tarkibiy qismlari shakllanishiga qaratilgan bo'ladi. Seminar mashg'ulotlarida o'qituvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan talabalarning bilimlarini tekshirish, ularda tafakkurning mustaqilligini, mahsuldorligi va teranligini oshirishi, atrof – muhitga munosabatni shakllantirishi, ularga ilmiy nazariyalar, konsepsiyalar bo'yicha shaxsiy fikrlarini bildirishga o'rgatishi kerak.

Seminar mashg'uloti talabaning o'z o'quv faoliyatini boshqarishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ta'limning turli shakllarida (mustaqil ishlar, to'garak mashg'ulotlari, ilmiy – tadqiqot, leksiya va bahslarda olingan bilimlar yaqqollashadi, tartibga tushadi, yanada chuqurlashadi, mustaqil bilim olish malakalari o'sadi, aqliy mehnat usullari o'zlashadi, og'zaki va yozma nutq takomillashadi).

Oliy maktabda ko'pincha seminar mashg'ulotining ikki turidan foydalaniladi: a) seminar rejasiga kirgan masalalardan har birini alohida keng smuhokama qilish; b) har bir talabaning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'ruzasini tinglash. Bizningcha, seminarining ikkinchi turi keng ko'lamda axborotlar almashishi imkoniyatiga ega. Chunki unda dolzarb muammolar, qonuniyatlar, xususiyatlar bo'yicha mulohaza yuritiladi va tegishli qarorga kelinadi.

Tajribalarda talabalarning seminar mashg'ulotidagi faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Seminar mashg'ulotiga chiqishning muayyan maqsadga yo'nalgan (masalaning qo'yilishi, bo'lg'usi mutaxassislikda nazariy bilimlarni amaliy bilimlarga bog'lash).

2. Talaba ma'ruzasining rejasini: oqilona rejalashtirish, masalani birlamchi va ikkilamchi alomatlariga ajratish, bibliografiyani thg'ri tuzish (nodir, yangi va kasbga oid manbalar tanlangani).

3. Talabaning xulqi: o'rinli baxslashuvi, to'g'ri javobi, materialni chuqur tahlil qilishi, dalilni qayta bayon etishi, o'z nuqtai nazari mavjudligi, ixcham va lo'nda tahlil: ma'ruzaning zerikarliligi, bo'shligi.

4. O'zaro aloqa: talabaning kursdoshlarga tanqidiy, samimiy, e'tirozli munosabati; seminar qatnashchilari bilan tez muloqotga kirishish imkoniyati.

5. Talabaning mashg'ulotini ishonch bilan, mutaxassislarcha yakunlashi, tengdoshlari bilimini boyitishi yoki aksincha; seminarida barcha holatlar va munosabatlarni yozib borishi, unga qarashlarini bildira olishi.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi

psixologik holatlarga e'tibor berish lozim:

1. Matn va birlamchi manbalar bo'yicha muhim va nomuhim belgi hamda alomatlarni ajratish yoki mavhumlashtirish.

2. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarni o'z vaqtida tahlil qilib borish va umumlashtirish.

3. Talaba o'quv materialini idrok qilishi uchun aqliy faoliyatning barcha jabhalari bo'yicha yo'l – yo'riqlar berish.

4. O'qituvchi nutqidan xayolan ilgarilab ketib, uning yakunlovchi fikrini oldindan fahmlay bilish va boshqalar.

SHunday qilib ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bilan oliy maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirish, talabalarga o'zini o'zi boshqarishni o'rgatish mumkin.

Leksiyaning metodik ishlamasini

I. Leksiya mavzusi: uning tanlanganligini asoslash.

1) Umumiy kurs sistemasida mazkur mavzuning o'rni va ahamiyatini aniqlash.

2) Mavzu bo'yicha manbalar saralash (o'qituvchi foydalangan adabiyotlar, talabalarga tavsiya qilinadigan manbalar).

3) Amaliy mashg'ulot, tajriba materiallarini tanlash.

II. Leksiyani tashkil qilish formasi.

1) Auditoriya va texnik vositalar (tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi va xarakteri).

2) Leksiyaning maqsadi (predmet azmunini o'z ichiga qamrab olgan leksiyaning asosiy g'oyasi).

3) Bosh maqsadni amalga oshiruvchi leksiyaning vazifalari.

4) Leksiyaning vazifalarini ketma – ketligi.

5) Qo'yilgan vazifaning xarakteri: informatsion, analitik, sistemalashtiruvchi, muammoli va boshqalar.

6) Tavsiya qilingan vazifalarni bajarish uchun talabalarga zarur vositalar (kategoriyalar, tasavvur sistemasi, funksional, genetik, strukturali, ehtimollik, sababiy aloqalar va o'zaro uzviy bog'liqlik).

7) Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda, bajarishda tinglovchilarda o'qituvchi tomonidan shakllantirilayotgan munosabat va emotsional tuyg'ular hamda pozitsiyalar.

8) Leksiyaning tashkiliy formasi:

a) monologik mulohazalar,

b) audivizual vositalarga tayangan monologik mulohaza,

v) evristik suhbat shaklidagi suhbat,

g) tom ma'nodagi evristik suhbat,

d) dialogik bahs, diskussiya – muhokama qilinadigan muammo yuzasidan

qarama – qarshi nuqtai nazarlar.

III. Leksiya mazmuni:

- 1) ma'ruzaning mazmunining konspekti va rejasi,
- 2) yaxlitlik, sistemalilik, ko'rsatmalilik, izohlilik, soddalikni ta'minlovchi didaktik usullar va o'quv vositalari (konspekt hoshiyasida) mavjudligi.

IV. Leksiya jarayonida o'qituvchining yaxlit obrazi (timsoli):

- 1) lekqiya mazmunini har qaysi qismiga taaluqli bo'lgan vazifalarni bajarishda talaba bilan o'qituvchi hamkorligida shakllari (birgalikda muammo yoki masalani echish, berilgan namunaga taqlid qilish: raqobat, sheriklik, raqiblik kabilar),
- 2) fikr bildirishning til orqali (nutq faoliyatida) ifodalanishi (leksik, grammatik, stilistik, semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil qilish),
- 3) o'qituvchining auditoriya bilan noverbal, emotsional, ifodali muloqot vositalari (imo – ishora, mimika, pantomimika, intonatsiya, temp, ritm, pauza, ovozni kuchaytirish yoki pasaytirish).

Seminar mashg'ulotining metodik ishlamasini

I. Mashg'ulot mavzusi:

- a) mavzu tanlashni asoslash,
- b) kurs programmasida mavzu o'rnini aniqlash,
- v) mashg'ulotning maqsadi, vazifasi, bilishga oid, tarbiyaviy uslubiy xususiyatlari,
- g) adabiyot, tekst murakkabligi, hajmini hisobga olish va an shu negizda birlamchi manbalarni saralash.

II. Seminar mashg'ulot o'tkazish formasi:

- 1) auditoriyaning tayyorgarligi xarakteriga bog'liq ravishda seminar mashg'uloti o'tkazish formasini tanlash:
 - a) savol – javob, b) plan asosida keng ko'lamda suhbat o'tkazish, v) o'zaro taqriz qilingan ma'ruza sifatida fikr almashish, g) bahs elementi mavjud yozma referatlar muhokamasi, d) guruhiy bahs (diskussiya); erkin ravishda yoki maqsadga yo'naltirilgan tarzda, e) o'quv – qurolli o'yin tarzda;
- 2) adabiyotga, mashg'ulot xarakteriga, operatsiyaga, ob'ektga, muammolarga, masalalarga YU mavzuga oldindan talabalarni yshnaltirish dasturi;
- 3) muhokama qatnashchilariga rollarni taqsimlash, dokladga, referatga, mavzu muhokamasiga, xarakteriga, formasiga qo'yiladigan talablar.

III. Mashg'ulotni o'tkazish rejasi (plani) va konspekti:

- 1) mashg'ulot mazmunining dasturi, mavzuning asosiy qismlari, har bir qismning asosiy vazifasi, tahlil qilinayotgan muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladigan asosiy ziddiyatlar, qarama – qarshiliklarni qayd qilish (fiksatsiyalash);
- 2) dasturning asosiy qismlari mazmunining konspekti; qarama – qarshiliklarni ochishni ta'minlovchi didaktik usullarni ajratish, nuqtai nazarlarni ajratish;

mas'g'ulotning har bir bosqichlarida guruhiiy kommunikatsiya vositalari va usullarini saralash;

3) seminar mas'g'ulotlarida mavzuni turlicha shakllarda muhokama qilish yo'llari;

4) seminar mas'g'uloti o'tkazilgandan so'ng uni tahlil qilish va yakunlash.

Darsni psixologik tahlil qilish.

Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi o'qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar) ni qo'llashdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sababini aniqlash, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ko'zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir.

Darsni psixologik tahlil qilayotib, praktikant quyidagi lahzalarga diqqatini qaratishi lozim.

I. Darsning psixologik maqsadi:

1. Mazkur predmet bo'yicha darsning psixologik maqsadga yo'nalganligi: o'qituvchi psixologik muammoni hal qilishni istiqbol rejasiga ega ekanligi; talabalar tomonidan bilimlarni, uquvlar va malakalarni egallanishi, bilishga qiziqishlarni shakllantirish, faol, mustaqil, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ularni aqliy faoliyat usullari bilan qurollantirish, yo'qsak ahloqiy his – tuyg'ular, e'tiqod, dunyoqarash, nafosatni tarkib toptirish kabilar.

2. Darsda qo'llaniladigan psixologik – pedagogik ta'sirning ayrim vositalari, metodlari, usullari ta'limning yaxlit uslubiga qo'yilgan psixologik maqsadga qay darajada javob bera olishligi.

II. Dars uslubi.

1. Darsning tuzilishi va mazmuni qay yo'sinda rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplariga javob bera olishi:

a) talabalar tafakkuri va xotirasiga tushadigan bilimlar ko'lamining o'zaro nisbati;

b) talabalarda tiklovchi va ijodiy faoliyatning o'zaro nisbati;

v) tayyor (o'qituvchi ma'ruzasidan, o'quv qo'llanma va darslikdan egallangan) va mustaqil izlanishlar natijasida olingan bilimlarni o'zlashtirishning o'zaro nisbati;

g) muammoli o'qitishning qaysi tarkibiy qismi o'qituvchi tomonidan, qaysilari esa talabalar tomonidan (kim muammo qo'yadi, kim uni hosil qiladi, kim uni echadi) bajariladi;

d) talabalarni faoliyatga kirishga undash va yo'naltirish, goho majbur qilishning o'zaro nisbati (amalga oshirilgan ish yuzasidan ijobiy his – tuyg'u qo'zg'atuvchi sharh, qiziqishni jadallashtiruvchi ustanovka (ko'rsatma), qiyinchiliklarni engish uchun irodaviy zo'r berish, irodaviy aktini idora qilish va shu kabilar).

2. O'qituvchining o'z – o'zini boshqarish (uyushtirish) xususiyati:

1) o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi (material mazmunining egallanganligi, darsning psixologik maqsadini anglash, uni amalga oshirishga nisbatan

ichki tayyorgarlik);

2) ta'limda o'qituvchining ishchanlik kayfiyati (faoliyatni amalga oshirishga shayoligi, hafsalaligi, tirishqoqligi, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga intiluvchanligi, pedagogik topqirligi va hokazo);

3) o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) – pedagogik nazokatlikning (takt) ko'rinish holatlari, odoblilik yoki nazokatdan chetlashish lahzalari;

4) auditoriya yoki guruhdagi psixologik muhit (o'qituvchi qanday qilib talabalarning o'zaro samimiy, quvnoq, hamdardlikka moyil muloqot holatini (muomala) hamda ishchanlikning muayyan darajasini ushlab olish qobiliyati).

III. O'quvchilarning (talabalarning) faoliyatini tashkil etish:

1. O'qituvchi tafakkur bilan xayolning sermahsul ishlashi uchun qanday shar – sharoitlar yaratishi:

a) o'qituvchi qay yo'sinda o'rganilayotgan materiallarni talabalar tomonidan idrok qilishda tanlovchanlik, tushunganlik va yaxlitlik darajasiga erishganligi;

b) qanday dasturlar, qaysi shakldagi ko'rsatmalar foydalanganligi (talabalarni undash, ularga ta'sir o'tkazish, ularni ishontirish va boshqalar);

v) o'qituvchi qanday qilib talabalar diqqatining barqarorligiga va uni muayyan ob'yektga to'planishiga erishganligi;

g) yangi bilimlarni egallash uchun, oddiy o'zlashtirilgan bilimlarni talabalar xotirasida faollashtirish maqsadida qanday ish formalari qo'llanilganligi (yakka holda so'rash, guruh bilan suxbatlashish, o'tgan mavzularni takrorlash bo'yicha mashqlar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni yaratish va hokazo).

2. Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalarning xayolot (mnemik) va fikr yuritish (tafakkur) faoliyatini tashkil etish va uyushtirish:

a) talabalarning bilimlari qanday darajada shakllanganligi (yaqqol – hissiy tasavvurlar, tushunchalar, “kashfiyot” obrazlari umumlashmasi, simvolikalar, xossalar, formulalar chiqarish darajasida ekanligi va boshqalar);

b) o'qituvchi qaysi usul va uslub yordamida talabalar tafakkurining faolligahamda mustaqilligiga erishganligi (savollar sistemasi, muammoli vaziyatni yaratish, ortiqcha masalalar berish, standart va nostandart topshiriqlar tavsiya qilish, ta'limda qidiruv – tadqiqot ishlarini tashkil qilish);

v) o'qituvchi talabalarda tushunishning qanday darajasiga (tasviriy, izohli, umumlashtiruvchi baholash, muammoli vaziyat) erishganligi, shuning bilan birga qanday qilib ularda e'tiqod va ideallar shakllanishiga rahbarlik qilganligi;

g) ta'limda ijodiy ishlarning qaysi turlari qo'llanilganligi va o'qituvchi talabalar ijodiy xayoli hamda ijodiy tafakkurga etakchilik qilganligi.

IV. Ish (faoliyat) natijalarini mustahkamlash:

1. Bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish.
2. Malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish.

3. interferensiyadan talabalarni ogohlantirish va oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish.
4. Talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Oliy ta'limdagi qiyinchilikning asosiy sabablari
2. Ma'ruzalarning sifatini baholash
3. Seminar mashg'uloti ahamiyati
4. Seminar mashg'ulotidagi talabalar faoliyati

Keyslar banki

Keys Kollej o'quvchilaridan biri bilan suhbatda o'quvchi shunday faktni tan oldi: «Men ximiya juda muxim fan ekanligini yaxshi tushunaman va yaxshi o'qishga harakat qilaman, lekin negadir shu fanni yoqtirmayman, u bilan shug'ullanish menga unchalik qiziqarli emas. Hamma formulalarni yod olish kerak, reaksiyalar qanday bo'lishini, davriy sistemadagi behisob elementlarni bilishing kerak. Bu darsni tayyorlashga juda ko'p vaqtim ketadi. Bir mavzuni bir necha mart o'qiyman, lekin baribir ijobiy natijaga erishganim yo'q»

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
 1. O'ziga sira yoqmasa ham zo'r berib ximiya fanini o'qigan bu o'quvchida uning shaxsiga xos qanday xususiyatlar namoyon bo'ladi?
 2. Pedagog ko'rgan qanday chora-tadbirlar o'quvchining mazkur fanga bo'lgan munosabatini-o'zgartirishi mumkin?

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limdagi qiyinchilikning asosiy sabablari nimada deb o'ylaysiz?
2. Ma'ruzalarning sifatini baholashda nimalar hisobga olinadi?
3. Seminar mashg'uloti ahamiyati va u asosan nimaga qaratilgan bo'ladi?
4. Seminar mashg'ulotidagi talabalar faoliyati qanday mezonlar asosida baholanadi?
5. Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi nimalardan iborat bo'ladi?

Test savollari

1. SHaxs kamoloti qaysi omillarga bog'lik?

A). Ijtimoiy muxitga, V). SHaxs extiyoji, ta'lim-tarbiya va o'zligini anglashishga
S). Nasliy - irsiy xususiyatlarga, D). Odamning salomatligi va bilimiga bog'lik

2. Dars jarayonida o'qituvchi nutqining qaysi turi eng ko'p ko'llaniladi.

A). Dialogik nutqi, V) Monologik nutqi, S). Ichki nutqi, D). Imo-ishora nutqi

3. Iroda ta'rifi qaysi javobda to'lik berilgan

A). Qiyinchiliklarni engib o'ta olish iroda deyiladi, V). Qiyinchiliklarni engib o'tishga undovchi ta'sir iroda deyiladi, S). Iroda - bu kishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklarni engib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq- atvorini ongli

tashkil qila olishi va o'z-o'zini boshqarishdir
D). Iroda - tavakkal qilish bo'lib, zo'r berish bilan bog'lik

4. SHaxsning tarkib topishida va rivojlanishidagi asosiy faoliyat turlari kaysilar?

A). O'yin, o'qish, o'zligini anglash, V). O'yin, o'qish, mehnat
S). O'qish, mehnat, D). Mehnat, o'z-o'zini tarbiyalash

5. Kishininig dunyoqarashi qanday shakillanadi?

A). Atrof muhitni yaxlit idrok qilish, farqlash, taqqoslash va izoxlay olish
V). Tabiat va jamiyat xaqidagi bilimlarni egallash orqali
S). O'quv fanlarini yaxshi o'rganish orqali, D). Ijtimoiy xayotni o'rganish orqali

Mavzu: Pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari.

Reja:

1. Kasb-xunar kolleji pedagogi shaxsining faolligi.
2. Pedagogik qobiliyat va uning turlari.
3. Jamoa va guruxlarda munosabatlarni tashkil qilish.
4. Guruhda olib boriladigan tarbiyaviy va tashkiliy ishlar.

Tayanch so'z va iboralar:

Pedagog shaxsi. Pedagogik faoliyat. Pedagogik kobiliyat. Gurux va jamoada shaxslararo munosabatlar. Tarbiyaviy ish va uning psixologik moxiyati.

SHunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bulgan biror mutaxassis uning ishtiroki va mexnatisiz uz kasbini mukammal egallab chiqa olmaydi. Bu –o'qituvchilik kasbidir. O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. CHunki xar kanday odam xam bu murakkab kasbni egallab ololmaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim to'g'risidagi qonunda hozirgi zamon o'qituvchisi qaysi sifatlarga ega bo'lishi kerakligi shunday sanab utiladi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umum insoniy kadriyatlarini, dunyoviy bilimlarni mO'qammal egallagan, diniy ilmlardan xam xabardor, ma'naviy barkamol;
- o'zbekistonning mustakil davlat sifatida tarakkiy etishga ishonadigan, vatanparvarlik burchini tugri anglagan, e'tikodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va maxoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- O'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi odam bulishiga chin kungildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga kumaklashadigan;
 - erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Bundan tashkari hozirgi zamon madaniyatli kishisi ega bulishi kerak bulgan barcha sifatlarga, jumladan yO'qsak ma'naviyatga ega bulish, fan-texnika tarakkiyoti va undan kundalik turmushda foydalanish yullari bilan kizikish, uz xatti-xarakatlari bilin xar jixatdan oilada, maxallada, jamoatchilik urtasida ijobiy namuna bula olish va b.

Mustakil O'zbekiston Respublikasida O'qituvchilarga gamxurlik kilishning juda kup kirralari mavjud, bular «O'qituvchilar kuni» umumxalk bayrami sifatida nishonlanishi, turli faxriyunvonlar ta'sis etilganligi, maoshi, turli imtiyozlari va x.

O'zbek xalqi kadimdan ustozni e'zozlab kelgan xalq bo'lishi bilan shuxrat qozongan. «Ustoz otangdan aziz», «Usta qanday-shogird shunday», «Ustoz bilimli-shogird ilmi» singari xalq maqollarida xam uz ifodasini topgan.

Texnika tarakkiyotini jadallashtirish va ishlab chikarish samaradorligini oshirish sharoitida odamlarning umum ta'lim va kasbiy tayyorgarligiga xar bir kishining mexnatga eng birinchi ijtimoiy burch sifatida ongli, ijodiy munosabatni shakllantirishga nisbatan kuyiladigan talablar xam oshib bormokda. Xozir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan umum ta'lim va xunar ta'limini islox kilish tadbirlari, ta'lim tugrisidagi konun, kadrlar tayyorlash milliy dastur va boshkalar mana shu talablarga javob beradi. Maktab isloxotini amalga oshirishda O'qituvchi xal kiluvchi rol uynaydi.

SHuni aytish kerakki, milliy dasturda kuzda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish sur'atlari kupjixatdan umum ta'lim va kasb-xunar maktabi O'qituvchisining faolligiga, uning nazariy va amaliy tayyorligi sifatiga va darajasiga boglik. Hozirgi zamon ijtimoiy vokeligi zamonaviy ishlab chikarishning ilmiy yunalishlarining asoslarini, uni intensivlashtirishning etakchi yunalishlarini urganishni yanadapuxtarok yulga kuyishni talab etadi. O'qituvchilarning kompyuter savodxonligini ta'minlashesa, ayniksa zarurdir. Umuman ta'limni ishlab chikarish mexnati bilan kushib olib borish prinsipini yanada tularok ruyobga chikarishga, ta'lim berish samaradorligini oshirishga, yoshlarni mustakil xayotga va mexnatga tayyorlashni tubdan yaxshilashga, zamonamizning ongli kuruvchilarini tarbiyalashga yanada kat'iyroktarzda erishmok kerak.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda O'quv jarayonining asosi hisoblangan dars bilan bir katorda umum ta'lim maktabining yuqori sinflarida, akademik litseyva kollejlarda ma'ruzalar O'qish, seminar va fakultativ mashg'ulotlari utkazish, suxbatlar, praktikumlar, konsultatsiyalar uyushtirish, toki umum ta'lim maktabi, kollej va oliy O'quv yurti ish mazmuni va shakli urtasida uzluksizlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlab utildi. Bu talablar fan O'qituvchilaridan xar bir O'quvchining uziga xos xususiyatlari tugrisidama'lumotga va chuqur bilimga ega bulishni: pedagogik muam-molarni prognoz kilish va xal etishning metodik jixatdan asoslangan yullarini kidirib topish, O'quvchi shaxsiga pedagogik ta'sir kursatishning strategik maxoratini tanlay bilishni takozo kiladi. Birok, O'qituvchining funksiyasi u dars paytida kursatgan faoliyat bilangina cheklanib kolmaydi. O'qituvchi O'quvchilar bilan darsdan tashkari vaktlarda bajariladigan sinfdan tashkari ishlarni tashkil etadi, sinf, gurux raxbari vazifasini bajara borib, bolalarning ota-onalari bilan ish olib boradi. Bunday sharoitlarda O'quvchilarning O'quv va O'qishdan tashkari faoliyatini yagona ta'lim tarbiya jarayoni sifatida rejalashtirish va tashkil kilishga nisbatan kompleks va izchil yondoshishning O'qituvchi faoliyatidagi roli ortib boradi. Bunday faoliyat O'quvchilarni bilimlar bilan

kurollantirishga xamda bilish, mulokot va mexnatning ongli sub'ektlari sifatida ular shaxsini shakllantirib borishga karatilmog kerak.

O'qituvchi mexnatini pedagogik–psixologik tadbik etish shuni isbot etganki, O'quvchilarning O'quv faoliyati samaradorligiga goyat katta ta'sir kursatadi. O'qituvchining ilmiy jixatdan bilimdon-ligi, uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlar O'quvchilarga tarbiya berishning, ularda ongli faollikni xamda mustakil ijodiy bilishga bulgan intilish faolligini shakllantirishda xal kiluvchi omil xisoblanadi.

O'qituvchining dunyoqarashi – undagi pedagogik madaniyatning xamda tarbiyachi sifatidagi maxoratning muxim komponenti xisoblanadi. Bugungi kunda uzini pedagoglik kasbiga bagishlagan talaba yoshlar shuni yaxshi bilishlari kerakki, hozirgi zamonning yoshlarda ilmiy dunyokarashni shakllantirish, hozirgi zamonning goyat dolzarb va keskin muammolari yuzasidan baxs-munozaralar utkaza olish, odamlarni ishontira olish, mustakil tugri xulosa va umumlashmalar chikara olish maxoratini egallab olishlari goyat muxim axamiyatga egadir.

O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi faoliyati, uning boshka soxa bilimlaridan xabardor bulishi, uz faniga doir fundamental bilim-ga ega bulishi xamda maktab O'quvchisining shakllanib kelayotgan shaxsi psixologiyasi, uning kobiliyatlari tugrisida chuqur bilimga ega bulishi, kishilik olamida sodir bulayotgan sotsial vokea–xodisa-larni tugri idrok eta bilishi va ularga tugri baxo bera bilishi, sinf jamoasini yaxlit va xar bir O'quvchini puxta urgana bilishi, ularning xulk–atvori va sotsial faoliyatini oldindan aytib bera olish maxorat goyat katta axamiyatga egadir.

O'qituvchi kasb maxoratining ortib borishida O'qituvchiga nisbatan maktab ma'muriyati, xamkasblari, o'quvchilar, ota–onalardan kutiladigan sotsial munosabatlar juda muximdir. O'qituvchining obrusi uning darsdagi faolligi, maktab jamoasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan mulokoti – xullas, uz axlokiy idealiga muvofik xatti-xarakatlari bilan belgilanadi. U o'z o'quvchilarida buyurilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial ma'suliyatni xis kilish odatini, oliyjanoblikni tarbiyalashi, uning intellektual kamolotiga erishib, ma'naviy jixatdan musaffo kishi bulib tarbiyalanishiga erishmogi kerak.

O'qituvchi faoliyatida, uning O'quvchilar turli yosh boskichlarida ular bilan kandy uslubda ish olib borishi katta rol uynaydi. Psixologik–pedagogik adabiyotlarda O'quvchilarga raxbarlik kilishda tez-tez uchrab turadigan kuyidagi besh xil ish uslubi aloxida ajratib kursatiladi: 1) Avtokrat (uzini ustun kuyish, «balanddimog»), 2) Avtoritar (ma'muriy buyruqboz), 3) Demokratik (jamoaga suyanib ish olib boruvchi), 4) Liberal – lokayd (amalda raxbarlikdan chetda, uz vazifasini nomigagina bajaradi), 5) Noizchil (o'quvchilar bilan buladigan uzaro munosabatlarda vaziyatga karab ish tutadi, «uning kim tarafdori ekanini bilib bulmaydi!»), Real xayotda o'qituvchi faoliyatida uning raxbarlik usuli xar turli sub'ektiv va ob'ektiv omillarning ta'siri ostida shakllanib

boradi. Bunday omillar – pedagogik faoliyatning bir sub’ekti sifatida o’qituvchining yuksak darajadagi pedagogik madaniyati qaror topishi uchun zarur shartlardandir.

O’qituvchi bilan o’quvchi urtasidagi turli xil vaziyatlardagi uzaro munosabatlarni taxlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muxit va kommunikativ madaniyat o’qituvchining o’quvchilar bilan qiladigan muomala stili (tarzi) va uning pedagogik takti (nazokati) ga kupa jixatdan bogliq buladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xullas, pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo soglom bulishi, ya’ni tashki kurinishida birdan kuzga tashlanadigan nuqsoni yo’q (to’g’ri, oson, gulay bo’lmasligi), so’zlarni to’g’ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo’lishi darkor. SHuningdek yuqorida sanab o’tilgan sifatlarga ega bulishi zarur.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni xayotga, mexnatga tayyorlash uchun xalk oldida, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta’lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mexnat faoliyatidir. O’qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma kuyidagilarni uz ichiga oladi: 1) O’qituvchi shaxsining xususiyatlari; 2) O’qituvchining ruxiy–pedagogik tayyorgarligiga kuyilgan talablar; 3) Maxsus tayyorgarlik xajmi va mazmuni; 4) Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

O’qituvchi shaxsining xususiyatlari goyaviy soxada: ilmiy dunyokarash va e’tikod, ijtimoiy extiyoj va axlokiy zaruratni chO’qur tushunish, ijtimoiy va fO’qarolik burchni anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagogik kasbi soxasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga kizikish, pedagogik ishini sevish, ruxiy-pedagogik ziyraqlik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, xakkoniylik, dilkashlik, talabchanlik, kat’iylik va maksadga intilish, vazminlik, uzini tuta bilish. Keng ilmiy saviya, ma’naviy extiyoj va kizikish, intellektual kizikish, yangilikni xis kila olish, uz ma’lumotini oshirishga intilish va xokazo.

Yuqoridagi shaxs sifatlariga ega bulish bilan bir qatorda muvaffakiyatli ishlash uchun xar bir o’qituvchi pedagogik maxorat va pedagogik kobiliyatga xam ega bulishi shart. Ijodkorlik uning xamisha xamroxli bulishi kerak. Pedagogik ishga kobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik maxorat bulishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo buladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan fark kiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, O’qish natijasi xisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod, layoqat va zexn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bulishi xam zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataladigan ruxiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bulishi uchun o’qituvchida kobiliyatning kuyidagi turlari mavjud bulmogi va tarbiyalab etishtirilmogi lozim (Bular aloxida pedagogik qobiliyat deb xam aytiladi):

1. **Akademik qobiliyat yoki bilish qobiliyati.** Bunday qobiliyatga ega bo'lgan O'qituvchi fanni o'quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur biladi, uz fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga kizikadi, oddiy tadjikotlar olib boradi.

2. **Didaktik qobiliyat** – tushuntira olish kobiliyati – O'quv materialni O'quvchilarga tushunarli kilib bayon eta olish, O'quvchilarda mustakil ravishda faol fikrlashga kizikish uyg'otish qobiliyatidir. O'quvchilarning yosh va ruxiy xususiyatlarini xisobga olish, O'quvchilarning bilimi va dastur talabi urtasida tafovut doimo dikkat-markazida turadi va uni bartaraf etish choralari kurib boriladi. Ba'zi O'qituvchilarga O'quv materiali oddiy, tushunarli va kandaydir aloxida izoxni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday O'qituvchilar O'quvchilarni emas balki uzlarini nazarda tutadilar. Kobiliyatli, tajribali O'qituvchi uzini O'quvchining urniga kuya oladi, u kattalarga anik va tushunarli narsalarning O'quvchilarga tushunilishi kiyin va mavxum bir narsa bulishi mumkinligiga asoslanib ish tutadi.

Qobiliyatli O'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida O'quvchilarning kanday uzlashtirayotganliklaridan kator belgilar asosida paykab oladi va zarur xollarda bayon kilish usulini uzgartiradi. SHuningdek, kobiliyatli O'qituvchi O'quvchilarning sabokni uzlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlaydi, choralar kuradi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga kadar ish boshlamaydi.

3. **Kuzatuvchanlik qobiliyati** – perseptiv qobiliyat, O'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish kobiliyati, O'qituvchi shaxsini va uning ruxiy xolatlarini yaxshi tushuna bilish boglik psixologik kuzatuvchanlikdir. (Bunday O'qituvchi xakida bolalar: «qaramayotgangan uxshaydi-yu, xamma narsani kuradi!», «O'quvchining xafa bulganini yoki dars tayyorlamaganini kuzidan biladi», «Bu O'qituvchini xech aldab bulmaydi!» va xokazo fikrlar bildiradilar).

4. **Nutq qobiliyati** – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida uz fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muximdir. O'qituvchining bayoni O'quvchilar fikri va dikkatini maksimal darajada faollashtirishga karatiladi («Mana bu erga aloxida e'tibor bering!», «o'ylab ko'ring!», «Siz nima deysiz?» vax.) SHuningdek, Urinli kochirik, xazil, engilgina istexzo nutkni jonlantirib yuboradi va uni O'quvchilar tez uzlashtiradilar. O'qituvchi nutqi ravon, begubor, begaraz bulishi kerak. Xaddan tashkari past suzlangan nutk lanjlik va zerikishga, xaddan tashkari keskin va bakirok nutk O'quvchining asabiylashuviga va charchashiga sabab buladi.

5. **Tashkilotchilik qobiliyati** – birinchidan, O'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muxim vazifalarni xal etishga ruxlantirishni, ikkinchidan, uz ishini tugri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. **Avtoritar yoki so'zini o'tkaza olish qobiliyati** – O'quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta'sir kursatish va shu asosda obru kozona olishdir. O'qituvchining bilimi,

tadbirkorligi, xushyorligi, nutki va imo–ishora, piching va xokazolarni uz urnida foydalana olishi («Men» bu yokka kel! Degan suzni 20 xil oxangda ayta olganimdan keyin yaxshi O'qituvchi buldim – deb xisoblaganman, degan edi A. Makarenko).

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yakinlasha olish, ular bilan pedagogik nO'qtai-nazardan juda samarali munosabatlar urnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Prognozlash yoki kelajakni ko'ra bilish qobiliyati–uz xarakterlarini va O'quvchi xarakterining okibatini kura bilish, O'quvchining kelgusida kandy odam bulishini tasavvur kila olishida, tarbiyala-nuvchida kandy fazilatlarini tarakkiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu kobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning kudratiga boglik.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – O'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – xajmi, kuchi, kuchuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izoxlanadi.

Diqqatni ayni bir vaktida taksimlash kobiliyati o'qituvchilik uchun aloxida axamiyat kasb etadi. Bir vaktning uzida dars mazmuniga, uni kandy tushuntirishga, kaysi usul va vositalarni kullashga, O'quvchilarning uzlarini kandy tutayotganliklariga, kandy uzlashtirib borayotganliklariga e'tibor berib borish kupincha yosh va tajribasiz O'qituvchining kulidan kelmaydi. SHuning uchun gox dars mazmuniga berilib ketib, vakt va bolalar chetda koladi, gox dars kolib boshka ish bilan uralashib kolish xollari uchrab turadi.

E'tikod, odob, fuqarolik burchini anglash–o'qituvchining asosiy sifatlaridandir. Maktab o'qituvchisi o'zi targib kilayotgan idealning fazilatlarini uz shaxsiy namunasida xam kursatish kerak. Bu sifatlar o'qituvchining kasbiy sifatleri deb aytiladi. O'qituvchilik kasbiy sifatleri yoki fazilatleri kuyidagilardir:

– Bolalarga mexr-muxabbatli va kechirimli bulish, talabchan-lik va kattikkullik, adolat mujassamlashuvi;

– Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o'qituvchi shaxsiga xos sifat, zero xakikiy pedagog tula ma'nodagi jamoatchi bulib, bolalarga xayotda ijtimoiy faol xolatda turishning amaliy namunasini kursatadi.

– Odamlar bilan tez el bulib keta olish, kupchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashlik, odamlar bilan aloka kilishga, ular bilan ishlashga tugri kelganda ayniksa askotadi.

– Xar kandy vaziyatda erkin fikrlay olish, ijodkorlik. Munosabat-da adolatli bulish uning obrusi oshib borishiga imkon beradi. O'qi-tuvchining odobi, madaniyati yO'qsak bulsagina, odamlarga nisbatan mexribon, saxovatli bula oladi, uni xamma xurmat kiladi. Buning uchun ochikkungil, kat'iy bulishi, uzini tuta bilishi, bardoshli bulishi kerak.

O'qituvchi pedagogik etikaning me'yorlarini uzlashtirib olishi, tajribada kullashi, uzining dunyokarashi va axlokiy tajribasi bilan takkoslashi lozim.

O'qituvchi xar kanday vaziyatda uzining shaxsiy namunasi bilan ta'sir o'tkaza olishi, munosabat urnata olishi kerak. Pedagogik takt O'qituvchi axloking amaliy kurinishlaridan biridir. Pedagogik takt yoki pedagogik nazokat O'qituvchi faoliyatining xamma soxalarida zarur.

O'qituvchi deyarli xar kuni O'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob kiladi, ularning yaxshi ishlarini ma'kullaydi, bilimlarini baxolaydi, nojuya xatti-xarakatlari uchun tanbex beradi, ammo xar doim xolis bulishi, sinfda «yaxshi kuradigan» va «yomon kuradigan» O'quvchisi bulmasligi kerak.

Pedagogik faoliyat uz moxiyatiga kura ijodiy xarakterga ega. Pedagogik ijodkorlik manbai–bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba–muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilgor pedagogik tajri-ba deganda biz O'qituvchining uz pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, O'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi, samarali yul va vositalarni kidirib topishni tushunamiz. Ilgor pedagogik tajriba O'qituvchi tomonidan kullaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida O'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yO'qori natijalarga erishiladi.

O'qituvchining sanab utilgan bu fazilatlari O'quv yurti, O'quv-chilar yosh va bilim xususiyatlariga karab bir-biridan farklanishi mumkin.

Muxandis-pedagog o'ziga xos yana qaysi sifatlarga ega bo'lishi mumkin?

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. O'qituvchining jamiyatdagi funksiyasi va mavqei
2. Pedagogik qobiliyat sifatlari
3. Pedagogik takt–nazokat

Keyslar banki

Keys O'n olti yashar Salomat o'zining redaksiyaga yo'llagan maktubida quyidagilarni yozadi. «Ota-onam mening ahvolimga tushunmaydilar. Ular meni yaxshi ko'rishar emish, shunaqayam yaxshi ko'radimi? Ular menga doim shubha bilan qarashadi, hamisha kim bilan yurgan eding, qayoqqa bording deb so'rashadi, xatlarimni menga bildirmay o'qishadi. Qachon qarasang urishishadi. Besh baho olib kelgan kunim – bir og'iz shirin so'z aytishmaydi, shunday bo'lishi kerak deb hisoblashadi, mabodo uch baho olib qolsam bormi – har doim janjal boshlashadi! Nega uch olganimni so'rab ham o'tirishmaydi. So'kishdan to'xtashmaydi. Xo'sh, shuning hammasini yaxshi ko'rishgandan qilishadi deb o'ylaymizmi?...»

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

1. Salomat bilan uning ota-onasi o'rtalaridagi o'zaro nosog'lom munosabatlarning sababi nimada ekanligini tushuntirib bering.

2. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasida sog'lom munosabatlar qaror topmog'i uchun ota-onalar qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishlari kerak?

Nazorat savollari

1. O'qituvchining jamiyatdagi funksiyasi va mavkei kanday bulishi kerak?
2. Pedagog faoliyati ishlab chikarishdagi mutaxassis faoliyatidan kaysi xislatlari bilan fark kiladi?
3. Pedagogik qobiliyat sifatlarini sanab bering.
4. Pedagogik takt–nazokat nima?
5. Jamoada kulay psixologik muxit yaratish uchun O'qituvchida yana kanday fazilatlar bulishi kerak?

Test savollari

1. Muhandislik psixologiyasi o'rganadigan asosiy yo'nalish-bu-
A). Odam va mashina o'zaro ta'siri muammolarini
V). Ilmiy - texnika taraqqiyoti va inson omili masalalari
S) Inson va mashina o'rtasidagi murakkablikni
D). Mehnat va ishchi muhitni tashkil qilish muammolarini
2. Kasbiy qobiliyatni shakllantirishda uning qanday tabiatini e'tiborga olish lozim?
A). O'z kasbiga oid bilimga ega bo'lishini V). Tegishli ixtisosga ega bo'lish va uni takomillashtirib borishga intilishi, o'z mehnatini qadrlay olishi.
S). O'z kasbiga qiziqishini D). Tadbirkorligi va tashkilotchiligini
3. Kasbiy qiziqishlar qanday jixatlari bilan farqlanadi.
A). YOsh davrlari xususiyati bilan V). Oilaviy va jamoa muhiti bilan
S). O'z faoliyatini maqsadga muvofik boshqara olishi bilan
D). Tug'ma xususiyatlari bilan
4. O'qituvchi va talaba shaxsini kompleks o'rganishiga qaratilgan usul nima deyiladi?
A). Psixogenetika V). Psixodiagnostika S). Psixoanaliz D). Psixofiziologiya

Mavzu: Tarbiya psixologiyasi.

Reja

1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida.
2. SHaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari.
3. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi

Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida. Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, o'zining qadr –

qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz” deb ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy e’tiborni qaratmoqda.

Tasavvur qiling: ilmi, katta ixtirolarga qurbi etadigan, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirgan mutaxassis – ma’naviyatsiz, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lsa nima bo‘lishi mumkin? U o‘z manfaatini ko‘zlaydi. Vatan uchun biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki u xudbin. Unda mehr-oqibat, fidoyilik, vatanparvarlik, milliy g‘urur yo‘q. U muxtojlariga yordam bera olmaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Hulq atvor va odatni shakllantirish – ma’lumki, odam ongining yO‘qsak belgilaridan biri, uning o‘zini anglashidir. Odamning o‘zini anglashi o‘z navbatida shaxsning mim belgisi hisoblanadi. odam o‘z tevarak – atrofidagi olamga ta’sir etuvchi sub’ektdir. Odamning idrok etadiga, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob’ektdir. Ana shu nuqtai – nazardan olganda, odamning o‘zini anglashi sub’ektiv ravishda o‘zini “men” deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo‘lganligidan unga o‘zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o‘zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o‘zini anglashi, o‘zini “men” deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. odam o‘zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o‘zining o‘tmishi va kelajagini anglashi, o‘z huquq va burchini anglai va nihoyat o‘zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi, o‘zini anglashiga kiradi.

Insonning tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jaiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali belgilarga berilishidir. SHunday qilib inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum konkret omillarning ta’siri ostida sekin asta tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida sistemali ravishda beriladigan ijtimoiy ta’lim – tarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beriladigan irsiy omillarning ta’siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal etuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog‘liqdir. Bu faktor nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta’siridir. Odamga nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko‘zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug‘ma ravishda berilishi

mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqarishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan etishib chiqaan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo'la oladi.

Bolalar maktab yoshiga etgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi. Kichik maktab, o'smirlik va katta maktab yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo'ladi.

Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. SHunga qaramasdan, bir tomondan, inon taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati yirik tarzda tasavvur etish uchun, uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o'quv, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funksional mexanizmiga o'sib boradi, binobarin, unda koillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Inson – jamiyat – tabiat – turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.G.Ananov odamning ular bilan har xil turdagi va ko'rinishdagi kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar.

Birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli "Homo Sapiens" sifatida o'rganiladi.

Ikkinchidan, tarixiy jarayonning ham ob'yekti, ham sub'yekti tariqasida shaxs tadqiq etiladi.

Uchinchidan, individ muayyan ko'lamda o'zgaruvchan, taraqqi yotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi.

Insonni jamiyat ishlab chiqarishining etakchi tarkibi. Bilish, kommuniatsiya va boshqaruv sub'ekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Inson va uning borliq bilan ko'p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo'lishi mumkin:

- Tabiatning biotik va abiotik omillari – inson;
- Jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti – inson;
- Inson – texnika;
- Inson – madaniyat;
- Inson va jamiyat – yer va fazo.

21 asrda ham odam individ. SHaxs, sub'yekt, komil inson sifatida talqin qilinishida davom ettiriladi, lekin, har bir tushuncha mohiyatida sifat o'zgarishlari yuz berishi

mumkin.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual – tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. YOsh davr sifatlari ontogenetik evolyusiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo‘ladi va takomillashuv jarayonida o‘z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mos tushadi. Individning individual – tipologik xususiyatiga konstitutsion (tana tuzilishi, bioximik individuallik) holatlar, simmetriya va assimmetriya juft retseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishining barcha darajalarida ishtirok etadi.

YOsh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funksiyalari dinamikasi hamda organik extiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperamentida va tug‘ma mayllarda ifodalanishini ta’kidlab o‘tish joiz. YUqoridagi sifatlarning rivojining muhim shakli ontogenetik evolyusiyadan iborat bo‘lib, ular filio-genetik dasturga asoslanib xukm suradi. YOsh va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy – tarixiy taraqqiyoti ta’siri ostida har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta’sir etib, uning individual o‘zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy, ya’ni uning jamiyatda egallagan o‘rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o‘zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo‘nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol, qadriyatga yo‘nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo‘lib hizmat qiladi. SHaxsning ta’rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe’l – atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi sifatlarining o‘zaro ta’sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs hislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl – uning jamiyatdagi hayot yo‘li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

Individ, shaxs va sub’yekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e’tibor qilish lozim:

- Inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart – sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);
- Insonning o‘ziga taalluqli, asosiy tavsiflar. Uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyusiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyusiya;
- Inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o‘zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta’sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. CHunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash, interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatning funksional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining ijtimoiy tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining idroki, tafakkuri, hayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq – atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

SHaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti - xarakatlari shaxsning xayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Birinchisi – boshqaruv tizimi;

Ikkinchisi – stimullashtirish tizimi;

Uchinchisi – stabilizatsiyalash tizimi;

To'rtinchisi – indikatsiyalash tizimi.

SHaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq – atvori va xatti – harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimning hosil bo'lishida analizatorlar o'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Birq, bu analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qo'shib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimiga o'tib ketadigan yO'qsak darajaa integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning xayot – faoliyati jarayonida o'zaro bir – biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor –persptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratdi. Insonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizmi barqaror psixik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadin ko'zlovchi va foydali faoliyatining ong sub'yekti sifatida bola boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridanoq shakllana boshlaydi.

Temperament intellektual bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim – shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yo'naltirilganlik, qobiliyat. Mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yo'naltirilganlik – shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatlardir.

Integral – (lotin tilida - “butun”, “tiklangan”) – uzviy bog'liqlik, butunlik , birlikdir.

Generalizatsiya (lotin tilida – “umumiy”, “bosh”) – shartli va shartsiz reflekslarni umumlashishi.

Yoʻnaltirilganlik, bilim munosabatlarni hamda shaxsning xulq – atvori hamda xatti – xarakterlarida ijtimoiy ahamiyat etakchilik qilgan. Motivlarning bir butun ekanligida oʻz ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va maʼnaviy ehtiyojlarida namoyon boʻladi.

Yoʻnaltirilganlik strukturasi gʻoyaviy eʼtiqod katta rol oʻynaydi. Gʻoyaviy eʼtiqod – bilimning, oʻsha shaxsga xos boʻlgan intellektual, emotsional iroda sifatlarining sintezi gʻoyalari va xatti harakatlari bir butunligining negizidir. Tizim oʻz ichig a shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti – harakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy “oʻy – fikrlari va his – tuygʻulari” aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotli, masʼul arboblari sifatida xulq – atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm. Kollektivizm, optimizm va mehnatsevarlik azilatlari kiradi.

SHaxs shakllanishiga taʼsir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari

SHaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biror mahallada inson shaxsining tarkib t pishida faol taʼsir koʻrsatuvchi besh yuzta oʻziga xos ijtimoiy muhit bor, degan maʼnoni bildiradi. Bu erda shunday bir savol tugʻiladiki: “Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday taʼsir qiladi?”.

Birinchiidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita taʼsir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchiidan, tashqi ijtimoiy muhit taʼsirining chuqurroq, mustahkamroq boʻlishiga odamning oʻzi yordam beradi.

Maʼlumki, bolalar oʻz tabiatiga koʻra, ilk yoshlik chogʻlaridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan boʻladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti – harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti – harakatlarni, yaxshi yomon fazilatlarini oʻzlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, koʻcha – koʻyda, katta odamlarning har bir harakatlarini, oʻzaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muitninch roli haqida gap borar ekan, shuni ham taʼkidlab oʻtish zarurki, ayrim gʻayritabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit taʼsirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini toʻla tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tatayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak boʻlsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonlik doktor Sing Kalkutta yaqinidagi oʻrmonzorda boʻri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham toʻrt oyoqlab yugurib yurganini koʻrib qoladi. Keyin, ularni poylab, qarorgohlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardanbiriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom qoʻyadi. SHu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan boʻrilar muhitiga tushib qolganliklari tufayli, feʼl atvorlari, xatti – harakatlar jihatidan boʻrilardan farq qilmas edilar. Nut yoʻq, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanayotgan boʻri boʻri muhitidagi bolalar shamollash natijasida oʻlib qoladilar.

Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi. SHaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil ta'lim – tarbiyaning ta'siridir.

Ma'lumki, ta'lim – tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi faqat ijtimoiy muhit bilan, ta'lim – tarbiyaning o'zigagina bog'ldiq bo'lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim – tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega shaxslarni etishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo'lishi mumkin emas. SHuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog'cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan tarbiya tushuniladi.

Biroq, bunday oilada bolaga beriladigan ta'lim tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari oilada beriladigan ta'lim tarbiyaning ham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemai shug'ullanadigan va umuman shug'ullanmaydigan oilalarga misol keltirish mumkin.

YUqorida aytib o'tilgan ikkita odamdan tashqari uchinchi omil ham mavjudki, bu nasliy xususiyatlardir. Odamga nimalar nasliy beriladi? Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma berilishi mumkin. Lekin, shuni xech qachon esdan chiqarmaslk kerakki, odamga xech vat uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan, ya'ni tug'ma ravishda nihoyatda nodir hollarda ayrim hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlar nasliy yo'l bilan berilishi mumkin.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to'xtalib o'tish kerak. Hozirgi kunda tez – tez akseleratsiya terminini ishlatyapmiz. Xo'sh, akseleratsiya bu nima? Akseleratsiya – “tezlatish” degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo'lib turibmiz. Xo'sh, buning sababi nima bo'lishi mumkin? Albatta, bunga turli fikrlar mavjud. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog'lab tushuntirishga intimoqdalar. Texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi bilan insoniyating oldiga mislsiz ko'p axborotlarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo'yadi. Bu talab o'z navbatida insonning har tomonlama, ya'ni ham jismoniy ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. YUqorida aytib o'tilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya – bu 20 asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan hodisadir.

Tarbiyasi “qiyin” bolalar psixologiyasi

“Tarbiyasi qiyin” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha,

“qiyin” o‘smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bolalardir. Ularning faolligini o‘zgartirish, ularga ba’zi huquqlari berish yo‘li bilan ularga ta’sir o‘tkazish mumkin. Psixologiyada “tarbiyasi qiyin” bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh – ijtimoiy salbiy, mustahkam qarashlarga ega bolalar;

Ikkinchi guruh – qonunbuzarlarga taqlid qiluvchi bolalar;

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy hulq – atvor stereotiplari o‘rtasida ikkilanuvchi, o‘z xatolarini tushunuvchi bolalardir;

To‘rtinchi guruh – irodali bolalarga bo‘sunuvchilar;

Beshinchi guruh – qonunbuzarlik yo‘liga tasodifan kirib qolganlar;

SHuni aytish lozimki, tarbiyasi og‘ir bolalar uchun, ular yashayotgan muhit, oila, ular o‘qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

Mustaqil ta’lim mavzulari:

1. Tarbiya haqida ma’lumot bering
2. SHaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari
3. SHaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar
4. “Tarbiyasi qiyin” bolalar klassifikatsiyasi

Keyslar banki

Keys -Dada, onam bilan- o‘rmonga ketyapmiz. Siz ham birga borasizmi? – deb suraydi. Farxod yotoq eshigini qiya ochib.

«Voy tinmaganlarey,– deb o‘ylaydi o‘zicha Karimaka.— Qachon qarasang biror joyga otlanib turganini ko‘rasan. YAKshanba kuni har qanday mayda-chuyda ishlarni yig‘ishtirib, dam olish o‘rniga allakayoqqa otlanish kerak. Bir haftadan beri, yuraverib joningga tekkan tikilinch avtobusga chiqib, yana nafasing bo‘g‘ilib yo‘l yurish zarur ekanmi, o‘rmonda nima bor? Maqsadsiz tentirab, daraxt va boshqa mayda-chuyda o‘simliklarni tomosha qilib kelasanmi? Zerikarli ish bu Ha, bolaga esa qiziqarli albatta, – deb o‘g‘liga qarab qo‘yadi Karimaka. Unga hamma narsa qiziq. Elib-yuguradi, har xil qo‘ng‘izlarni tutib o‘ynaydi, barglar, cho‘chqa yong‘oqlar terib quvonadi. Mengachi, menga nimasi qiziq?».

Karimaka yostiqdand boshini ko‘tarib, o‘g‘liga bir qaradida, yana o‘zini kresloga tashladi.

- Yo‘q, men bormasam; kerak, uyda qolaman,— deb javob beradi nihoyat ota kichkintoyga. Sen onang bilan o‘ynab kela qol.

- Siz ham bora qoling, dadajon! –deb yalina boshlaydi bolasi, – agar borsangiz futbol o‘ynardik, o‘rmonda quvlashardik, maza bo‘lardi.

Karimaka peshanasi tirishdi: «Nega sen menga yopishib olding. Ana onang bilan boryapsanku! Albatta, sen u bilan maza qilib o‘ynolmaysanda, a?» So‘ngra, otasi shunday taklif kiritadi:

-Xo'sh, sen onang bilan sayr qilib kelaver, qaytib kelganingdan keyin hovlida koptok tepamiz, bo'ptimi?

-Tushunsangizchi, sizsiz u zerikib qoladi, o'g'il bolaga onadan ko'ra ota kerak bo'ladi, — deb baqirdi yo'lakda turgan xotini.

-Ha, ota kerakmish... Lekin... Fakat o'ynatgani, ko'ngil ochgani kerak emish. Meni xam bir buyum qatori olib ketmoqchisan-da, a?

-YUr, ketdik, —dedi xafa bo'lgan ona va bolaning qo'lidan etakladi.

Xonadan churq etmay, tumshayib chiqishdi.

«Hechqisi yo'q, hali o'rmonga borganda chiroyi ochilib kegadi»,— deb o'zini tinchlantirdi Karimaka va gazetaga qo'l uzatdi.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
 - 1.Ota-onalarning xulq-atvoriga asoslangan baho bering.
 - 2.Ham otasi, xam onasi bilan o'ynab kelmoqchi bo'lgan kichkintoyning istagida uning qanday ehtiyojlari yorqin namoyon bo'ladi?
 3. Bunday ehtiyojlarninr qondirilmasligi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Nazorat savollari:

5. Tarbiya – bu qanday jarayon?
6. SHaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
7. SHaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating.
8. “Tarbiyasi qiyin” bolalar klassifikatsiyasini keltiring.

Test savollari:

1.Vazmin ishga asta - sekin kirishadigan boqi beg'am xarakteri jixatidan qaysi turga kiradi?

A). Ekstrovert V). Psixodiagnostika S). Dispress D). Introvert

2.Tarbiyachi faoliyatida psixologiyaning qaysi soxalariga oid bilimlar etakchi bilimni egallash lozim.

A). SHaxsning individual xususiyatlari V). Psixik jarayonlar.

S). SHaxs va shaxslararo munosabatlar. D). Bolalarning yosh xususiyatlari.

3. Pedagogik - psixologiya o'rganadigan soxalar-bu-

A). Umumiy va tarmoq psixologiyasi V). Pedagogik jarayon bilan bog'lik psixologik xodisalar S). SHaxs kamoloti davrlarini, ta'lim tarbiyani tashkil qilishning psixologik muammolari. D). Kasb-xunar metodlarini.

4.O'quvchilar jamoasida ruxiy muxit qanday omillarga bog'lik?

A). Sinf raxbarining faoliyatiga V). Sinf faoliyatiga S). Jamoadagi fiziologogik moslikka D). Jamoadagi psixologik moslikka

Mavzu. Pedagogik jamoa – ta’lim muassasini boshqarishning ob’yekti sifatida.

REJA

- 1.O‘quv–tarbiyaviy jarayonni boshqarish.
- 2.Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati.
- 3.Pedagogik faoliyatni faollashtirish.
- 4.Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi.
- 5.Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.
- 6.Rahbarlik qiluvchi shaxs o‘z hatti-harakatlari.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish

Mustaqil Respublikamiz amaliyotida qo‘llanayotgan qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo‘lgan ma’naviyat qirralari; iymon, e’tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do‘stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g‘urur kabi fazilatlarni shakllantirish zarurdir.

Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma’naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. SHunga ko‘ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko‘zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko‘zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko‘pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o‘quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o‘rishini ta’minlaydi.

Quyida o‘quv-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko‘rib chiqamiz.

1. Tarbiyaning ma’lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o‘ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo‘ysundirilgan bo‘lsa, uning g‘oyaviy-siyosiy darajasini ko‘taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta’siri yuqori bo‘ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi — har tomonlama kamol topgan — mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O‘qituvchilar jamoasi va har bir o‘qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta’lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o‘z ishining ustasi bo‘lgan o‘qituvchiga muhtoj. O‘qituvchining bilim saviyasi, ma’naviyati jamiyatni xarakterga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O‘qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o‘quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo‘naltirishi kerak.

Bir butun pedagogik jarayonda ta’lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo‘lsa, tarbiyada o‘quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga

mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yukori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolatida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kabiturki, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir»².

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo'ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya haqida buni aytish mumkin emas.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida xalq ta'limi islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida xalq ta'limi islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshmoqdalar.

O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. SHu sababli o'quv muassasini boshqarishning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati ikki asosiy masalani yechishga qaratiladi:

Pedagoglar faoliyatini yo'naltirish.

Pedagoglar faoliyatini faollashtirish.

Birinchi masalani hal qilish uchun boshqaruv sub'ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi ma'lum dasturni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Ikkinchi masalani hal etish uchun shaxsning hissiy-ehtiyoj sohasidagi talablarini (moddiy va ma'naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish) rag'batlantirishni qondiruvchi imtiyozli sharoitlar yaratiladi.

² А.Авлоний. «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ». – Т.: 1992. 43-бет.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladi, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa tashabbus bilan ishlash darajasi shuncha ortib boradi.

Pedagogik jamoa – o'quv muassasi boshqarishning ob'yekti

Respublikamiz hukumati ta'lim sohasida o'rtaga qo'yyayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagogik jamoaga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan pedagogik jamoa zimmasiga yuklatilgan. Bu o'z navbatida o'quv muassasasini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qaysi o'quv muassasasida ichki va tashqi nazorat yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha ta'lim maskanida ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish bir tomondan har bir pedagogning o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z ishida kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Ta'lim muassasi ishini har jihatdan to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlarni tarbiyalash ko'plab kishilarning umumiy mehnati jarayonida hal qilinar ekan, demak bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to'g'ri yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Aks holda birgalikda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Maqsadlarni tushunish birligini amalga chiqarish, so'ngra bu maqsadlarga erishish jarayonida o'zaro aloqalarni ta'minlash maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo'lib, bu vazifaning pirovard natijasi asosan rahbarning faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim muassasasini boshqarishda:

1. Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo'lga qo'yib ish tartibini belgilashi, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi.
2. Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibda va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish.
3. Ish me'yorining buzilishiga yo'l qo'ymaslikni, qiyinchilik va to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini kuzatishi va shu singari boshqa muo'im ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, ta'lim muassasasi rahbari ish faoliyatini 4 bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum ob'ektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin istiqbolli rejalarni belgilash. Ishning mavjud haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, muassasaning rivojlanish yo'lini belgilash va boshqalar.

Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro qiluvchilarga tunutirishi, olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi, bu

vazifalarni amalga oshirishda o'quv-trabiyaga oid tadbirlarni amalga oshirishi, kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi va hokazolar.

Ta'lim-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi, davlat dasturlarini bajarilishini, talablarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi, o'qituvchilar va butun jamoaning hisobotlarini eshitib borishi va boshqalar.

Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlarni, to'siqlarni bartaraf etishi, intizomga oid suhbatlar tashkil qilishi, shikoyat va iltimos bilan kelgan ota-onalarni qabul qilishi, muassasani boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi va hokazolar.

Har o'quv yilining oxirida pedagoglar jamoasi faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Bu ish bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Pedagog o'quv yili oxirida qilingan barcha ishlardan olingan natijalarni solishtirib u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin.

Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha pedagoglarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan printsiplial masalalarni qo'yib borish ham yaxshi natija beradi. Jamoa rahbari ma'naviyat-ma'rifat ishlarining kundalik ahvolini, mashg'ulotlarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarga kirish hamda ota-onalar, talabalar, pedagoglar bilan doimiy suhbatlar o'tkazish orqali o'rganib boradi va ayrim juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi.

SHunday qilib, jamoaning rahbari va jamoa a'zolarining faolligisiz, ta'lim-tarbiya berishda samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. SHu sababli ta'lim muassasasi rahbari doimo ularning kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi zarur.

Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbusni, mustaqil qaror chiqara olishni, o'z vazifasiga ijodiy yondoshuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham tom ma'noda taaluqlidir. SHu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibiga, hujjatlarni yuritishga va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash bilan cheklanish mumkin. Ta'lim natijasiga belgilanadigan talab qat'iy belgilanadi va davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilarning ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan erkinlik berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalish e'tiborini ta'lim jarayoni usullari va mazmunidan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zi uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga ega. Informativ dasturlarni bajarishi to'laliligicha pedagogning xohishi, uning ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi

majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasini boshqarish kontseptsiyasini ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy elementlarni ko'rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterda bo'lib, bu davrlarning har biri o'z davomiyligi, o'z tadbiq etilish sohasi, vazifalari va o'z yechimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin:

Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili.

Boshqaruv qarorining qabul qilinishi.

Ta'lim muassasi faoliyatini rejalashtirish.

Rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish.

Hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va ta'lim oluvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashi talab etiladi. Bunda ta'lim muassasining marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari bir qancha keng sohadagi masalalarni qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- bozorning joriy va istiqbol potentsialini o'rganish;
- bitiruvchilarning ish joylashuv statistikasi tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarining ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishning yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarining belgilanish xarakterini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyatining samaradorligini belgilash.

Ta'lim muassasi boshqaruvning pedagogik yo'naltirilganligi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasi rahbari tomonidan olg'a suriladigan rejalar, muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi va muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo'yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat'iy yondoshib borilganda doimo qabul qilinadi va qo'llab-quvatlanadi. O'quv yurti rahbari jamoada o'z ishini o'zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchi shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko'rsata olishi amalga oshiriladigan qat'iy choralarning tushunilishi va ijodiy samarasini ta'minlaydi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida global o'zgartirishlarni amalga oshirishning eng muhim muammolaridan biri boshqaruvchi kadrlar muammosidir. Ta'lim ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida hozirgi zamon sharoitida o'quv yurti ishida boshqarish nazariyasidan foydalanish muammolarini yanada rivojlantirilishiga ehgiyoj sezadi.

Rahbarlar-rahbar-menejer jamoasini shakllantirish murakkab masaladir. Hayotning o'zi, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik amaliyoti uning hal etilishiga ko'maklashadi. Biroq ko'p narsa kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, boshqaruvning ilg'or tajribasini o'rganish va yoyish, boshqaruv fani yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha maqsadga yo'natirilgan ishga ham bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning aniq yo'llaridan biri bozor sharoitida bir necha yuz yildan beri yashab kelayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganishdan iborat. XXI asrda bunday tajribaning juda qimmatli aspektlaridan biri keng hajmli "menejment" tushunchasi bilan qamrab olinadigan faoliyat va bilim sohasidir. Bunda "menejment" deyilganda boshqarish vazifasini kasb sifatida amalga oshiruvchi odamlar-menejnlarni xam tushuniladi.

Boshqaruvni mali juda yosh, fanlararo rang-barang yutuqlariga tayanadigan ilmiy va amaliy bilimning kasbi sifatida anglash hozirgi zamon tsivilizatsiyasida mustahkam o'rin tutmo³da. XX asr boshida F.Teylorning "Ilmiy boshqaruv", M.Veberning "Ideal byurakratiya", A.Fayolyaning "Ma'muriyat fani" kabi asrlarda o'zining eng aniq ifodasini topgan. Bu bilim sohasi dastlab boshqaruvda qat'iy ratsionalizm (amaliylik) yo'lidan bordi. Biroq menejmentda ratsionalizmning barcha afzalliklariga qaramasdan, bu yagona yo'l bo'lmasdan, balki ko'pchilik hollarda yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda o'quv yurtlari-ning ish samaradorligini oshirishda eng yaxshi yo'l ham emas ekan. Boshqarish bilimlari tizimida boshqarish ratsionalizmmning cheklanganlikdan ta'sirlanish sifatida boshqa yo'nalish fe'l-atvoriy yo'nalish mustahkam qaror topdiki, bu tashkilotlarda boshqarishning real mohiyatini tup[^]nishini chuqurlashtirish uchun psixologiya, sotsiologiya, madaniy antropologiya yutuqlarini keng jalb qilishga asoslangan. Bu yo'nalish asosida "odamlar orasidagi munosabatlarni" takomillashtirish, "inson omilini" ishga solish, muhandis-pedagog, iqqisodchi- pedagog va boshqa xodimlarning boshqarishdagi ixgirosini rivojlantirish, peshqadamlik samaradorligani oshirish bo'yicha tavsiyalar amalga oshirila boshlandi.

Boshqaruv tafakkuri uchun nazariy jihatdan va amaliy jihatdan bugungi kunda eng xos narsa nima? Adabiy manbalarni tahlil etishning ko'rsatishiga ikkita yangi oqim eng ko'p ko'zga ko'rinmo³da.¹

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida raqobat va o'zaro boqliqlikning o'sishi, tranmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi, xalqaro axborot tizimlarshing yaratilishi, integratsiya xususiyatli boshqa tuzilmalar munosabati bilan yuzaga kelgan yangi voqealikalarni jamoaviy tafakkur qilish.

Boshqarish bo'yicha ulkan sondagi adabiyotlarning chop etilishi, millionlab odamlarga tushunarli bo'lgan menejment bo'yicha dasturlarning tarqalishi, turli mamlakatlarning bo-shqarish tajribasini tekshirish orqali umumlashgirish, holatlarni ishlab chiqish, olimlar va amaliyotchilarning xalqaro keng aloqalari vositasi orqali «boshqarish» fani unga ehtiyoj sezayotgan barcha kishilarning mulkiga aylanmoqda.

2. So'ng yillarning xususiyati shundaki, boshqarishning og'ir yukini o'z zimmasiga olayotgan yoki shu yo'lga qadam qo'yayotgan odamlarning tushunishlari va foydalanishlari uchun kuchlari yetadigan bo'lgan, yaxshi o'zlashtiriladigan retseptlarga

¹ С.С.Фуломов.ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. Т.: “Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2000.

hamda haqiqatlarga murojat qilinmoqda. Menejment fan sifatida o'zining butun serqirraliligi bilan o'z yo'li bo'yicha rivojlanmo³da va ulkan istiqbolga erishmoqda.

SHu bilan birga hozirgi vaqtda aholining keng qatlamlari ham boshqarish g'oyalariga va samarali boshqarish retseptlariga astoydil qiziqmo³dalar. Bu narsa mazkur mavzu bo'yicha D.Karnegi., U.Ouchi., T.Piter., R.Uotermen kabi mualliflarning qiziqarli va jonli til bilan yozilgan kitoblari, L.Yakokki, G.Ford, A. Morit kabi bir qator yirik shaxslarning memuar asarlari tufayli ham yuz bermoqda. Hatto maqsadlar bo'yicha «boshqarish», «og'ishlar bo'yicha boshqarish» atamalariga o'xshash «bestselle bo'yicha boshqarish» atamasi paydo bo'ldi.

SHuni ham unutmaslik kerakki, hozirgi vaqtda menejerlarning sifati va ularni tayyorlash usullariga emas, balki menejer kasbiy tayyorlash rahbarning o'zining roli ham jiddiy munozaralarga mavzui bo'lib qolmoqda. U maxsus ta'limga ega bo'lgan (ko'pincha muhandislik, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash bilimlarga qo'shimcha), professional boshqarishni kasb qilib olgan.

Rahbar va uning shaxsi

«Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'rif berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar qondirishi zarur bo'lgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

Ma'naviy yetuklik.

- siyosiy yetuklik; huquqiy yetuklik; axloqiy yetuklik.
- ma'rifatlilik va madaniyatlilik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik.
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

- mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- atrofda gilarida mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
- ishni rejali olib bora bilish.

Bilim darajasi.

- iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;
- boshqarish ilmini, funktsiyalari va tuzilishini bilishi;
- istiqbolni bilishga qodirligi.

Tashkilotchilik qobiliyati.

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olishligi;
- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
- jiplashgan jamoani vujudga keltira olish;

Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;
- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. SHular yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va

mukammallashishlariga ta'sir etuvchi shakl hamda usullarning yanada samaraliligini topish mumkin.

Rahbar quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma'lumoti);
- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni yechish);
- muomalani dorilomonlashtirish;

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;
- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta'sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog'liq:

- xodim madaniyati va ma'lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasi qay darajada rivojlanganligi;
- jismonan sog'lomligi, ma'naviy barkamolligi;
- individual, ijtimoiy-ruhiy sifatleri;
- mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;
- axloqiy-ma'muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta'sir umumiy va qotib qolgan bo'lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar har bir muayyan shaxs uchun farqlidir. SHuning uchun tarbiyaviy ta'sir har bir shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lishi kerak, bu rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo'lishini taqoza etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishining quyidagi ta'bir joiz bo'lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

Ruhiy o'ziga xoslik, ya'ni shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish;

Yakka tartibda yondoshish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash;

Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish;

SHaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Umuman olganda, rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Salbening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan xoli emas: «SHuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha».

Ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabat mustaqillik, ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida ta'lim islohatlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshmoqdalar. O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. SHu sababli o'quv muassasini boshqarishning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu bobda o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish, pedagogik jamoa-o'quv muassasi boshqarishning ob'ekti, pedagogik faoliyatni faollashtirish yo'llari, ta'lim muassasini boshqarish kontseptsiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi, rahbar va uning shaxsi kabilar juda ko'plab misollar asosida tushunarli qilib bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagogik jamoaga ta'rif bering?
3. Marketing – bu nima?
4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing tizimi haqida gapiring?
5. Boshqaruv dasturi qanday amalga oshiriladi?
6. SHaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari haqida gapiring?
7. SHaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanday kuchlar mavjud?

Mavzu: Reorientatsiya psixologik muammo sifatida

Reja

1. Reorientatsiya va proforientatsiya.
2. Reorientatsiya va shaxsning xarakterologik xususiyatlarini hisobga olish

Reorientatsiya va proforientatsiya

Psixologiya fanida kasb tanlashga yo'llash (proforientatsiya) atamasi qadim zamondan qo'llanib kelinadi. Lekin ijtimoiy haytning keyingi davrlarida boshqa bir atama fanimizga kirib keldi. U riorientatsiya (qayta yo'llash) deb atalib, insonni yangi bir moslashmaga (ko'nikmaga) kasbga yo'naltirishni bildirib keladi.

Qayta kasbga yo'llash (reorientatsiya) o'ta insonparvarlik (gumanistik) g'oyani kasbini o'zgartiruvchi yoki ishsiz qolgan shaxs ruhiyatiga singdirishni anglatadi. Ishlab chiqarishga avtomatqurilmalarning (elektron moslamalarning, robotlarning) kirib kelishi ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi. Muassasa, tashkilot, korxonalar rentabelligining pasayishi ham xodimlarga nisbatan ehtiyojning kamayishini keltirib chiqaradi. Mu'lumki, bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanadi, shuning uchun testlarga bardosh beruvchi, yuqori malakali, mahoratli, bilimdon, komil insongina sinovlardan muvaffaqiyatli o'ta oladi, xolos. O'rtamiyona darajadagi mutaxassislar esa ish o'rnini yo'qotib, vaqtincha ishsizlar ro'yhatiga kiradi.

Ishsizlik, ish o'rnini yo'qotish ayollarda o'kinchli (ayanchli) his – tuyg'ular qobig'ida o'ta murakkab kechadi, go'yoki tragediya, halokat, judolik vujudga kelganda ham ekstravertlik, ham introvertlik xususiyatlari uyg'unlashganday yuz beradi. Erkaklar esa bunday vaziyatlarga matonat bilan, iloji boricha hissiyotlarga berilmasdan, aql – zakovat maromlariga tortilganlik tuyg'usi ustuvorligida namoyon bo'ladi. Erkaklarda achinish, xafaxonlik kechinmalari tarzida hukm surishi, asta – sekin uning ta'sir kuchi pasayishi kuzatiladi. Bunda insonning ruhiy kechinmalari keskin o'zgarishning asosiy omillari sifatida uning ish davri va yoshi ijtimoiy muammo maydoniga chiqadi. Yoshning ulg'ayishi yangi muhit, o'zgacha sharoit, notanish jamoa va uning nufuzi kabi masalalar yechimiga salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Mazkur ob'ektga uzoq davr mehnat faoliyatini bag'ishlash ham frustratsiya holatini harakatlantiruvchi safida asosiy ro'l o'ynashi mumkin. Xullas, har ikkala omil ham frustratsiyaning manbai vazifasini o'taydi (bajaradi), noxush muvaqqat kechinmalar vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi

jarayonlarini uzluksiz ravishda bajarib turadi.

Hozirgi zamon mehnat birjalarida reorientatsiya (qayta kasbga yo'llash) ishlari olib borilishi markazlashtirilgan. Maxsus xodimlar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan shahar, tuman bo'yicha ixtisoslar bo'yicha yoki ixtisoslar aro mutaxassislar ro'yhati (zaruriyati, ehtiyoji, talabi) bilan ish izlab kelgan muhtoj shaxs tanishtiriladi. Aksariyat mehnat birjalarida psixologlar yetishmaganligi tufayli ish bilan ta'minlash, bo'sh o'rinlarni to'ldirish bilan shug'ullaniladi, xolos. Aslida esa bu xizmat qator omillarni tekshirish, o'rganishni taqozo qiladi, ilmiy psixologik qonuniyatlar asosida ish yuritishni talab qiladi, chunonchi:

1. SHaxsning fazilatlari, xarakterologik xislatlari.
2. Xissiy jabhalari va irodaviy sifatлари.
3. Insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlari.
4. Ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yaroqliligi.
7. Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, salohiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstrovertligi va introvertligi.
14. Yuksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
15. Fidoiylik, al'istik, vatanparvarlik fazilatlari ustuvorligi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar bo'yicha tekshirish ishlari bir nechta metodlar, metodikalar orqali ko'p seriyali tajribalar negizida amalga oshiriladi. Buning uchun testlardan qobiliyatga, shaxsga, ijodiyotga, xotiraga shaxslararo munosabatga (oid), maxsus ishlab chiqilgan materiallardan, maqsadli vaziyatlardan qiyinlashtirilgan topshiriqlardan, muammolardan psixologik treninglardan, psixodiagmmalardan va boshqalardan foydalaniladi.

Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilingandan keyin muayyan xulosalar chiqariladi. Xulosalar asosida reorientatsiya sub'ekti roziligida ishga muxtoj shaxs taklif qilingan kasbga yo'naltiriladi. Ish joyining masofasi, uning ekologiyasi, sangigienasi, maoshi, istiqboli, muammoli jihatlari yuzasidan mukammal fikr muammoli jihatlari yuzasidan mukammal fikr almashiniladi, toki shartnoma qonuniy hujjat ekanligi (qiymatiga) zarar keltirmasin (ba'zan kelishuvdan voz kechish holatlari ham yuz berib turadi). Psixologik kuzatishlarning ko'rsatishiga qaraganda, reorientatsiya (kasb tanlashga yo'llash) kabi bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, ular qisqa fursatlarda (muddatda) o'tishi bilan o'zaro muayyan darajada tafovutlanadi. Jumladan, kasbiy maorif, kasbga yo'llash, kasbga saralash, kasbiy moslashish davri o'ziga xos tarzda kechadi, bir bosqich ikkinchisi bilan silliq uzviy bog'lanib ketadi. Kasbning moddiy (iqtisodiy) tomoni, ijtimoiy faollik (nufuzga egalik), ma'naviy ta'minlanganlik (ruhiy ko'tarinkilik hissiyotining ustuvorligi) insonning qaytadan ijtimoiy hayotdan o'z o'rnini topish imkonini yaratadi, uning umrini uzaytiradi, ruhiy imkoniyatlari, zahiralari, potentsiyasi, rezervi ishga tushishiga puxta negiz hozirlaydi.

Reorientatsiya (qayta kasbga yo'llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart – sharoit yaratadi. Inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak – xohish ushalihsiga negiz vujudga keltiradi. Ko'p profilli kasb – hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qiladi, komillikka intilish tuyg'usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi.

Reorientatsiya inson imkoniyatini qaytatdan sinashning manbai hisoblanib, o'zini – o'zi kashf qilishi, o'zini – o'zi boshqarishi, o'zini – o'zi tashkillashtirish, o'zini – o'zi baholash, o'zini – o'zi refleksiylash, o'zini – o'zi identifikatsiyalash kabi shaxs fazilatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Kasbga yo'naltirish kabinetining asosiy vazifalaridan biri kasb tanlash masalalari bo'yicha maktab o'quvchilari bilan individual ish olib borish hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish kabineti rahbari bu ishni sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota – onalar, maktab vrachi bilan yaqin hamkorlikda olib boradi. Uning vazifasi o'quvchilar shaxsini o'rganishda pedagoglarga yordam berish; kasbni mustaqil tanlashda maktab o'quvchilarining aktivligini oshirish yo'llari to'g'risida o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish; sinf rahbari o'quvchiga kasbni egallash yo'lini tanlashda tavsiya berishda qiynalayotgan murakkab hollarda o'quvchilarga konsultatsiya berishdan iborat.

Psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar ma'lumotlari bo'yicha shu narsa aniqlanganki, kasb tanlash o'quvchi uchun murakkab jarayon hisoblanadi, unda shaxsning sotsial yetuklik darajasi jiddiy ahamiyatga ega. O'smir o'zining kasb yo'lini shunday vaqtda tanlaydiki, u vaqtda uning shaxsi hali shakllanmagan va u bunday mas'uliyatli qarorga kelishi uchun yetarli tayyorlanmagan bo'ladi.

Xilma – xil kasb mehnatlari to'g'risida bilimning yetarli emasligi, shuningdek, o'z layoqatlarini biron – bir ish faoliyatida tekshirish tajribasi cheklanganligi o'quvchilarda kasb yo'lini tanlashda ham, uni amalga oshirishda ham qiyinchiliklar tug'diradi.

Kasbga yo'naltirish nuqtai nazaridan o'smirlik davrining qiyinchiliklari ham ana shundadir, ya'ni kasb yo'li tanlash to'g'risida birinchi mustaqil qaror qabul qilish zaruratiga duch keladi, lekin ko'pincha bunga tayyor bo'lmaydi.

Xuddi shuning uchun maktab o'quvchilari kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha metodistning rahbarligi va individual yordamiga muxtoj bo'ladilar. Har bir o'quvchini mehnat hayot yo'lga faqat ijtimoiy tashkil etilgan individual kasbga yo'naltirish ishi jarayonidagina psixologik va pedagogik jihatdan tayyorlab olib kelishi mumkin.

Reorientatsiya va shaxsning xarakterologik xususiyatlarini hisobga olish

Kasbga yo'naltirishda individual yondashishning mohiyati quyidagilardan iborat:

- 1) maktab o'quvchisi shaxsining individualligiga, uning bir butunligiga va xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga asoslanishi kerak;
- 2) u yo bu tarbiyaviy ta'sirga o'quvchi individual qanday reaksiya berishni hisobga olish kerak;
- 3) individuallik va yosh xususiyatlarini hisobga olib, kasbni puxta tanlashga tayyorlash borasida maktab o'quvchisining o'z aktivligini oshirish kerak.

O'quvchi shaxsini har tomonlama o'rganish – individual ishning zarur shartidir. Biroq, pedagoglar ko'pincha u yo bu ish faoliyati sohasi talablariga javob beradigan

shaxsning hamma xislatlariga aniqlay olmay qiynaladilar.

Kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchilarni muntazam va izchil o'rganib borilganida to'g'ri keladigan yo'lni topib olish mumkin. Konsul'tatsiyalar davomida pedagoglar maktab o'quvchilarining qiziqishi, moyillik va layoqatlarini o'rganib va yo'naltirib turadilar, kasb tanlashda ular tashabbusni bo'g'ib qo'ymaslikka harakat qiladilar, ularga o'zi, shaxsiy hislatlarini tushunib yetishda yordam beradilar. Pedagog o'quvchining "o'z" kasbini izlab topishida unga yordam beradi, bu izlanishlariga boshchilik qiladi. O'quvchi ko'proq kimning yordamiga muhtojligiga qarab sinf rahbari, predmet o'qituvchilari, kasbga yo'naltirish kabineti rahbari individual ish olib boruvchi konsul'tant bo'lishi mumkin. Konsul'tatsiyaning tashkiliy tomoni kabinet rahbarining vazifasiga kiradi.

O'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishini olib borishning muvaffaqiyatli ko'p jihatdan konsul'tantning malakasi qay darajadiligiga bog'liq: uning maktabda kasbga yo'naltirish ishlari umumiy asoslari to'g'risidagi bilimlarning chuqurligi, individual xarakteristikalar tuzishi, o'quvchilar, ularning ota – onalari, pedagoglar bilan individual konsul'tatsiyalar olib borishi, kasb konsul'tatsiyasiga oid xulosalar chiqara olishiga bog'liq.

O'quvchi shaxsini har tomonlama psixologik – pedagogik o'rganish davomida u bilan birga kasb tanlashga tayyorgarlashning oqilona yo'llarini topish kerak. Bu jarayon bolaga maktabda ta'lim berilayotgan dastlabki yillarda maxsus programma bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

O'quvchilar shaxsini o'rganish uning hamma jihatlarini: yo'nalishi, qobiliyati, xarakteri, temperamentini qamrab olishi zarur.

Y o' n a l i sh hayotning turli tomonlariga shaxsning munosabatlarini, uning ma'naviy – axloqiy hislatlarini birlashtiradi. U bevosita tabiiy asosga ega emas, balki tarbiya jarayonida shakllanadi. U qiziqishlar, moyilliklar, e'tiqod, niyatlarni o'z ichiga oladi.

Pedagog o'quvchilarda kasb faoliyatiga qiziqish borligi to'g'risida ularning biror bilim sohasini tanlab mo'ljallayotganligi, uning predmet tomoni, muayyan kasb faoliyati sohasiga ijobiy emotsional reyaktsiyasiga qarab hukm chiqarishi mumkin.

M o y i l l i k deganda o'quvchining tanlayotgan sohasiga munosabati o'zgarmasligi, konkret amaliy faoliyatga intilishi ("kuch sinab ko'rish") tushuniladi. O'quvchi o'z tashabbusi bilan o'quv faoliyati, sinfdan tashqari ishlarda hammadan ko'ra ko'proq qiziqib shug'ullanishiga qarab moyilliklari to'g'risida hukm chiqariladi.

Professional n i y a t l a r deganda shaxsning konkret kasbni egallash va tegishli ma'lumot olishag qat'iy intilishlari tushuniladi. SHaxsning yana bir jihati qobiliyatlaridir. Psixologiyada qobiliyatlar shaxsning individual – psixologik xususiyatlari sifatida ta'riflanib, ancha samarali mehnat faoliyatining sharti hisoblanadi. Faoliyat muvaffaqiyatli va o'ziga xos tarzda olib borilayotgan bo'lsa, yangi bilim va ko'nikmalar tez o'zlashtirilayotgan bo'lsa, qobiliyatlar bor ekan deyiladi. Qobiliyatlar mehnatda shakllanib boradi.

Odamning barqaror psixik xususiyatlarining jami, atrofdagi xayotga psixik reaksiyasining individual tipi xarakter hisoblanadi. U odam o'ziga, boshqa kishilarga, tpshirilgan ishga, buyumlarga qanday munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Xarakter shaxsning tug'ma xislati emas, u odamlarning faoliyati sharoitida shakllanadi

va tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Temperament odam psixik jarayonlarining kechishi dinamikasini bildiradi. Uning fiziologik asosi – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchliligi yoki zaifligi, vazminligi, xarakatchanligi yoki sustligi bilan xarakterlanadi. SHuni ta'kidlash kerakki, temperament tug'ma hislatlar bilan belgilangan bo'lsada, in individning butun hayoti davomida o'zgarmas bo'lib qolmaydi. Har qanday temperament shaxsning butun ijtimoiy ahamiyatli hislatlarning rivojlanishiga monelik qilmaydi, biroq har bir temperament shakllanishning o'ziga xos yo'l va usullarini talab qiladi. Temperament shuningdek, o'smir shaxsining o'ziga xos rivojlanishidagi shartlardan birini tashkil qiladi.

SHaxsning hamma jihatlarini maktabda psixologik – pedagogik metodlar yordamida o'rganiladi. Metodist ishini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin: 1 bosqich – o'quvchini biror bir ish faoliyatiga muvofiqligini aniqlash maqsadida uning shaxsini har tomonlama o'rganish, yoki uning o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish, 2 bosqich – kasbni asosli ravishda tanlashga tayyorlash (bu bosqichning mazmuni 3 bobning 2 §ida ochib beriladi).

SHaxsning o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kompleks metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: darslar va sinfdan tashqari ishlarda kuzatish. 7 – 10 sinf o'quvchilari va ularning ota – onalariga anketa tarqatish, individual suhbatlar, differentsial – diagnostik so'rov (E. A. Klimovning differentsial – diagnostik so'rovi bo'yicha). Mazkur metodlar yordamida olingan hamma ma'lumotlar "Kasb konsultatsiyasi kartasi" qo'shma anketasida umumlashtiriladi. Kartada maxsus ajratib ko'rsatilgan parametrlar bo'yicha o'quvchining shaxs xususiyatlari qayd qilinadi. Qaysi qiziqishlari, moyilliklari o'qituvchi kasb tanlashda o'quvchining yo'nalish to'g'risida dastlabki xulosani chiqaradi.

Kuzatish doimiy olib boriladi. O'quvchining bilimlarning muayyan sohasiga bo'lgan qiziqish va moyilliklarini rivojlantirish borasida harakatlari borligi yoki yo'qligi, uning kasb tanlash problemalari muhokama qilinayotgan paytdagi aktivligi, o'quv va ijtimoiy foydali ishda umumiy mehnat ko'nikmalarini namoyon etish hisobga olinadi. Kuzatish shaxsning tashqi o'zgarishlarini aqyd etib borish imkonini beradi. O'quvchini yanada chuqurroq o'rganish uchun boshqa metodlardan ham foydalaniladi.

Anketa tarqatish. Anketa yordamida o'quvchilarning ko'proq nimalarga qiziqishi va moyilliklari, kasbga oid intilishlari, o'z individual xususiyatlarini bilishi, kasbga oid mo'ljallari aniqlanadi.

Ota – onalar uchun anketalar mazmuni bolalarning nima bilan qiziqishini bilish, ota – onalar ularning qobiliyatlariga qanday baho berishi, uy – ro'zg'orda qay darajada qatnashishi, shuningdek, ota – onalarning o'z farzandlari kasb tanlashidagi rolini aniqlashga qaratilgan.

Suhbat anketa tarqatish va kuzatish paytida olingan ma'lumotlarni aniqlab olish va to'ldirish uchun kerak. Suhbatda o'quvchining professional niyati, qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari, kasb yo'lini tanlashga bundan keyingi tayyorlanish yuzasidan maslahat va tavsiyalarga hozirligini aniqlashga asosiy e'tibor beriladi. Ma'lumotlar suhbat protokoliga qayd etiladi.

Kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan individual ish pedagog va

vrachning, albatta birgalikda ish ko'rishini nazarda tutadi. Maktab o'quvchilari tanlanayotgan kasbga ularning sog'lig'i to'g'ri keladimi – yo'qmi ekanligini oldindan bilishlari kerak. Salomatlik to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) kasallik yo'qligi to'g'risida xulosa;
- 2) surunkali kasalliklar mavjudligi;
- 3) muayyan kasblarga to'g'ri kelmaydigan kasalliklar ro'yxati.

Differentsial – dignostik so'roq qog'ozi (E. A. Klimovning differentsial – diagnostik so'rovi) dan o'quvchilar qaysi kasb faoliyati sohasini tanlashini aniqlash uchun foydalaniladi. U inson mehnat faoliyatining turli sohalari to'g'risida 20 ta savolni o'z ichiga oladi. DDS bilan ishlash “Kasb konsultatsiyasi kartasi”ga doir instruksiyada mufassal bayon qilingan. Ishning birinchi bosqichi so'ngida (shaxs xususiyatlari diagnostikasi) konsultant o'quvchining kasb tanlashdagi qiyinchiliklarini tahlil qiladi, tanlangan kasb faoliyati turi bilan uning individual xususiyatlarini oldindan solishtirib ko'radi.

E. A. Klimov ishlab chiqqan kasblar tipologiyasi asosida mos kelgan – kelmaganlik aniqlab beriladi.

Kasb faoliyatining tavsiya etilayotgan tipi doirasida metodist o'quvchiga kasbga oid rejalarini aniqlashga yordam beradi, ya'ni individual ishning ikkinchi bosqichiga – o'quvchini kasbni asosli ravishda tanlashga, tayyorlanishga olib keladi.

Kasbni asosli ravishda tanlashga tayyorlash yuzasidan o'quvchilar bilan olib boriladigan individual ishlar

O'quvchining o'z iste'dodini izlashdagi aktivligini oshirish, unga o'z yo'lini mustaqil topib olishda yordam berish maqsadiad korreksion (tuzatish kiritadigan) individual ish olib borish zarur. Konsultant sifatida metodist ish olib borishi mumkin, u maktab o'quvchisiga ish faoliyati sohasini tavsiya etadi, uning kasb tanlashga tayyorgarlik bilan bog'liq xatti – harakatlariga aniqlik kiritib turadi, lekin uzil – kesil kasb tanlash o'quvchining o'ziga qo'yib beriladi.

Bu bosqichda metodistning ishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan kasb tanlashga mustaqil tayyorlanish planini tuzish; Bunda qiyinchiliklarni yengish yuzasidan konkret ishlar mo'ljallanadi.
2. Individual suhbatlar davomida mustaqil tayyorlanish planiga aniqlik kiritib borish.
3. Tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar (tegishli ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan konkret o'quv yurtlari, shuningdek o'quvchining tayyorgarlik darajasiga qarab kasbga yo'naltirish yo'llari to'g'risida ma'lumotlar berish; hunar – texnika bilim yurti, o'quv yurti, to'garak, jamoat ishlariga qatnashish bo'yicha o'ly tavsiyalar, maxsus adabiyotlar o'qish, doklادلarga tayyorlanish, individual hislatlarni mashq qildirish, umummehnat hislatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar).
4. Individual suhbatlar davomida tavsiyalar qanday amalga oshirilayotganligini nazorat qilish.
5. Oila bilan doimiy individual ish, maktab o'quvchisining mustaqil kasb tanlashida qatnashishga ota – onalarni jalb qilish, oilaning moddiy ahvolini hisobga olib borish.

6. O'quvchining kasb yo'lini tanlashga tayyorlanganligi to'g'risida xulosa chiqarish, bunda mustaqil tayyorlanish sohasida o'quvchining amaliy faoliyati to'liq ta'riflab beriladi, uning kasbga oid mo'ljallari muvaffaqiyatli ro'yobga chiqishi oldindan aytiladi.
7. Pedagog kasb tanlashning amalga oshirilishi natijalarini o'quvchi 10 sinfga o'tganda, maktabni bitirib chiqqanda, boshqa o'quv yurtiga kirganda qayd etib boradi.

SHubhasizki, kasbga yo'naltirish xarakteridagi tavsiyalar har bir konkret holda individualdir. Biroq, kasb tanlashda o'smirlar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganib, individual ish olib borishning tipik o'ziga xos xususiyatlarini aytish mumkin: 1) bilishga doir qiziqishlarning barqaror emasligi, kasbga oid mo'ljallarning tez o'zgarib turishi; 2) kasb yo'lini tanlashda o'z imkoniyatlarining tahlil etishning yo'qligi; 3) tanlanayotgan kasb mazmuni va o'quv – ishlab chiqarish kombinatidagi mehnat ta'limi profili to'g'risidagi tasavvurning bo'shligi; 4) hunar - texnika bilim yurti, texnikum, oliy o'quv yurtini tasodifan tanlash; 5) odatdagi mashg'ulotni davom ettirish istagi sifatida yuqori sinflarda yoki oliy o'quv yurtida o'qishga intilish; 6) o'z kuchlariga ishonmaslik yoki unga ortiqcha baho berish.

O'quvchilar bilan individual ish olib borish jarayonida pedagog qiyinchiliklarning qandayligiga qarab ularni yengishga yordam beradi. Masalan, hunar – texnika bilim yurti to'g'risida o'smir yaxshi ma'lumotga ega bo'lmagan holda uni qiziqtirayotgan konkret kasb to'g'risida, maxsus bilim olish va ishga joylashish yo'llari to'g'risida ma'lumotlar berishi kerak. Suhbat mehnat mazmuni, kasbning odamga qo'yadigan talablari, o'qish va mehnat faoliyatining o'zaro bog'liqligi, mazkur ishchi kasbida mahoratni o'stirish istiqbollari to'g'risidagi masalalarni o'z ichiga olishi kerak. Maktab o'quvchisiga konkret misollarda ishchi kasbi bilan oliy ma'lumot olishni talab qiluvchi turdosh kasb o'rtasidagi davomiylik to'g'risida so'zlab berishi kerak.

Ko'pincha o'smirlar o'zlarida iroda kuchi, mehnatsevarlik, maqsadga intilish, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olish singari xislatlar yetarli taraqqiy etmaganligini o'zlari ta'kidlaydilar. Bu holda individual konsultatsiyada o'quvchilarga mustaqil tarbiyalanish tanlanayotgan kasb uchun zarur bo'lgan hislatlarni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar beriladi. Suhbat davomida pedagog o'quv faoliyatidagi yutuqlarni o'quvchilar bilan muhokama qilishga asosiy e'tibor beradi, kasb yo'lini tanlashga tayyorgarlik darajasiga qarab konkret ishlar belgilanadi, masalan, to'garaklarda qatnashish, jamoat topshiriqlarini bajarish, o'quv jamoat topshiriqlarini qanday bajarganligini mustaqil tahlil qilish kabilar.

Maktab o'quvchisi o'qituvchining tavsiyalarini qanday bajarayotganligini kontrol qilish va kelgusi mehnat faoliyati yo'lini tanlashga tayyorgarligiga rahbarlik qilish uchun "Kasb konsultatsiyasi kartasi"ga shaxsning namoyon bo'lgan hamma hislatlari yozib boriladi.

Har bir o'quvchini o'rganish jarayonida olinadigan ob'ektiv ma'lumotlar kasb konsultantiga o'quvchining professional jihatdan individual kamolga yetishining konkret programmasini belgilash va bu bilan pedagogik yordamni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Reorientatsiya deganda nimani tushundingiz?
2. Proforientatsiya nima?
3. Mehnat birjalarida reorientatsiya ishlari qanday talab asosida olib boriladi?
4. Moyillik, temperament, qobiliyat deganda nimani tushundingiz?

Mustaqil tayyorlanish uchun amaliy mashg'ulot mavzusi va topshiriqlari

“Reorientatsiya psixologik muammo sifatida. Kasb motivlari, kasbga qiziqish, kasbiy layoqat va ularni tekshirish metodlari. Mashq, trening, trenirovka, tajriba kasbiy moslashishning muhim omillari ekanligi” mavzusidagi seminarga tayyorgarlik ko'ring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sh.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T. “O'zbekiston”, 2017. 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T. “O'zbekiston”, 2017. 48 b.
3. Sh.M.Mirziyoev “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T. “O'zbekiston”, 2016. 56 b.
4. G'oziyev E. Umumiy psixologiya .T.2010.
5. Davletshin M.G., S.Tuychiyeva “Umumiy psixologiya”. O'quv qo'llanma. T. 2002
6. S.N.Jurayeva., Z.SH.Yunusxodjayeva “Kasbiy psixologiya” Toshkent .2014. 162-bet
7. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. “Kasbiy psixologiya” Toshkent 2010. 161-bet
8. Psixologiya B.M. Umarov. Darslik – “Voris nashriyot ” Toshkent 2012 y.270-bet
9. Getting Started: Idea Book on Pedagogy for New Faculty. Faculty Teaching Excellence Program UNIVERSITY OF COLORADO BOULDER Office of Academic Affairs 2008, 82p
10. Hayitov O.E. Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni to'plami. - T., 2005.120b
11. Asamova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psix. Fan. Nomz. diss. avtoref. -T.: 2002. -28 b.
12. Mavlyanov A va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi “VORIS-Nashriyot”- T.: 2010.105b

II. Mustaqil ta'lim mavzulari

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan

bilim, ko`nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o`qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O`qishning boshlang`ich bosqichlarida TMIning tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog`liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta`limning navbatdagi turi - oliy ta`lim talablarga ko`nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta`lim olish jarayonida o`z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o`z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o`z vaqtlarini to`g`ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to`g`ri baholash ular uchun katta muammo bo`ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta`lim olishga ruhan tayyor bo`lishmaydi.

SHuning uchun har bir professor-o`qituvchi dastlab talabada o`z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg`otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to`g`ri tashkil qilishga o`rgatib borishi lozim bo`ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o`zlashtiriladigan bilim va ko`nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. SHunda mustaqil ta`limga ko`nika boshlagan talaba faqat o`qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o`zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o`zi zarur deb hisoblagan qo`shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o`zlashtirishga o`rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar ehtiborga olinishi lozim:

- o`qish bosqichi;
- muayyan fanning o`ziga xos xususiyati va o`zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
 - talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib borishi lozim. Ya`ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o`rgatib borish kerak bo`ladi.

TMIning tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ma'lum mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to`plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va

- topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislari va mahruza tayyorlash;
 - amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
 - uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o`ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, talabalarning auditoriya mashg`ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to`ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o`zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o`quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o`zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga ehtibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko`rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o`quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o`zlashtirish qiyin bo`lsa, savollar paydo bo`lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o`qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o`zlashtirilgan mavzu bo`yicha tayyorlangan matn kafedradagi o`qituvchilar tarkibidan tashkil etilgan komissiya oldida himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo`lgan biror mavzu bo`yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo`shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig`adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo`yicha imkon darajasida to`liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o`qituvchidan maslahat va ko`rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko`rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o`zlashtirish uchun yordam beradigan ko`rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o`qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko`rsatmalar, yo`l-yo`riqlar beriladi. Ko`rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo`yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko`rgazmali materiallardan foydalanish bo`yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo`yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo`yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo`lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo`ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o`qituvchi tomonidan talabaga testga qo`yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko`zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo`yicha yo`l-yo`riq beriladi. Konsul`tatsiya paytlarida bajarilgan ishlarining qo`yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to`ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislari va ma`ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo`yicha (mavzuni talabani o`zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma`ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o`quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to`playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo`shimchalar, izohlar kiritadi, o`z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o`qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma`ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Bir mavzu yoki bo`lim bo`yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo`lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo`lishi kerak.

Talabani qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy harakterdagi topshiriqlar berish, o`qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

tizimli yondoshish;

barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

bajarilishi ustidan qat`iy nazorat o`rnatish;

tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.), aniq asoslanishi;

vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo`lishi;

maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi (yo`llanma va ko`rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo`yicha tushuncha berish, ayrim muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish va x.k.);

hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

auditoriyada amalga oshiriladigan TMllari. O`tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMllari. O`quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o`zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko`rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va h.k.

«Kasbiy psixologiya» fanidan mustaqil ish bajarilishining kalendar tematik rejasi

T/r	Mavzu nomlari	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	Talaba mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma'lumot	O`qituvchining imzosi
1	Psixologiyaning tadbqiqiy va amaliy sohalari.	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
2	Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
3	Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqalash muammolari	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
4	Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivasiyasi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
5	Motivlarning turlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
6	Kasbiy faoliyatni baholashning shakllari va	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
7	Temperament va faoliyatning samaradorligi masalasi	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
8	Xarakterning psixologik strukturasi	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
9	Temperamentni o'rganish usullari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
10	Xarakterning shakllanishida tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning roli	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
11	Kasb ta'limining metodologik asoslari	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
12	Fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida o'quvchilar kasb ta'limining rivojlanishi tamoyillari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	

13	Uzluksiz ta'lim va yangicha pedagogic fikrlash sharoitida o'quvchilar kasb ta'limining nazariy asoslari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
14	Kasb ta'limi bo'yicha dasturlarni tahlil qilish	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
15	Shaxsning mehnatga moslashuv mezonlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
16	Kasb ta'lim tarbiyasining mazmuni	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
17	Umumtexnik fanlar bilan maxsus texnologiyaning birligi tamoyili	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
18	Namunaviy dasturlarning tarkibiy qismlari	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
19	Mehnat va kasb ta'limining uzviy bog'liqligi	Mustaqil ish	4	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
20	Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi	Mustaqil ish	2	Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid tayanch so'zlar, referat yozish	Og'zaki, savol-javob	3-semestr	
			58 soat				

**Izoh: TMI hajmidan kelib chiqib o'quv jadvaliga haftasiga bir marta kunning ikkinchi yarmiga konsultatsiya darsi qo'yiladi*

III. GLOSSARIY

Avtokinetik fenomen. O'z-o'zidan xarakatlanish (grekcha «auto» o'zi, «kinetika»

xarakat). Qorong'ida xarakatsiz nur manbaining xarakatlanayotganga o'xshab tuyulishi. **Agressiya.** Kimgadir zarar yetkazish uchun yo'naltirilgan jismoniy yoki verbal xulq. Laboratoriya eksperimentlarida agressiya deganda xissiyotga ta'sir qilish uchun elektr toki bilan zarba berish yoki so'z bilan nafsoniyatiga tegish tushuniladi. Agressiyaning bunday sotsial-psixologik ta'rifi bo'yicha odam agressiv bo'lmagan holda qaysar (naporistiy) bo'lishi mumkin.

Adaptatsiya darajasi fenomeni. Qo'zg'ovchilarning aniq darajasiga moslashish va oqibatda aynan shu darajada sodir bo'ladigan o'zgarishlarga javob berish hamda diqqatni qaratish tendentsiyasi.

Altruizm. Ongli shaxsiy egoistik manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan kimgadir yordam ko'rsatish motivi.

Antikateksis – instinktlarning qondirilishiga imkon bermaydigan to'sqinlik.

Atributsiya nazariyasi. Odamlar boshqalarning xulqini qanday tushuntirishadi: xarakterlar sababini odamning ichki dispozitsiyalari (barqaror sifatlar, motivlar va ustanovkalar)ga bog'lashadimi yoki tashqi vaziyatlarga? - xaqidagi nazariya.

Atributsiyaning fundamental xatosi. Kuzatuvchilarning xulqqa vaziyat ta'sirini kamsitib va dispozitsiya (ichki shaxsiy sifatlar) ta'sirini bo'rttirib baholash tendentsiyasi. (SHuningdek mos kelish ishonchi deb ham atalib, biz aksariyat odamning xulqi uning dispozitsiyalariga mos keladi deb hisoblaymiz).

«Begona» guruhning gomogenligi samarasi. «Ularning» guruhi «bizning» guruhimizga nisbatan ko'proq bir biriga o'xshaydi. SHunday qilib «ular – bir biriga o'xshashadi; biz – turli tumanmiz».

Bixevorial tasdiq. Ijtimoiy kutishlar odamlarni shunday xarakter qilishga majbur qilib, ularning xulqi boshqalarni shu kutishlarni tasdiqlashga undashga sabab bo'ladigan, o'z-o'zidan amalga oshadigan bashoratlar tipi.

Verifikatsiyalashganlik. Nazariyaning qiymatini aniqlash uchun ishlatiladigan mezon. Adekvat nazariya qat'iy aniqlangan, mantiqiy o'zaro bog'langan va empirik asoslanadigan kontseptsiyalardan iborat bo'lishi kerak.

Vositachilik. Uchinchi betaraf tomonning aloqalarni yaxshilash va takliflar kiritish yo'li bilan ziddiyatni bartaraf qilishga intilishi.

